

uzunpaypoq

Peppi

ilk bor
o'zbek tilida



10+

ASTRID LINDGREN



Ushbu kitobdan tushadigan mablag'ning bir qismi oq qonga chalingan bolajonlarimiz salomatligi uchun sarflanadi.

Kitob shu orda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

ASTRID LINDGREN

uzunrayroq

Peppi

САНКТ



ZABARIAD
MEDIA

Toshkent
2021

UO'K: 821.113.6-31
KBK: 84(4Shva)
L – 55

Lindgren, Astrid

Uzunpaypoq Peppi: qissa / Astrid Lindgren. Ingliz tilidan Shohrux Usmonov tarjimasi. – Toshkent: «Zabarjad Media», 2021. – 128 b.


ISBN 978-9943-7390-2-4

Dunyodagi eng kuchli va eng betakror qiz bilan tanishishni istaysizmi? Uning aql bovar qilmas sarguzashtlariga guvoh bo'lishni-chi? Unda, keling, sizni Uzunpaypoq Peppi bilan tanishtiramiz!

Peppi hech kimga o'xshamagan, yerga ursa osmonga saphiydigan, sarguzashtsevar, serg'ayrat, umuman olganda, ajoyib-u g'aroyib qiz. Mazkur kitob esa sizga ana shu g'aroyib qizaloq – Peppi haqida hikoya qiladi.

Aytganча, kitob ilk bor o'zbek tilida taqdim etilmoqda va albatta u barchangizga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

Ingliz tilidan
Shohrux Usmonov
tarjimasi



ISBN 978-9943-7390-2-4

© Astrid Lindgren, «Uzunpaypoq Peppi», «Zabarjad Media»,
2021-yil.

1. Peppining «Tovuq» villasiga ko'chgani

Kichkinagina shaharchaning adog'idagi yo'l chetida bir xaroba bog'ga ko'zingiz tushadi; bog'ning ichida eski bir hovli bo'lib, bu hovlida Uzunpaypoq Peppi istiqomat qilardi. Qizcha endigina to'qqiz yoshga kirgan bo'lsa-da, bu yerda yolg'iz o'zi hayot kechirardi. Uning onasi ham, otasi ham yo'q edi. Albatta, bu juda yaxshi, chunki endigina miriqib o'ynayotganida birov unga kech bo'lganini aytib uxlashga buyurmaydi yoki karamelli shirinlik yegisi kelganida hech kim uni baliq moyi yeyishga majbur qilmaydi.

Bir zamonlar Peppi otasi bilan birga edi, u otasini juda-juda yaxshi ko'rardi. Tabiiyki, qachondir uning onasi ham bo'lgan-u, ammo hozir Peppi onasini hatto eslay olmaydi. Sababi Peppining onasi ancha vaqt ilgari, u hali belanchakda uzzukun g'ingshib yotadigan jajjigina chaqaloqlik payti-dayoq vafot etgandi. U onasi osmonda yashayotganiga va o'sha yerdan turib, jimitdekkina samoviy tuynukdan mo'ralagancha qizini kuzatib turishiga ishonardi. Shuning uchun ham Peppi tez-tez qo'llarini yuqoriga ko'targanacha:

– Xavotir olmang, oyi, men har doim o‘zimni eplay olaman, – deb qo‘yishni odat qilgandi.

Harqalay, Peppi otasini doim eslab yuradi. Uning otasi dengizlar-u ummonlar uzra suzib yuradigan kema kapitani edi. Kunlarning birida dengizdagi to‘fon sababli otasi kemadan ag‘darilib, yo‘qolib qolmaguncha Peppi har doim dengiz sayohatlari-da u bilan birga bo‘lardi. Ammo otasi bir kunmas bir kun qaytib kelishidan Peppining ko‘ngli to‘q. Qizaloq otasining cho‘kib ketganiga aslo ishonmasdi, yo‘q-yo‘q, aslida u odamxo‘rlar yashaydigan orol qirg‘og‘igacha suzib borgan bo‘lishi kerak. Uning o‘ylashicha, otasi odamxo‘rlar oroliga yetib olgach, barcha yovvoyilarning qirol bo‘lgan, o‘sha kuniyoq sahardan to shomgacha oltin tojini kiyib, butun orolni aylanib chiqqan edi.

– Mening otam – odamxo‘rlar qirol! Axir dunyodagi hamma bolalarning ham bunaqa ajoyib dadalari bo‘lmaydi-da, – derdi Peppi mamnuniyat bilan. – Otam o‘ziga boshqa bir qayiq yasashi bilanoq bu yerga kelib, meni olib ketadi. Men odamxo‘rlar malikasi bo‘laman. Yeh-hu! Bunday paytda hayajonlanmay bo‘larmidi?!

Otasi ko‘p yillar muqaddam bog‘dagi eski uyni sotib olgandi. Qachondir qarib-qartayib, ortiq dengizga chiqadigan holi qolmaganida Peppi bilan birga umrguzaronlik qilishni o‘ylab shunday qilgandi. Ammo kutilmaganda ko‘rgilik yuz berdi-yu, Peppining otasi kemada halokatga uchradi. Shundan so‘ng qizcha otasini kutgani to‘g‘ri «Tovuq» villasiga yo‘l oldi. «Tovuq» villasi – qizaloqni bag‘riga

olishga tayyor turgan uyning nomi. Iliq yoz tonglarining birida Peppi otasining jamoasidagi dengizchilar bilan xayrlashdi. Ular barchalari Peppiga mehr qoʻygan edilar, Peppi ham ularni yaxshi koʻrar edi.

– Koʻrishguncha, yigitlar, – dedi har bir dengizchining peshonasidan oʻpib chiqarkan. – Mendan umuman xavotir olib oʻtirmanglar. Uzunpaypoq Peppi har doim oʻzimni idora qila oladi.

U kemadan ikki narsani: bir paytlar otasi sovgʻa qilgan janob Nilson laqabli maymuncha va oltin chaqalar bilan toʻla katta jomadonni oʻzi bilan oldi xolos. Dengizchilar kema palubasidan turib koʻzdan gʻoyib boʻlguncha uning ortidan qarab qoldilar. Qizcha bir qoʻlida bahaybat jomadon, yelkasida janob Nilsonni koʻtarib olganча, ortiga qiyo ham boqmay ketib borardi.

– Ajoyib qizalogʻ-a? – dedi matroslardan biri Peppi koʻzdan gʻoyib boʻlishi bilan.

Ha, chindan ham matros haq edi – Peppi hech shubhasiz ajoyib qizaloq! Uzunpaypoqning eng hayratlanarli xislati shuki, u juda ham kuchli edi. Hatto butun dunyoda Peppiga teng kela oladigan bironta politsiya noziri yoʻq, desam, ishonmassiz. Sababi oʻzi jajjigina boʻlsa ham, istasa, butun boshli otni dast yerdan koʻtara olardi. Darvoqe, uning oʻz tulpori ham boʻlib, bu jonivorni «Tovuq» villasiga koʻchib oʻtgan kuniyoq bisotidagi oltin tangalardan biri evaziga sotib olgan edi. Aslida, Peppi oʻz oti boʻlishini ne-ne zamonlardan buyon orzu qilib yurar va mana, ayni damda uning faqat oʻzigagina tegishli ot ayvonda bogʻlogʻliq turibdi. Bordi-yu, Peppi tush-

dan keyin ayvon ostida o'tirib, bir finjon qahva ichgisi kelib qolsa, uzoq o'ylab o'tirmasdan otini ayvon ostidan bog'ga qo'yib yuborishi mumkin.

«Tovuq» villasining yonida boshqa bir hovli ham bo'lib, uning ham atrofini bog' o'rab olgan edi. Qo'shni hovlida er, xotin va ularning bir o'g'il, bir qiz – jami ikki nafar farzandi yashardi. Bolaning ismi – Tommi, qizaloqniki esa – Annika. Ular ikkalovi ham bir-biridan aqlli, yaxshi tarbiya ko'rgan, odobli bolalar. Tommi zinhor tirnoqlarini chaynash haqida o'ylamas, onasi aytgan yumushlarning barchasini so'zsiz bajaradigan bola. Annika esa o'zi istagan narsani ololmasa ham injiqlik qilmaydigan, obdan dazmollangan jajji chit ko'ylagida juda yoqimtoy bo'lib ko'rinadigan, kir va irkit bo'lmaslikka jon-jahdi bilan tirishadigan alomat qizaloq. Tommi va Annika o'zlarining bog'ida har doim ahil-inoq bo'lib o'ynashar, ammo bironta sherik topilishini mudom orzu qilishardi. Peppi hali otasining yonida ummonlar uzra suzib yurgan kezlardayoq, Tommi va Annika har doim panjaraga osilib olganча:

– Narigi uyga hech kim ko'chib kelmasligi g'alati emasmi? Axir bu yerda ham kimdir yashashi kerak, bolasi bor kimdir bo'lsa, yanayam yaxshi, – deyshardi bir-biriga qarab.

Peppi «Tovuq» villasi ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan kunda Tommi va Annika uyda emasdi. O'sha kunlarda ular bir haftaga buvisinikiga borgan, shuning uchun ham hozirda qo'shni uyda kimdir yashayotganidan bexabar qolishgandi. Uyga

qaytganlarining birinchi kunida darvoza yonida ko'chani kuzatgancha turishsa-da, shundoqqina bir devor narida ular bilan o'ynaydigan sherik ko'chib kelgani xayollariga ham kelmasdi. Ikkovlon nima qilishlari haqida o'ylab, biror bir qiziqarli voqea sodir bo'larmikin yoki bugun ham doimgiday zerikarli kun sifatida o'tarmikin, deb xavotirlanib turishgan paytda «Tovuq» villasi darvozasi ochildi-yu, kichkina qizaloq tashqariga qadam qo'ydi. Bu Tommi va Annika hozirgacha ko'rgan eng alomat qiz edi. Albatta, topdingiz – bu qiz ertalabki sayr uchun ko'chaga otlangan Uzunpaypoq Peppi edi. Keling, endi sizga uning ko'rinishini tasvirlab beray.

Uning olovday qip-qizil sochlari ikkita mahkam o'rim qilib turmaklangan, ikki tomonga qarab dik-kayib turar edi. Kichikroq kartoshkani eslatadigan burni butunlay sepkil bilan qoplangan. Shuni alohida ta'kidlash shartki, juda ham keng og'zi ichidan oppoq va mustahkam tishlari yaraqlab turardi. Ko'ylagi esa hammasidan ham ajoyib edi, chunki uni Peppining o'zi tikkandi-da. Aslida, ko'ylak moviy bo'lishi ko'zlangan-u, yetarlicha moviy mato topilmaganidan keyin to'g'ri kelgan yeridan qizil rangdagi yamoqlar tikib tashlangan edi. Uzun va cho'pday ozg'in oyoqlariga bir juft uzun paypoq kiygan, paypoqlarining bir poyi malla, bir poyi qora edi. Shuningdek, oyog'idan naqd ikki karra uzun qora tufli kiyib olgandi. Bu boshmoqni otasi ichida biron nima parvarishlasin, deb Janubiy Afrikadan sotib olgan, ammo Peppi boshqa oyoq kiyimni kiyishni umuman xohlamasdi.

Bular-ku mayli, lekin Tommi va Annikaning ko'zini katta-katta ochishga majburlagan narsa notanish qizning yelkasidagi maymun bo'ldi. Maymuncha ko'k ishton, sariq kamzul va oq poxol shlyapa kiygan edi.

Peppi bir oyog'ini yo'lak chetiga, birini ariqqa qo'yganicha ko'chani sayr qila boshladi. Tommi va Annika qorasi ko'rinmay ketguncha uni kuzatib turishdi. Oradan hech qancha o'tmay Peppi iziga qaytdi, biroq endi u uyga qaytayotganda ortga qayrilishni xohlamaganidan orqaga qarab qadam tashlayotgandi. Tommi va Annikalarning darvozasiga yetganida to'xtadi.

Bolalar bir-birga jimgina qarab qolishdi. Nihoyat, Tommi gap boshladi:

– Nega qisqichbaqaga o'xshab yuribsan?
– Nega qisqichbaqaga o'xshab yurarkanman?! – savolni takrorladi Peppi. – Nima, biz mustaqil va erkin mamlakatda yashamayapmizmi? Odam o'zi xohlagan tomonga o'zi xohlagan taxlitda yurishi ham mumkinmasmi? Umuman olganda, birodarlar, ijozatingiz bilan shuni aytib o'tsam, bilsangiz, Misrda hamma xuddi shunday yuradi va hech kim buni g'alati qabul qilmaydi ham.

– Sen buni qayerdan bilasan? – so'radi Tommi.
– Axir umringda Misrga bormagansan-ku yoki borganmisan?

– Umrimda Misrga bormaganman?! Aksincha, borganman. Hech qanday shubhaga o'rin yo'q. Yer yuzidagi barcha mamlakatlarda bo'lganman, qisqichbaqadek yuradigan odamdan chandon g'alati

narsalarni ham ko'rganman. Bilmadim, agar Hindistondagi kabi oyog'imni osmondan qilib, qo'limda yurib kelsam, nima qilar ekansiz, hayronman.

– Ol-a, endi bu yog'i oshib ketdi, aldayotganing bilinib turibdi-ku!

– To'ppa-to'g'ri, – dedi Peppi o'sha zahotiyuq. – Men aldayapman.

– Yolg'on gapirish axloqsizlikka kiradi, – dedi o'zida endigina gapirishga jasorat topgan Annika.

– Haqsan, yolg'on gapirish judayam yomon ish, – ma'qulladi Peppi, – ammo men nima bo'lgani-yu, nima bo'lmaganini tezda unutib yuboraman. Asli-da, siz qaysi aql bilan otasi odamxo'r qabilaning qi-rol, onasi esa osmondagi farishtaga aylangan, o'zi butun hayoti davomida dengizlar uzra sayohat qilib yurgan qizaloqdan faqat va faqat rost gapirishni talab qilishingiz mumkin? Sizga aytsam, do'stlar, – davom etdi u sepkil bosgan yuzlari yorishib, – Kongoda birortayam rost gapiradigan odamni to-polmaysiz, o'lay agar. Ular o'ziyam uzzukun yolg'on gapirishadi. Tong soat yettidan boshlab to quyosh botgunicha hamma bir-birini aldayveradi, aldayveradi... Shunday ekan, qachondir yolg'on gapirib qo'ysam, kechirishga harakat qiling, axir, men ham biroz muddat Kongoda yashab, ularning odatlari-ga o'rganib qolganman-da. Xo'p, mayli, asosiysi, bu bizning do'stlashuvimizga to'sqinlik qilmaydi, to'g'rimi?

– Bo'lmasam-chi! – dedi Tommi, bugun ular uchun zerikarli kun bo'lmasligini bilganidan qu-vonib.

– Unday bo‘lsa, menikiga kirib nonushta qilmaymizmi? – so‘radi Peppi.

– Zap ish bo‘lardi! – dedi Tommi.

– Ketdik unda! – deb ularga qo‘shildi Annika.

– Lekin birinchi bo‘lib sizlarni janob Nilsonga tanishtirishim lozim, – dedi Peppi. Maymuncha esa qizning boshidan shlyapasini olib, qarshisidagi bolalarga oliyjanoblik bilan ta‘zim qildi.

Shundan so‘ng bolalar tevaragi po‘panak bosgan, qurib ketgan, lekin tirmashib chiqishga judayam mosday ko‘ringan daraxtlar bilan o‘ralgan shag‘al yo‘lak bo‘ylab nurab yotgan bog‘ darvozasi tomon yurishdi. Darvozadan ichkari, ayvon ostida sho‘rva suziladigan idishda suli kavshagancha bir ot turardi.

– Nega otingni ayvon ostida saqlaysan? – so‘radi Tommi. U bilgan barcha otlar og‘ilxonada saqlanardi.

– Xo‘sh, – dedi Peppi o‘ylanib qolganicha, – rostini aytsam, oshxonada saqlay desam, nuqul oyoq ostida o‘ralashaverdi, mehmonxona esa jihozlarga to‘laligi uchun unga juda noqulaylik tug‘dirdi.

Tommi va Annika otning badanidan sekingina silab, uy ichiga yo‘l olishdi. Peppining uyida oshxonasi, mehmonxona va yotoqxonasi bor edi. Lekin uyni tartibsizligiga qarab Peppi bu hafta shanba kungi tozalash ishlarini unutib qoldirgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylaysan kishi. Tommi va Annika Odamxo‘rlar orolining qirolini biror burchakda o‘tirgan bo‘lsa-chi, degan xavotir ichida atrofga diqqat bilan nazar solishdi. Ular umrlari bino bo‘lib odamxo‘rlar qirolini

uchratishtim magandi, biroq Peppining uyida na onasi, na otasi – hech kim koʻzga tashlanmadi. Annika xavotir aralash soʻradi:

– Peppi, sen bu uyda yolgʻiz oʻzing yashaysanmi?

– Nega ekan, biz uchtamiz: janob Nilson, men va otimiz.

– Bundan chiqdi, otang ham, onang ham yoʻqmi?

– Yoʻq, – dedi Peppi mamnunlik bilan.

– Kim senga vaqtida uxlash, vaqtida ovqat yeyish va shu kabi narsalarni eslatib turadi? – soʻradi Annika.

– Oʻzimga oʻzim aytaman, – javob berdi Peppi. – Avval boshda oʻzimga muloyimlik bilan tushuntiraman, foyda bermasa, qattiqroq gapiraman, shundayam gapga kirmasam, oʻz-oʻzimni oʻxshatib shapatilayman, endi bildingizmi?

Tommi va Annika unchalik ham tushunishmadi-yu, lekin shunisi eng maʼqul yoʻl boʻlsa kerak, deb oʻylashdi. Oshxonaga kirishlari bilan Peppi qichqirib qoʻshiq ayta boshladi:

*Biz hozir quymoq pishiramiz,
Quymoq pishiramiz hozir biz,
Pishiramiz hozir biz quymoqni...*

Peppi uch dona tuxumni olib, havoga uloqtirdi. Tuxumlardan biri toʻgʻri kelib boshiga tushib sindi-yu, tuxumning sarigʻi Peppining yuz-koʻzini qopladi. Qolgan ikkita tuxumni mohirlik bilan kosa ichiga tutib oldi. Afsuski, ular ham kosaga tushibochil-chil sinib, qorishib ketdi.

– Tuxumning sarig‘i soch uchun foydali deb eshitganman, – dedi Peppi ko‘zini ishqalagancha. – Qarab turing, birozdan so‘ng sochlarim chars-churs qilib o‘sib chiqa boshlaydi. Axborotingiz uchun, Braziliyada barcha insonlar boshiga tuxum sarig‘ini surkab yuradi. Birortayam kalbosh odamni uchratmaysiz u yerda. Darvoqe, faqatgina bir kishi bo‘lardi, u shunchalik ahmoq va badnafsligidan tuxumlarni boshiga surtish o‘rniga paqqos tushirar edi. Mana shu qilg‘i tufayli boshi taqir bo‘lib qoldi, ko‘chada yarqiragan boshini ko‘rsatib yurganida shunchalik g‘alayon ko‘tarildiki, axiyri, politsiya chaqirishga to‘g‘ri kelgandi.

Peppi shularni so‘zlay turib, kosa ichidan tuxum po‘stlog‘i parchalarini barmoqchalari bilan bitta qoldirmay terib oldi. Devorda osig‘liq turgan hammom cho‘tkasini olib, quymoqqa solinadigan mahsulotlarni shunchalar kuch bilan aralashtira boshladiki, butun xona devorlariga suyuq xamir sachradi. Nihoyat, qolgan xamirni gazda turgan tovaga soldi.

Bir tomoni qizarishni boshlaganda quymoqni tepaga uloqtirdi, quymoq shiftga yetmay, havoda bir aylandi-yu, tag‘in Peppi uni tovaga ilib oldi. Quymoqlar tayyor bo‘lishi bilan Peppi ularni oshxonaning bir burchagidan to‘g‘ri stol ustida turgan likopchaga uloqtiraverdi.

– Tezda yeb olinglar, sovib qolmasin, – deb qichqirdi Peppi. Tommi va Annika quymoqlarni maza qilib yeb olishdi, dunyoda bundan-da ajoyib quymoq yo‘q edi ular uchun.

Ko‘p o‘tmay Peppi ularni mehmonxonaga boshlab bordi. Bu yerda birgina jihoz – bir talay tort-

malari bor ulkan kiyim javoni turardi. Peppi tortmalarni birma-bir ochib, Tommi va Annikaga o'zi saqlayotgan xazinalarni ko'rsatdi. Bularning ichida alomat qushlarning tuxumlari, noma'lum po'stloqlar-u toshlar, chiroyli bezatilgan jajji qutichalar, kumush oynachalar, marjon taqinchoqlar va yana bir talay narsalar bo'lib, ularni Peppi va otasi dunyo bo'ylab sayohatlari chog'ida sotib olishgan edi. Peppi yangi do'stlarining har biriga uni eslab yurishlari uchun kichkina hadyalar berdi. Tommi yaltiragan sadaf sopli xanjarga, Annika esa pushti chig'anoqlar bilan bezatilgan qutichaga ega bo'ldi. Quticha ichida zabarjad ko'zli uzuk bor edi.

– Sovg'alarni olgan bo'lsangiz, endi uyingizga borishingiz mumkin, – dedi Peppi. – Ertaga yana kelsangiz bo'ladi. Chunki agar bugun uyga vaqtli qaytmasangiz, ertaga kelolmay uyatga qolasiz.

Tommi va Annika uning fikrini ma'qullab, uyga qaytadigan bo'lishdi. Qaytayotib allaqachon oldidagi sulini paqqos tushirgan otning badaniga tag'in ohista shapatilab o'tdilar. Janob Nilson ularning ortidan shlyapasini silkitib qoldi.

2. Peppining mushtlashuvga aralashgani

Ertasi kuni Annika uyqudan erta uyg'ondi. Yotoqdan sakrab turib, Tommi tomonga yugurdi.

– Uyg'on, Tommi, – deb baqirdi u Tommini qo'li bilan turtgancha: – Uyg'ona qol, ulkan boshmoq kiyadigan ajoyib qizni ko'rgani tezroq boraylik.

Bu gapdan Tommi darhol ko'zlarini ochdi.

– Hatto uxlayotganimda ham bilgandim bugun qandaydir hayratlanarli sarguzashtlar yuz berishini. Lekin tushimni aniq-tiniq eslab qololmadim-da... – dedi Tommi pijamasini yechib uloqtirarkan.

Ikkalovi ham yuvinish xonasiga yugurib, avval yuz-qo'llarini, so'ng esa tishlarini doimgidan ancha tez yuvib, ko'z yumib ochguncha kiyimlarini ki-yishdi. Tommi va Annika ularning onasi kutganidan roppa-rossa bir soat ilgari zinadan uchib tushib, nonushta stoliga o'tirishdi. O'tirayotib onalaridan issiq shokoladlarini hoziroq keltirishini so'rashdi.

– Nima sababdan buncha jonsarak bo'lyapsiz? – so'radi ulardan onasi.

– Qo'shni uyga yangi ko'chib kelgan qizni ko'rgani bormoqchimiz, – dedi Tommi.

– Kun bo'yi o'sha yerda bo'lsak ham ajabmas, – gapga qo'shildi Annika.

Peppi ayni o'sha kuni ertalabdan «pepparkakor» deb ataladigan zanjabil shvedcha shirinlik pishirish bilan ovora edi. U katta xamir zuvala olib, zuvalani oshxona poliga yoygan edi.

– Menga qiziq-da, janob Nilson, – dedi u maymunchaga, – biron kishi, masalan, qariyb besh yuzta shirinlik pishirmoqchi bo'lsa, kichkina patnisning qanday foydasi tegishi mumkin? Shunday ekan, xamirni polda yoygan yaxshi emasmi?

Peppi tizzalab olgancha xamirni yurakcha shaklida kesib olayotgan edi.

– Janob Nilson, xamir ustiga chiqishni bas qiling, – deb baqirdi u maymunga va shu mahalda eshik qo'ng'irog'i jiringladi.

Peppi chopqillab borib eshikni ochdi. U xuddi tegirmonchiday sochidan tirnog'igacha oppoq unga belangan edi, Tommi va Annika bilan qo'l silkib ko'rishganida bir dunyo un bolalarning ham ust-boshini qopladi.

– Kelib yaxshi qildingiz, – dedi Peppi fartugini silkitib. Fartugidan ham bir dunyo chang ko'tarildi. Tommi va Annikaning tomog'i unga to'lganidan ketini uzmay yo'tala ketdilar.

– Nima bilan bandsan? – so'radi Tommi.

– Xo'sh, mo'rini tozalayapman, deb aytsam, bari-bir menga ishonmaysan. Sen ziyrak bolasan, Tommi. Rosti, shirinlik pishiryapman. Lekin tez fursatda tayyor bo'ladi, ungacha bir zum anavi yog'och quti ustida o'tirib tursangiz ham mayli.

Peppi judayam tez ishlardi. Tommi va Annika yog'och quticha ustida o'tirgancha Peppining qanday chaqqonlik bilan xamir yoyishi, qanday epchilik bilan shirinliklarni patnisga uloqtirishi va patnisni gaz pechida mohirona o'ynatishini kuzatishdi. Bunday tomoshadan ular o'zlarini sirkdemiz deb o'ylashlariga bir baxya qoldi.

– Tayyor! – dedi Peppi va eng so'nggi patnisni olib, pech og'zini qarsillatib yopdi.

– Xo'sh, endi nima qilamiz? – so'radi Tommi.

– Sizlar nima qilishingizni bilmayman, – dedi Peppi. – Ammo shuni bilamanki, menda yotib olishga vaqt yo'q. Men iskovuchman axir. Iskovuchlarning bir daqiqqa ham bo'sh vaqti bo'lmaydi.

– Men kimman deding? – so'radi Annika.

– Iskovuchman!

– U nima degani? – deb so‘radi Tommi ham.

– Iskovuch bu – turli xil narsalarni izlab topuvchi odam. Boshqa nimayam bo‘lardi? – dedi Peppi qolgan urvoqni uyum qilib yig‘ib qo‘yarkan. – Bilsangiz, butun dunyo tashlandiq narsalarga to‘lib yotibdi, ularni kimdir topib olishi kerak-ku. Bu esa, albatta, sharafli iskovuchlarning yelkasiga yuklangan! – xitob bilan gapini tamomladi Peppi.

– Masalan, ular qanday narsalar? – tag‘in so‘radi Annika.

– Har qanday narsa-da, oltin bo‘laklari, tuyaqush patlari, sasigan kalamushlar, rango-rang obakidandonlar, kichkina burama mixlar va yana bir dunyo lash-lushlar.

Peppining gaplarini eshitgan Tommi va Annika buning maroqli ish ekan deb o‘ylab, iskovuch bo‘lishga jon-jahdlari bilan rozi ekanliklarini bildirishdi. Lekin Tommi burama mixlar-u tuyaqush patlarini emas, oltin bo‘laklari topib olishni xohlayotganini yashirmadi.

– Peshonada borini ko‘ramiz, Tommi, – dedi Peppi. – Hech qaysi iskovuch hali o‘ljasiz qaytmagan. Lekin shoshilishga majburmiz, tag‘in biz yo‘lga tushmay turib boshqa iskovuchlar yaqin atrofdagi barcha oltin qoldiqlarini terib ketishmasin.

Mana, uch iskovuch ne-ne umidlar bilan yo‘lga chiqishdi. Ular iskovuchlikni qo‘shnilarning uylari atrofidan boshlashni reja qilishdi, sababi Peppi aytganidek, zo‘r berib qidirsangiz, daraxtlar kovagidan burama mixmi, suyakmi topish mumkin, lekin eng yaxshi narsalar har doim uylar atrofidan topilgan.

– Lekin bilasizmi, ba’zan buning teskarisi ham bo’lib turadi, – dedi Peppi. – Haliyam esimda, bir gal Borneo orolida iskovuchlik qilib yurganimda shundoqqina o’rmonning qoq o’rtasida ajoyib nar-saga duch keldim. Nima topib olganimni tasavvur qila olasizmi? Yo’q, albatta. Alomat bir yog’och oyoq topib olganim qayerdan ham xayolingizga kelardi. Keyinroq men bu yog’och oyoqni bir oyog’i cho’loq cholga sovg’a qilgandim. Bechora chol o’shanda bunday ajoyib yog’och oyoqni pul evaziga ham, jon evaziga ham hech qayerdan topib bo’lmasligini aytib, qayta-qayta tashakkur izhor qildi.

Tommi va Annika iskovuch qanday harakat qili-shi kerakligini o’rganish uchun bir zum Peppini ku-zatib o’tirishdi. Peppi yo’lning u chetidan bu che-tiga xuddi bo’zchining mokisiday yugurar, qo’lini peshonasiga qo’ygancha nimalarnidir izlayverardi. Bir qarasa to’rt oyoqlab emaklar, bir qarasa qo’lla-rini panjaralar orasiga tiqib, hafsalasi pir bo’lgan ohangda: «Hozirgina mana shu yerda oltin par-chasini ko’rganimga aminman», derdi.


– Nima topilishidan qat’i nazar hammasini olaversak bo’ladimi? – so’radi Annika.

– Ha, yerda yotgan nimaiki bo’lsa, barchasini olishga haqlimiz.

Ayni shu payt uchovlon uyining tashqarisidagi maysazorda yotgan qariyaga duch kelishdi.

– Mana, – dedi Peppi, – bu odam ham yerda yo-tibdi, biz esa uni topib oldik. Uni olib ketamiz!

Buni eshitgach, Tommi va Annikaning rangi bo’zday oqarib ketdi.



– Yo‘q-yo‘q, Peppi. Keksa janobni olib ketolmaymiz, buning iloji yo‘q, – dedi Tommi. – Axir uni olib ketib nima ham qilardik?

– Nima ham qilardik, deysanmi? Eh, azizim, u bizga judayam ko‘p narsada qo‘l kelishini bilmaysan-da! Masalan, biz uni quyon o‘rnida kichkina qafaschaga qamab, momaqaymoq berib boqishimiz mumkin. Tag‘in o‘zingiz bilasiz, siz xohlamasangiz, menga umuman farqi yo‘q. Lekin baribir boshqa iskovuch kelib, shunday o‘ljani ilib ketishi haqida o‘ylash menga hech tinchlik bermaydi-da.

Ular yana yo‘lda davom etishdi. Yo‘lda ketayotib qo‘qqisdan Peppi baqirib yubordi.

– Umrimda bunaqasini ko‘rmagan edim, – dedi u zanglab ketgan konserva qutisini o‘t-o‘lanlar orasidan olarkan. – Naqadar betakror topilma-ya! Naqadar bebaho topilma! Bunday narsalar har doim taqchil bo‘lgan.

– Buning nimasi bebaho? – shubha bilan qarashdi aka-singil.

– Eh, sizga aytsam, buning foydalarini sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydi, – dedi Peppi. – Avvalo, bundan shirinliklarni solib qo‘yish uchun foydalanish mumkin. Shunda u shirinlik to‘la antiqa bankaga aylanadi. Yana bir yo‘li, unga shirinliklarni qo‘ymasa ham bo‘ladi. Shunda u shirinliklarsiz antiqa bankaga aylanadi. To‘g‘ri, buni juda antiqa deb ham bo‘lmaydi-yu, harqalay, yomon emas.

Peppi zanglagan konserva qutini ko‘zdan kechira turib, quti tubida teshigi borligini aniqladi.

– Aftidan, bu ilgari shirinliksiz banka bo‘lganga o‘xshayapti, – dedi Peppi. – Lekin uni boshingizga

kiyib, o'zingizni xuddi yarim kechasi uyg'oq o'tirganday his qilishga juda qo'l keladi.

Peppi aytganiday konserva idishini boshiga kiyib oldi. Peppi boshiga zanglagan konserva idishini kiyib olgancha to simli panjaraga qoqilib, yuztuban yiqilmaguncha uylar oralab xuddi pastakkina temir minoraga o'xshab u yerdan bu yerga aylanib yuraverdi. Boshidagi tunuka yerga urilganida quloqni qomatga keltiradigan taraqlash eshitildi.

– Ana, ko'rdingizmi buning foydasini? Agar mana shu idishni boshimga kiyib olmaganimda qornim bilan emas, yuzim bilan yiqilib anchagina ayanchli jarohat olgan bo'lardim.

– To'g'ri, – dedi Annika, – lekin shunisi ham borki, agar mana shu matohni boshingga kiyib olmaganingda simto'siqqa qoqilib yiqilmagan bo'larding.

Annika gapini tamomlamay turib tag'in Peppining tanish qichqirig'i eshitildi. Bu gal uning qo'lida kalava ipdan bo'shagan g'altak naychasi turardi.

– Voh, bugun o'ziyam kaminaning omadi chopadigan kun shekilli, – dedi u. – Qarang-a, naqadar kamyob naycha bu. Buning yordamida sovunli suvda ko'pikchalar puflasa ham bo'ladi yoki bo'yingizga mo'jazgina taqinchoq sifatida ilib yursangiz, biram yarashadi-yey. Uyga borganim zahoti bundan jajji taqinchoq yasayman.

Ayni shu payt yaqin atrofdagi hovlilardan birining darvozasi lang ochilib, u yerdan bir bola yugurib chiqdi. Uning qizarib-bo'zargan aftini ko'rib hayratlanmasa ham bo'lardi, chunki shu lahzaning

o'zidayoq uning ortidan beshta bola izma-iz quvib kelishdi. Ular bolani chaqqonlik bilan tutib olishdi-da, panjaraga tirkagancha beshovlon baravariga do'pposlay ketishdi. Bechora bola yig'lar va o'zini himoya qilish uchun yuzini qo'li bilan to'sishga urinardi.

– Ta'zirini bering uni! Yaxshilab tushiring, toki bu tirrancha bizning ko'chamizda boshqa qorasini ko'rsatmaydigan bo'lsin! – deb baqirardi bolalarning ichida eng yoshi katta va eng kuchlisi.

– Oh, yo'q, ular bechora Villini ayamay kaltaklashyapti, – dedi Annika. – Odam degani ham shunchalik shafqatsiz bo'ladimi?

– Haligi barzangining ismi – yaramas Bengt. U qachon qarama janjallashib yuradi, – dedi Tommi. – Lekin bir kishiga qarshi besh kishi – bu o'taketgan nomardlik!

Peppi haligi bolalar tomonga borib, yaramas Bengtning orqasiga ko'rsatkich barmog'i bilan nuqib qo'ydi.

– Salom, bolakay! – dedi u. – Menga ayt-chi, nimanisa reja qilyapsan? Bechora Villiginani beshovlon birvarakayiga urib, abjag'ini chiqarmoqchimisiz?

Bengt ortiga o'girilib, ilgari hech qayerda uchratmagan yovvoyi tabiat qizni ko'rdi. U qizga bir muddat tikilib turdi, so'ng esa og'zi qulog'iga yetar darajada tirjaydi.

– Yigitlar, – dedi u oliftalik bilan, – hoy yigitlar, ovsar Villini qo'ya turing, yaxshisi, mana bu alvasini ushlang!

Bengt sonlariga shapatilab kula boshladi. Zum o'tmay ko'zlarini piqillab artgancha oyoq uchida

yurib Tommining yoniga kelib olgan Villidan boshqa barcha bolalar Peppining atrofini o'rab olishdi.

– Yigitlar, umringizda mana bu alvastiniki kabi beo'xshov sochni ko'rganmisiz? Sochlaring qip-qizil olovday-ku, alvasti. Mana bunday poyabzalni-chi? – davom etdi Bengt. – Bir poyini menga berib turolmaysanmi, a, qizaloq? Ayni shu kunlarda eshkak eshgani daryoga bormoqchi edim, qayiq qilib ishlatishga berib tur.

Bengt Peppining echki kokillaridan birini g'ijimladi-yu, shu zahoti qo'lini uzib olib, uni masxara qildi:

– Voy-voy, qo'lim kuydi-ku!

Shundan so'ng barcha bolalar qo'lma-qo'l Peppining atrofini aylana qilib olganicha sakrab o'ynashni boshlashdi:

– Qizilbosh! Qizilbosh!

Peppi doira o'rtasida turib, ularga do'stona jilmayib qo'ydi. Bengt uning jahli chiqishini va yig'lab yuborishini kutgan edi. Jilla qursa, rangi oqarishi kerak edi. Umidi chippakka chiqqanini bilgach, Bengt Peppini jahl bilan itarib yubordi.

– Menimcha, sen xonimlar bilan qanday muomala qilishni bilmaydiganga o'xshaysan.

Peppi shunday deya uni kuchli qo'llari bilan balandga ko'tarib, qayin daraxtining shoxiga ilib qo'ydi. Keyingi bolani ham olib, boshqa bir shoxga osib qo'ydi. Boshqa birini esa darvoza yaqinidagi panjaraga ilib qo'ydi, to'rtinchi bolani esa aylantirib otgan edi, u bechora bog' ichidagi gulzor ustiga gup etib yiqildi. Bezorilarning eng so'nggisini esa yo'l

chetidagi bolalar aravachasiga joylab qo'ydi. Bizning uchala qahramonimiz – Peppi, Tommi, Annika va Villi har yerda cho'zilib yo osilib yotgan bolalarga bir muddat qarab turishdi. Bazorilar nafaqat yetishlagan, balki qo'rquvdan dag'-dag' titramoqda edilar.

– Shunchalik ham qo'rqqoq bo'ladimi odam? Bir kishiga besh kishi bo'lib hujum qilish – qo'rqqoqlar ishi. Qolaversa, himoyasiz va ojiz qizchani itarib yuborish yaxshimi? O'taketgan pastkashlik bu!

Peppi u yoq bu yog'ini biroz tuzatgan bo'ldi-da, do'stlariga:

– Yuringlar, uyga qaytamiz, – dedi. So'ng Villiga yuzlandi: – Mabodo yana seni ranjitadigan bo'lishsa, kelib menga aytaver. Daraxt shoxida osilib, miq etishga yuragi betlamay turgan Bengtga aytilajak gapini ham unutmadi.

– Xo'sh, bolakay, sochim yoki poyabzalim haqida yana biror nimani bilish niyating bormi? Bo'lmasa, juda yaxshi, uyga ketishimdan oldin aytib olganing ma'qul edi-da.

Biroq Bengt uning na sochi, na poyabzali haqida lom-mim deyolmadi. Peppi bir qo'lida zanglagan konserva idishni, ikkinchi qo'lida kalavadan bo'shagan g'altak naychasini tutganicha Tommi va Annikaning ortidan ergashdi.

– Qadrdonlarim, bunaqasi ketmaydi, – dedi Peppi uyga qaytishgach. – Bugun men uchun ov baroridan keldi: naq ikkita o'ljaga erishdim. Lekin sizlar birorta xas ham topa olmadingiz. Shunday ekan, yana biroz iskovuchlik qilsangiz bo'larmidi?

Tommi, anavi qurigan daraxt kovagini bir titkilab ko'rmaysanmi? Bilsang, iskovuchlik uchun daraxt kovagidan yaxshi joy yo'q bu dunyoda.

Tommi na o'zi, na Annikaning biron nima topa olishiga ko'zi yetmasa-da, Peppining so'zlarini yerda qoldirmaslik uchun qo'lini qurigan daraxt kovagiga ohista tiqdi.

– Voy, – deb yubordi Tommi hayratini yashirolmay qo'lini kovak ichidan chiqararkan. Tommining qo'lida charm muqovali qalin daftar va uning bir chetidagi ilmoqda maxsus kumush qalam bor edi.

– Ana endi ishondingmi, Tommi? – dedi Peppi. – Bu dunyoda iskovuch bo'lishdan-da yaxshiroq kasb yo'q? Faqat juda kamdan kam odamlar shunday ajoyib kasbni egallashlarini hech aqlimga sig'dirolmayman-da. Kosibmi-yey, tikuvchimi-yey, mo'ri tozalovchimi-yey, xullas, bunday kasb egalarini har qadamda uchratasan, kishi, lekin iskovuchlar anqoning urug'idan ham taqchil hozirgi zamonda.

So'ng Peppi Annikaga yuzlandi:

– Sen-chi, qurigan daraxt kovagiga qo'l solib ko'rmaysanmi? Aminmanki, daraxt kovagiga qo'lini tiqqanlarning hech biri haligacha quruq qolmagan.

Annika ham uning gapiga kirib, qo'lini daraxt kovagiga tiqdi va darrov qizil marjondan yasalgan zebigardon topib oldi. Tommi va Annikaning og'zi hayratdan lang ochilib qoldi. Bundan keyin ular har kuni iskovuchlik qilish haqida kelishib olishdi.

Kecha qariyb ertalabgacha to'p o'ynab chiqib saharga yaqin uxlagani uchunmi, Peppining ko'ziga uyqu ilina boshlandi.

– Endi borib, biroz mizg‘ib olsam, yaxshi bo‘lar-di, – dedi Peppi. – Istasangiz, siz ham borib, meni uxlatib qaytishingiz mumkin.

Karavotining bir chetida o‘tirib, oyoq kiyimini yecharkan, Peppi nimanidir eslaganday bo‘ldi-yu, Tommi va Annikaga qarab, dedi:

– Haligi qariya Bengt eshkak eshishga bormoq-chiman, deganmidi? Qachondir vaqtim bo‘lganida unga qanday eshkak eshishni o‘rgataman hali.

– Peppi, ayt-chi, o‘zi nega ka-a-atta poyabzal kiyib yurasan? – so‘radi Tommi.

– Barmoqlarimni bemalol qimirlatish uchun, – javob qildi Peppi karavotiga emaklab chiqarkan.

Peppi har doim oyoqlarini yostiq ustiga chiqarib, boshini poygakka uzatib uxlashga odatlangan edi.

– Gvatemalada odamlar xuddi shunday uxla-shadi, – xitob qildi u. – Mana shu uxlashning eng to‘g‘ri yo‘li, aslida. Qarang, shunday yotsam, hatto uxlayotganimda ham bemalol oyoqlarimni qimirla-tishim mumkin.

Peppi to‘shagiga obdan joylashib olgach:

– Siz alla eshitmasdan uxlay olasizmi? – deya yana davom etdi Peppi. – Men esa har doim o‘zimga o‘zim alla aytib berishim kerak, bo‘lmasa bir daqiqa ham uxlay olmayman.

Tommi va Annika ko‘rpa ostidan g‘o‘ng‘illagan bir maromdagi ovozni eshitishdi. Darhaqiqat, Pep-pi o‘ziga o‘zi alla aytayotgan edi. Shundan so‘ng ik-kovlon ehtiyotkorlik bilan oyoq uchida xonani tark etishdi. Eshikka yetganda Peppiga oxirgi bor nazar solish uchun ortga qarashdi. Peppining yostiq yu-

zida yalpayib yotgan oyoqchalaridan bo‘lak hech vaqoni ko‘rishning imkoni bo‘lmadi. U uxlayotganida ham oyoq barmoqlarini qimirlatib uxlardi.

Tommi va Annika uyga tomon yugurishdi. Annika bugun topib olgan zebigardonini mushtida mahkam tutib olgandi.

– Bugun g‘alati voqealar bo‘ldi, – dedi Annika. – Tommi, nima deb o‘ylaysan, biz topib olgan narsalarni Peppi daraxt kovagiga ataylab solib qo‘ymaganmikin?

– Bilib bo‘lmaydi, – javob berdi Tommi. – Peppi bilan bog‘liq hech bir narsani aqlga sig‘dirib bo‘lmaydi.

3. Peppining mirshablar bilan quvlashmachoq o‘ynagani

Tez orada shaharcha bo‘ylab «Tovuq» villasida to‘qqiz yashar qizcha bir o‘zi yashayotgani haqidagi gaplar hammaning qulog‘iga yetib bordi, lekin shaharcha aholisidan hech kimning bu gapga ishongisi kelmadi. Ularning nazdida barcha bolalarning yonida tanbeh berib turadigan kimdir bo‘lishi, barcha bolalar ko‘paytiruv jadvalini yodlash uchun maktabga borishlari shart edi. Shunday ekan, shaharcha aholisi bir ovozdan uni bolalar uyiga topshirishga qaror qilishdi.

Kunlarning birida Peppi Tommi va Annikani tushdan so‘ng bir finjon qahva hamda pepparkakor bilan mehmon qilish uchun uyiga chaqirgan edi.

Peppi bazm dasturxonini orqa eshik oldidagi zina yonida tuzadi. Kun quyoshli, atrof judayam go'zal, havoni esa Peppining bog'idagi gullarning mayin ifori qoplagan edi. Janob Nilson ayvon panjarasi ustiga chiqib oldi, ot esa har tumshug'ini cho'zib erkalanganida bittadan shirinlik bilan siylandi.

– Eh, do'stlarim, hayot naqadar go'zal-a, – dedi Peppi oyoqlarini imkon qadar cho'zishga urinib.

Ayni shu paytda rasmiy kiyimdagi ikki mirshab darvozadan ichkari kirib keldi.

– Ur-ra! – qichqirib yubordi Peppi. – Bugun ham omadim chopadigan kun ko'rinadi. Politsiyachilar bu dunyoda men uchun ravochli shirinlikdan keyingi o'rindagi eng ajoyib xilqat.

Peppi yuzida quvnoq tabassum o'ynagancha ularni qarshi oldi.

– «Tovuq» villasiga yaqinda ko'chib o'tgan qiz shumi? – so'radi politsiyachilardan biri.

– Biroz adashdingiz, bu siz aytgan qizaloq emas, bu – shahar chekkasidagi uyning uchinchi qavatida yashaydigan qari kampir.

Peppi bu gaplarni faqatgina mirshablar bilan biroz hazillashish uchun aytgan edi, lekin ularga bu hazil malol keldi. Ayni damda ular Peppiga bunaqangi tarbiyasizlik qilmasligini, shaharchadagi bir talay himmatli insonlar qizaloqni bolalar uyiga joylashtirish borasida kengashib olishganini bildirish uchun kelishganini aytishdi.

– Men allaqachon bolalar uyiga joylashib bo'lganman-ku, – dedi Peppi.

– Nahotki?! – ishonqiramadi mirshablardan biri. – Allaqachon bolalar uyiga topshirishganmidi seni? Qaysi bolalar uyiga?

– Mana shu uyga, – dedi Peppi dimog‘dorlik bilan. – Men shundog‘am bolaman va bu yer mening uyim. Shunday ekan, bu yer ham bolalar uyi, qancha xohlasangiz, shuncha xona topiladi, bu yerda xonadan ko‘pi yo‘q.

– Bolaginam, – dedi mirshablardan biri, – sen tushunmagan ko‘rinasan. Biz haqiqiy bolalar uyi haqida gapiryapmiz, u yerda senga g‘amxo‘rlik qiladigan kishilar ham bo‘ladi.

– Bolalar uyiga ot olib borish mumkinmi? – so‘radi Peppi.

– Yo‘q, – javob berdi mirshab.

– O‘zim ham shunday deb o‘ylagandim. Unda maymun olib borish-chi?

– Bu ham mumkin emas. O‘zing tushunasan-ku.

– Unaqada o‘sha bolalar uyiga boshqalar boraversin, men hech qayerga jilmayman.

– Hech qursa maktabga borishing kerakligiga aqling yetar?

– Nega maktabga borishim kerak ekan?

– Ko‘p narsani o‘rganish uchun!

– Masalan... nimalarni?

– Ko‘p narsani, – javob qildi mirshab. – Jumladan, ko‘paytirish jadvalini ham.

– To‘qqiz yildan buyon hech qanday ko‘kartirish jadvallisiz ham yaxshigina yashab kelyapman-ku! Menimcha, bundan keyin ham hayotim davom etaveradi.

– To‘g‘ri, lekin o‘zing bir o‘ylab ko‘r, – dedi mirshab, – bir umr savodsiz bo‘lib yurishdan uyalmaysanmi? Katta bo‘lganingda kimdir sendan Portugaliyaning poytaxti qayerda, deb so‘rasa-yu, javob berolmay uyatga qolsang, qanchalar ayanchli holat yuz berishini bir tasavvur qilgin-a.

– Nega javob berolmaskanman? Albatta, javob beraman-da. «Agar Portugaliya poytaxti haqida bilishga shunchalik oshiqayotgan bo‘lsang, bemalol Portugaliyaning o‘ziga xat yozib so‘rashing mumkin!» deyman – vassalom!

– Mayli, lekin o‘zing bu haqda bilmasligingdan xijolat chekmaysanmi?

– Balki, xijolat chekarman, – dedi Peppi. – Bordi-yu, chindan xijolat chekadigan bo‘lsam, o‘sha kech albatta ko‘zimga umuman uyqu kelmaydi, allamahalgacha o‘ylanib chiqsam kerak: Portugaliyaning poytaxti qayerda ekan, deb. Lekin darrov suyunib ketaman, – dedi Peppi biroz bukilib oyog‘ini osmondan qilib olgach, – chunki bir paytlar dadam bilan Lissabonga borganmiz-da.

Peppi gapini tugatganidan so‘ng ham oyoqlarini osmondan qilib turaverdi, chunki u har qanaqasiga: oyog‘i yerda bo‘lsa ham, osmonda bo‘lsa ham bemalol gaplasha olardi. Lekin politsiyachilardan biri unga ko‘ngliga kelgan ishni qilib yuraverishi to‘g‘ri emasligi, darhol bolalar uyiga ko‘chib o‘tishi kerakligini aytdi. Mirshab Peppining yaqiniga borib, bilagidan ushlagan edi hamki, Peppi zudlik bilan uning qo‘llari orasidan yulqinib chiqib, mirshabning o‘zini ushlab oldi.

– Tutdim! Endi yana siz quvlang! – dedi Peppi qichqirib.

Haligi politsiyachi kiprik qoqishga ham ulgurmasidan Peppi avval ayvon panjarasiga, undan oshib ayvon yuqorisidagi boloxonaga chiqib ketdi. Ikkala mirshab ham Peppiga o‘xshab birato‘la tomga chiqib keta olmasliklariga ko‘zlari yetgach, uy ichi orqali chiqmoqchi bo‘lib yugurishdi. Afsuski, ular boloxonaga yetishganida Peppi allaqachon xuddi epchil maymuncha kabi tom ustiga chiqishiga bir baxya qolgan edi. Bir soniya deganda u avval tomning uchiga, keyin esa bir sakrash bilan mo‘ri yaqiniga yetib oldi. Pastda, boloxonada ikki mirshab boshlarini qashib o‘tirar, maysazorda esa Tommi va Annika Peppiga tikilib turishardi.

– Quvlashmachoq o‘ynash naqadar maza! – dedi Peppi jarangdor ovozda. – Eh, lekin kelganingiz zapish bo‘ldi-da. Shunaqayam omadim chopadigan kun bo‘ladimi bugun?!

Politsiya nozirlari ancha payt nima qilishni bilmay garangsib turishganidan so‘ng, borib narvon olib kelishdi-da, uni uyning bir burchagiga tirab, Peppini pastga tushirish uchun birma-bir tomga chiqa boshlashdi. Ular tomning sirpanchiq nishabliklariga oyoq qo‘yar paytda qo‘rqquvdan ranglari bo‘zday oqarib, Peppi tomonga ehtiyotkorlik bilan bitta-bittalab qadam bosishdi.

– Nimasidan buncha qaltiraysizlar? Qo‘rqishga arziydigan narsaning o‘zi yo‘q-ku. Bor-yo‘g‘i vaqtimizni chog‘ qilyapmiz xolos, – dedi Peppi ularga.

Ular yaqinlashgan zahoti Peppi mo‘ri ustidan sakrab tushib, nishablik bo‘ylab yugurgancha nari-

gi burchakka o'tib oldi. Uyning yonginasida bir daraxt o'sardi.

– Men hozir sho'ng'iyman, – dedi Peppi va qarshisidagi daraxtning quyuq barglari orasiga o'zini urdi. Daraxtning shoxidan ushlab olib, orqa-oldinga bir muddat siltanib turdi-yu, o'zini gup etib yerga tashladi. Chaqqon harakatlari evaziga uyni aylanib o'tib, mirshablar qo'ygan narvonni olib qo'ydi.

Peppi daraxtga sakraganida mirshablar bir sharmanda bo'lgan bo'lishsa, bu galgi sharmandalik barchasidan oshib tushdi. Bechoralar endi yerga tushamiz deb taraddudlanishsa-yu, narvon bo'lmasa, alam qilmaydimi? Avval boshda ularning Peppidan qattiq jahllari chiqib, tezda narvonni o'rniga keltirib qo'ymasa, yetti uxlab tushiga kirmagan hodisalar ro'y berishini aytib, po'pisa qilishdi.

– Nega menga bunchalar qo'pol gapiryapsiz? – dedi Peppi ularga norozi nigohlarini qadab. – Axir, biroz quvlashmachoq o'ynadik xolos-ku!

– Oh, azizam, yaxshi qizcha bo'lib, narvonni o'rniga qo'yib bermaysanmi, shunda biz ham yerga tushib olardik, – dedi mirshablardan biri uzoq o'yga cho'mganidan so'ng.

– Jonim bilan, – dedi Peppi va darrov narvonni o'z o'rniga qo'ydi. – Pastga tushsangiz, barchamiz birgalashib qahva ichib, vaqtichog'lik qilardik.

Biroq mirshablar tulkilik hadisini olgan edilar, yerga tushib olganlari zahoti qaytadan Peppiga tashlanib baqira ketishdi:

– Hozir ta'ziringni yeysan, mishiqli!

– O, yo‘q, kechirasizlar-u, siz bilan boshqa pachakilashib o‘tiradigan vaqtim qolmadi. Lekin sizlar bilan o‘ynash juda maroqli ekan.

Shunday degancha Peppi ikkala mirshabning ham kamaridan ushlab, bog‘ yo‘lagidan sudrab olib borib, panjaradan tashqariga – to‘g‘ri ko‘chaga uloqtirdi. Mirshablar ancha paytgacha o‘rinlaridan qo‘zg‘alolmay yotishdi.

– Hozir, bir daqiqa, – dedi u doimgiday jarangdor ovozda va oshxonaga yugurib kirib, ikki dona yurakchasimon shirinlik ko‘tarib qaytdi.

– Ta‘tib ko‘rishga nima deysiz? – deb so‘radi u.
– Chetlari ozroq kuygan-u, lekin bu unchalik ham ahamiyatli emas, to‘g‘rimi?

Peppi shirinlikni ko‘targancha hozirgina ko‘z o‘ngida nimalar yuz berganini ko‘rgan bo‘lsa ham, ko‘zlariga ishonolmay og‘zi lang ochilib qolgan Tommi va Annikaning yoniga keldi. Haligi ikki mirshab esa o‘rinlaridan turib, shaharchaning oliyhimmat aholisiga Peppi degan bezori qiz bolalar uyiga unchalik ham to‘g‘ri kelmasligini aytishdi (tomda qolib ketishgani haqida esa hech kimga churq etishmadi). Shundan so‘ng shaharchaning oliyhimmat xonimchalari va janoblari Peppi «Tovuq» villasida qolishi mumkin, agar maktabga borishni istasa, bu yog‘ini o‘zi hal qilsin, degan qarorga kelishdi.

Nima bo‘lganda ham Peppi, Tommi va Annika qaytadan dasturxon tuzab, vaqtlarini chog‘ o‘tkazishdi. Peppi bir yeyishda roppa-rosa o‘n to‘rtta pishiriqni paqqos tushirdi.

– Bular bir tuzuk politsiyachigayam o‘xshamaydi. Qayoqdagi bolalar uyimi-yey, ko‘kartirish jadvalimi-yey, Lissabonmi-yey deb boshingni qotirishadi, – dedi Peppi kavshanib bo‘lgach.

Shundan so‘ng Peppi otni yechdi-yu, bolalar uchovlashib otga minib, hovli ichida sayr qilishdi. Boshida Annika otga minishni unchalik ham xushlamadi-yu, lekin Peppi va Tommining zavqiga havasi kelib, Peppidan uni ham otning ustiga mindirib olishini so‘radi. Ot bog‘ ichida tinmay yo‘rg‘alar, Tommi esa kuylar edi:

*«Shvedlar keldi, qoching,
Otliqlarga yo‘l oching».*

Kechki payt Tommi va Annika yotoqqa cho‘zishganida Tommi gap boshladi:

– Annika, Peppining yaqinimizga ko‘chib kelgani ajoyib ish bo‘ldi, shunday emasmi?

– Bo‘lmasam-chi! – dedi Annika.

– U kelishidan ilgari qanday o‘yinlar o‘ynaganimizni ham eslolmayman, sen-chi, eslay olasanmi?

– Albatta, kriket va shunga o‘xshash bir nimalar o‘ynar edik, – dedi Annika. – Biroq Peppi bilan o‘ynash juda-juda maroqli. Ayniqsa, ot va maymun bilan ham.

4. Peppining maktabga borgani

Tommi va Annika maktabga borishardi. Har kuni ertalab soat sakkizda aka-singil qo'l ushlab, sumkalarini likillatib maktabga yo'l olishardi.

Bunaqa paytda Peppi yo otini parvarishlayotgan yoki janob Nilsonga jajji kiyimchalarini kiygizayotgan bo'lardi. Juda bo'lmasa, qirq uchta saltodan iborat ertalabki mashqlarini bajarayotgan bo'lardi. Shundan so'ng odatiga ko'ra, nonushta stoliga cho'kib, bahaybat finjon to'la qahva bilan bir bo'lak non va pishloqni xurmachasiga urib olardi.

Tommi va Annika maktabga ketayotgan payti xuddi «Tovuq» villasiga sog'inch to'la nigohini javdiratib qarayotganday bo'lardi. Undan ko'ra Peppi bilan qolib, ko'proq o'ynashgani afzal edi. Eh, qaniydi Peppi ham ularga qo'shilib maktabga borsa, bu boshqa gap bo'lardi-da!

– Bir o'ylab ko'r-a, maktabdan qaytayotib qancha sho'xliklar qilgan bo'lardik, – dedi Tommi.

– Ha, maktabga borayotganda ham, – qo'shimcha qildi Annika.

Ular qancha ko'p orzu qilishmasin, Peppining hech qachon maktabga bormasligini bilib, shunchalik qayg'uga cho'mishardi. Axiyri, aka-singil borib, Peppini ko'ndirib ko'rishga ahd qilishdi.

– Peppi, sen bizning o'qituvchimiz qanchalar yaxshi ekanini bilsayding, – dedi bir kuni Tommi Annika ikkalovi uyga vazifasini tayyorlab bo'lgach, «Tovuq» villasiga borishganida.

– Maktabga borish naqadar maza ekanini tasavvur ham qilolmaysan, – qo'shimcha qildi Annika.

– Bordi-yu, biror kun maktabga borolmasam, naq o‘lib qolsam kerak.

Peppi gavdasiga mos kursichada o‘tirganicha oyoqlarini tog‘oraga solib yuvayotgan edi. Ularning gaplariga hech qanday javob bermadi, aksincha, oyoq barmoqlarini likillatgan zahoti atrofga suv sachradi.

– U yerda ko‘p qolishing ham shart emas, – dedi Tommi, – bor-yo‘g‘i soat ikkigacha xolos.

– Ha-ha, bundan tashqari Yangi yilda, bahor va yozda ta‘tilga chiqamiz.

Peppi barmog‘ini tishladi, o‘yga toldi, lekin indamadi. To‘satdan xuddi miyasiga nimadir fikr kelganday tog‘oradagi suvni to‘g‘ri oshxona poliga sepib yubordi. Uning shoshilinch harakatidan Peppiga yaqin joyda oynacha bilan o‘ynab o‘tirgan janob Nilsonning ishtoni boshdan oyoq shalabbo bo‘ldi.

– Bu nohaqlik! – qat‘iyat bilan gapirdi Peppi, na bechora mittigina janob Nilsonga, na uning shalabbo ishtoniga e‘tibor qaratmay. – Bu o‘taketgan nohaqlik-ku, axir men bunga hech qanaqasiga dosh berolmayman.

– Qanaqa nohaqlik? – hayron qolib so‘radi Tommi.

– To‘rt oy o‘tar-o‘tmas Yangi yil keladi, sizlarda Yangi yil ta‘tili boshlanadi. Menda-chi, menda hech balo boshlanmaydimi? – Peppining ovozi yig‘lam-siraganday tuyuldi. – Menda hech qanaqa bayram ta‘tili bo‘lmaydi, hattoki, arzimagan bir necha kunga ham ta‘til berishmaydi, – davom etdi Peppi

norozni ohangda. – Bunga chek qo'yish kerak, darhol! Ertadan boshlab men ham maktabga boraman.

Tommi va Annika quvonganlaridan qarsak chaling yuborishdi.

– Ur-re! Ur-re! Ertaga roppa-rosa soat sakkizda seni darvozamiz yonida kutamiz.

– Yo'q, – dedi Peppi keskinlik bilan. – Bu payt men uchun juda ertalik qiladi. Bundan tashqari, men maktabga ot minib bormoqchiman.

Peppi aytganini qilmay qo'ymaydigan qizaloqlardan edi. Ertasi kuni roppa-rosa soat o'nda otini ayvondan olib chiqib, yo'lga tushdi. Sal o'tib, butun shaharcha ahli ko'chada ot choptirib ketayotgan chavandozni ko'rish uchun o'zlarini deraza yoniga urishdi. Lekin ular o'ylagan hech narsa yuz bermadi: ot mingan shovvoz maktabga jonsarak ketayotgan o'zimizning Peppi edi.

Uzunpaypoq otini shiddat bilan yeldirib maktab hovlisiga kirib bordi, egardan bir sakrab tushdi-yu, otni daraxtga bog'lab, sinfxonaga shunaqangi shovqin-suron solib kirib keldiki, natijada Tommi, Annika va ularning barcha sinfdoshlari beixtiyor o'rinlaridan turib ketishdi.

– Hammaga salom! – baqirdi Peppi, bahaybat shlyapasini silkitarkan. – Ko'kartirish jadvalini o'rganishga kech qolmadimmi?

Tommi va Annika ustoziga Uzunpaypoq Peppi degan yangi qizcha maktabga kelishini aytishgandi. Ustozning o'zi ham u haqda shaharchadagi mish-mishlardan ancha narsani bilib olgandi. U juda mehribon ustoz bo'lgani uchun ham maktabda

Peppini zeriktirib qo‘ymaslikka chin dildan harakat qildi.

Hech kim uni taklif qilmagan bo‘lsa ham, Peppi shartta borib, o‘zini bo‘sh turgan o‘rindiqlardan biriga otdi. Shunda ham o‘qituvchi uning bu qu-loqsizligiga e‘tibor bermaslikka harakat qildi.

– Maktabga xush kelibsang, mittivoy Peppi! Umid qilamanki, bilim dargohimiz senga yoqadi va bu yerda ko‘p narsalarni biz bilan birga o‘rganasan.

– Men esa umid qilamanki, tez orada o‘rtoqlarim kabi Yangi yil ta‘tiliga chiqaman, bu yerga shuning uchun keldim. Shundagina adolatsizlikka chek qo‘yiladi.

– Marhamat qilib, avvalo, menga ism-sharifingni aytib yuborsang, – dedi ustoz muloyimlik bilan. – Seni ro‘yxatga qayd etib qo‘yaman.

– Ismim – Pippilotta Delikatessa Siniq Yog‘du Makrenint odamxo‘rlar qiroli, sobiq dengiz qarochisi kapitan Efraim qizi Uzunpaypoq. Umuman olganda, Peppi – mening laqabim xolos, otamning aytishicha, Pippilotta aytishga juda uzun ism ekan.

– Tushunarli, – dedi o‘qituvchi. – Unda biz ham seni Peppi deb chaqira qolamiz. Kel, yaxshisi, endi nimalarni bilishingni bir tekshirib ko‘ramiz. Ko‘rinib turibdiki, sen allaqachon katta qizsan, demak, ancha narsani bilsang kerak. Xo‘p, arifmetikadan boshlay qolamiz. Peppi, marhamat qilib ayt-chi, beshga yettini qo‘shsa, necha bo‘ladi?

Peppi o‘qituvchiga norozi va hayrat aralash qarab turdi. So‘ng o‘zini qo‘lga olib, dedi:

– O‘zing kap-katta bo‘la turib, bilmasang, nega mendan so‘raysan?

Barcha bolalar Peppiga o'takalari yorilib nazar solishdi. O'qituvchi esa unga maktabda bu tarzda hurmatsizlik qilib javob berilmasligini tushuntirdi.

– Ma'zur tutasiz, xonim, – dedi Peppi. – Bundayligini bilmagandim, boshqa qaytarilmaydi.

– Va'dangda turasan, degan umiddaman. Xo'p, quloq sol, Peppi. Agar chindan ham javob berolmang, unda o'zim aytaman: beshga yettini qo'shsa, o'n ikki bo'ladi.

– Ana. O'zing bilar ekansan, mendan so'rab balo bormidi... Voy, kechiring, yana senlab yuboribman.

Ustoz bu holatga ko'z yumdi va savol-javobni davom ettirdi:

– Xo'p, yaxshi, Peppi. Endi ayt-chi, sakkizga to'rtini qo'shsak, necha bo'ladi?

– A-ha, salkam oltmish yetti bo'lsa kerak, – taxmin qildi u.

– Noto'g'ri, – dedi o'qituvchi. – Sakkizga to'rtini qo'shsa, o'n ikki bo'ladi!

– Xo'p, xonim, – dedi Peppi, – lekin bu kabi jumboqlar bizga juda og'irlik qiladi. Hozirgina yettiga beshni qo'shsa, o'n ikki bo'ladi, dedingiz. Maktabda ham qandaydir tartib bo'lishi kerak! Agar mana shu ahmoqona arifmetika deganlariga shunchalar qiziqsangiz, marhamat, bir burchakka boring-da, bemalol arifmetikangiz bilan shug'ullanaving, biz ham hovliga chiqib, quvlashmachoq o'ynaymiz sizga xalaqit bermasdan.

O'qituvchi Peppiga arifmetikani o'rgatishning foydasi bo'lmasligini tushunib yetdi. Shundan so'ng qo'shish va ayirishga oid savollarini boshqa bolalardan so'ray ketdi.

– Tommi, sen javob bera olasanmi? – dedi ustoz.
– Lizada yetti dona olma yedi. Aksel esa to‘qqizta. Xo‘sh, ikkovi jami nechta olma yegan?

– Ha, Tommi, sen ayta qol, – aralashdi Peppi.
– Menga ham ayt-chi, agar Lizaning qorni burab og‘risa, Akselning ham qorni undan battar burab og‘risa, bu kimning aybi bo‘ladi va ular jami olmalarni o‘zi qaysi bog‘dan o‘marishgan edi?

O‘qituvchi tag‘in o‘zini eshitmaganga olib, davom etdi:

– Annika, endi senga bir masala beraman. Gustav maktabdoshlari bilan tamaddi qilishga bordi. Uning chorak dollar puli bor edi. Gustav uyiga sakkiz sent bilan qaytdi. Xo‘sh, u qancha pul sarflagan?

– Ha, mengayam juda qiziq, – lop etib yana gapga qo‘shildi Peppi. – Bu Gustav deganlari bunchalar qo‘li ochiq bo‘lmasa. O‘zi sotib olgani bitta rangli suv-ku, shunga ham shuncha pul sarflaydimi? Ishqilib, uyidan chiqmasdan oldin qulog‘ini yaxshilab yuvganmikan-a?

O‘qituvchi axiyri arifmetikani butunlay yig‘ishtirib qo‘yishga qaror qildi. Balki Peppiga alifboni o‘rganish ko‘proq yoqar, degan fikr miyasiga kelib, tog‘ echkisi rasmi tushirilgan chiroyli qog‘ozni qo‘liga oldi. Rasm ostiga «T» harfi yozilgan edi.

– Demak, Peppi, hozir senga bir qiziq narsa ko‘rsataman. Mana bu rasmdagi hayvon – tog‘ echkisi. Oldidagi harf esa – «T».

– Yo‘q, men bunga hech qachon ishonmayman, – dedi Peppi. – Menimcha, bu hech qanday «T» emas, bu – uzun chiziq, faqat oxirida yana bitta

ko'ndalang chiziq tushgan, xolos. Lekin chindan ham qiziq ekan, tog' echkisi bu chalkash chiziqlarni boshiga uradimi?

O'qituvchi Peppining savoliga javob bermadi, aksincha, xuddi boyagiga o'xshash boshqa bir qog'ozni oldi. Unda ilonning rasmi tushirilgan, ostiga esa «I» harfi yozilgan edi.

– O, ilonlar haqida gaplashish maza! – dedi Peppi. – Hindistonda bahaybat ilon bilan yakkama-yakka olishganim hech yodimdan chiqmaydi-da. Uning naqadar vahshiy ilon bo'lganini tasavvur ham qilolmaysiz: uzunligi naq o'n to'rt metr kelardi, xuddi qovog'ariday badjahl edi. Ilon tushmagur har kuni beshta hindni paqqos tushirar, gazakka ikkita chaqaloqni ham yamlamay yutardi. Kunlarning birida u meni ham gazak qilmoqchi bo'ldi. Shundoq kelib meni o'rab olganini ko'rganingizda edi, u-uh! Lekin men ham bo'sh kelmadim. Bor kuchimni to'plab, boshiga bir tushirdim. Bidish-sh! O'shanda u mana shunday ovoz chiqardi: vish-sh-sh-sh... Men esa unga yana bitta zarba berdim. Bu-um-m! Tamom! Shu bilan u asfalasofilinga jo'nadi. Ha, xuddi shunday bo'lgandi, xuddi kechagiday esimda. Naqadar vahimali hikoya ekanini ko'ryapsizmi?

Peppi nafas rostlab olish uchun ham to'xtashga majbur bo'ldi. Endilikda yangi o'quvchisining naqadar quloqsiz va serg'alva qizaloq ekanligini tushunib yetgan o'qituvchi biroz muddat o'quvchilariga rasm chizdirish kerak, degan fikrga keldi. Shundagina Peppi ham tinchgina o'tirib, biron nima chizishi mumkin, deb o'yladi o'qituvchi va barcha bolalarga qog'oz hamda rangli qalamlar tarqatdi.

– Nima xohlasangiz, shuni chizishingiz mumkin,
– dedi o‘qituvchi uy vazifalarini tekshirgani o‘tirarkan.

Birozdan so‘ng u rasm chizish jarayoni qanday kechayotganini bilish uchun bolajonlarga yuzlandi. Barcha o‘quvchilarning nigohi yuztuban yotib olgan polda rasm chizayotgan Peppida edi.

– Quloq sol, Peppi, – dedi o‘qituvchi, – nega qog‘ozga chizmayapsan?

– Uni to‘ldirib bo‘ldim. Bergan kichkinagina qog‘ozingizda butun boshli otimning rasmini chizishga yetadigan joy yo‘q-ku. Mana hozir old oyoqlarini chizish bilan bandman, dumiga yetib borgunimcha koridorga chiqib chizishimga to‘g‘ri keladi-yov.

O‘qituvchi bir zum o‘yga cho‘mib qoldi.

– Kelinglar, yaxshisi, rasm o‘rniga barchamiz qo‘shiq kuylaymiz! – dedi u va nihoyat.

Barcha bolalar (albatta Peppidan tashqari) o‘rinlaridan turib olishdi, faqatgina u polda yotaverdi.

– O‘zlaringiz qo‘shiq kuylayveringlar, – dedi u.
– Men charchadim, ozroq dam olaman. Ko‘p o‘qish hatto sog‘liqqa ham ziyon yetkazadi.

Biroq endi o‘qituvchining sabr kosasi to‘ldi! Peppi bilan yolg‘iz gaplashib olish maqsadida barcha bolalardan maktab hovlisiga chiqishlarini iltimos qildi. Ikkovlari yolg‘iz qolishgach, Peppi doska yaqiniga bordi.

– Bilasizmi nima? – gap boshladi Peppi. – Maktabda nimalar bo‘lishini ko‘rish menga judayam qiziq tuyulganidan, kelib ko‘rishni xohlagandim.

Ammo bu yerga kelish haqida ortiq bosh qotirma-sam kerak. Yangi yil ta'tillaringiz ham beriladimi, yo'qmi, endi qizig'i yo'q. Maktabingizda olmalar, tog' echkilari, ilonlar va yana balo-battarlar bema-za qovunning urug'idan ham ko'p ekan. Shunchalar ko'pki, boshim aylanib qoldi. Lekin siz, ustozjon, mendan ranjimaysiz, degan umiddaman.

O'qituvchi juda ham ranjiganini, ayniqsa, Peppining o'zini juda yomon tutganidan xafa ekanini; darsda o'zini u singari tutadiganlar o'qishni xohlay-man, deb xarxasha qilsa ham qaytib maktabga kiritilmasligini aytdi.

– Men o'zimni yomon tutdimmi? – hayron bo'ldi Peppi. – Xudo haqqi, o'zim buni bilmagandim, – dedi u g'amgin nigoh bilan boqib.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, agar Peppi xafa bo'lsa, bu dunyoda hech kimning ko'zlari unikiday g'amgin bo'lmaydi. U shu turishida bir muddat sukut saqladi va titroq ovozda:

– Axir bir o'ylab ko'ring, ustoz, sizning ham onangiz allaqachon farishtaga aylangan bo'lsa, otangiz odamxo'rlar qiroli bo'lsa, o'zingiz esa butun umr dengizdan beri kelmagan bo'lsangiz, mana bu olmalar-u tog' echkilariga to'la maktabda o'zingizni qanday tutish kerakligini qayerdan ham bilardingiz?

O'qituvchi uni yaxshi tushunganini, Peppining harakatlaridan ortiq xafa emasligini, shuningdek, agar xohlasa, biroz ulg'ayganidan so'ng maktabga qaytib kelishi mumkinligini aytdi. Peppining mam-nun tabassumidan yuzi yorishib ketdi.

– Siz, ustozjon, juda-juda-juda mehribonsiz. Mana bu esa mendan sizga!

Peppi cho‘ntagidan bejirim tilla soatni chiqazib, stol ustiga qo‘ydi. O‘qituvchi undan bunday qimmatbaho sovg‘ani qabul qila olmasligini uqtirdi, lekin Uzunpaypoq unamadi.

– Yo‘q, ustozjon, o‘tinib so‘rayman sizdan, sovg‘amni olishingiz shart. Yo‘qsa, men ertaga yana maktabga kelaman, shunda salomingizga yarasha alik bo‘ladi.

Peppi darhol maktab hovlisiga otilib chiqdi-yu, otiga sakrab mindi. Barcha bolalar otni bir silab qo‘yish va Peppini kuzatib qo‘yish uchun uning atrofini o‘rab olishdi.

– Eh, sizlar Argentinadagi maktablar haqida bilmayizlar-da, – bolalarni mensimay dedi u. – Borsangiz, o‘shanday maktabga boring ekan. Qishki ta‘til tugashidan uch kun o‘tiboq bahorgi ta‘til boshlanib ketadi. Bahorgi nihoyasiga yetgach esa yana uch kun o‘tib, yozgi ta‘til boshlanadi deng. Yozgi ta‘til esa birinchi noyabrda yakunlanadi. Eng qattiq o‘qiydigan vaqt ham mana shu: birinchi noyabrdan to qishki ta‘til boshlanguncha, ya‘ni o‘n birinchi noyabrgacha. Lekin bunga ham sabr qilsa bo‘ladi, chunki u yerning maktablarida deyarli hech qanday darslar o‘tilmaydi. Ha, Argentinada bolalarga dars o‘tish qat‘iyan man qilingan. To‘g‘ri, shunaqa holatlar ham uchrab turadiki, ba‘zi argentinalik bolalar shkafga yashirinib olib, dars qilib o‘tirishadi. Ammo buning turgan-bitgani xatar: o‘sha yashiringan bolani onasi ushlab olsa bormi... Tamom

deyavering! Ularda arifmetika degan fanning o'zi o'tilmaydi hisobi. Bordi-yu, darsda birorta bola yet-tiga beshni qo'shsa necha bo'lishini bilsa, kun bo'yi burchakda turish jazosi beriladi. Nega deysizmi? Javobni bilishini ustozga bildirib ahmoqlik qilgani uchun-da! Ularda har juma mutolaa kuni bo'ladi, o'shandayam agar hech kimda yo'q kitobni topa olishsagina, mutolaa qilishadi.

– Unda ular maktabga borib nima qilishadi? – qiziqsinib so'radi bolalardan biri.

– Shirinlik yeyishadi, – qat'iyat bilan javob berdi Peppi. – Yaqin atrofdagi qandolat fabrikasidan to'g'ri sinfxonaga qarab quvur o'tkazishgan. O'sha quvurdan tinmay qand-u shirinliklar tushib turadi. Bolalar esa kuni bo'yi tinmay shirinlik chaynashga ulgurishsa bo'lgani.

– O'qituvchi-chi... nima qiladi? – so'radi bir qizcha hayratlanib.

– Bolalar yegan qand qog'ozlarini terib chiqadi-da, xomkalla, boshqa nimayam qilardi? – dedi Peppi. – O'qituvchilar bu ishni o'zlari bajarishadi deb o'ylading-a, hozir. Shundaymi? Yo'q, adashasan, o'zlari bunday ishlarga qo'l urmaydi. Aksincha, ukalarini jo'natishadi, – bahaybat shlyapasini silkitdi Peppi.

U otiga joylashib o'tirib olgach:

– Ko'rishguncha, bolalar! – deya zavqlanib xayrlashdi. – Endi meni ancha payt ko'rmasangiz kerak, lekin uyalib qolmay desangiz, Aksel nechta olma yeganini unutib qo'ymanglar.

Peppi maktab darvozasidan qiy-chuv ko'tarib chiqib ketdi. U otni shunchalik shuddat bilan

choptirdiki, yerda yotgan shag'allar otning tuyoqlari atrofida sochilib, sinfxonalarning deraza oynalari titrab ketdi.

5. Peppining daraxt kovagiga kirgani

Kunlarning birida Peppi, Tommi va Annika «Tovuq» villasining tashqarisida quyoshda toblanib turishardi. Peppi bog' darvozasining bir to'sini yonida, Annika boshqa bir to'sin yonida, Tommi esa darvoza ustida o'tirgandi. Avgust oyi ham oxirlab qolgan, yoz faslining eng so'nggi quyoshli kunlaridan biri edi. Bog' panjarasi yaqinida o'sadigan nok daraxti shoxlari yerga shunchalar egilganidan bolalar undagi eng sarxil mevalarni hech qanday qiyinchiliksiz terib yeyishardi. Ular tinmay kavshanar, birin-ketin noklarni yeb tugatar va meva urug'ini to'g'ridan to'g'ri yo'lga uloqtirishardi.

«Tovuq» villasi shundoqqina shaharchaning bir chetida joylashgan bo'lib, ko'chaning aynan shu yeri qishloqqa ketadigan yo'l bilan tutashgan edi. Shaharcha aholisi «Tovuq» villasi atrofida sayr qilib yurishni xush ko'rishardi, sababi qishloqqa olib boradigan yo'lning manzarasi juda ko'zni quvontirardi.

Bolalar nokxo'rlik bilan mashg'ul payt shaharcha yo'li bo'ylab bir qiz kelib, ular tomonga yurdi. Tengdoshlarini ko'rib to'xtadi-yu, ularni savolga tutdi:

– Shu yo'ldan mening otam o'tmadimi, mabodo?

– Hm-m, – peshonasini tirishtirdi Peppi. – Otangning ko‘rinishi qanaqa edi? Ko‘zlari ko‘k emasmi?

– Ha, – dedi qiz.

– O‘rta bo‘yli edi, to‘g‘rimi, juda novcha ham emas, juda pakana ham emas.

– Ha, – dedi qiz tag‘in.

– Qora shlyapa va qora tufli kiyganmi?

– Xuddi o‘zi, – dedi qiz.

– Yo‘q, biz unaqa odamni ko‘rmadik, – qo‘lini silkib javob berdi Peppi.

Qiz bechora suvga tushgan mushukday bo‘lib qoldi va lom-mim demay kelgan yo‘liga qayrildi.

– Hoy, bir daqiqa shoshma, – ortidan baqirdi Peppi. – Otang kalboshmi?

– Yo‘q, umuman bunaqa emasdi, – zarda qildi qiz.

– Unda otang omadli ekan, – dedi Peppi nok urug‘ini yo‘lga uloqtirarkan.

Qiz shoshilib ketayotgan edi, tag‘in Peppi uning ortidan baqirib qoldi:

– Otangning quloqlari bahaybatligidan yelkasi-dan ham osilib tushganmi?

Qiz ortiq chiday olmadi. Xunobi chiqib Peppi to-monga yugurib keldi.

– O‘zing hech shunday katta qulog‘i bilan ko‘cha-da yurgan odamni hayotingda ko‘rganmisan?

– Yo‘q, qulog‘i bilan yuradigan odamni umrimda ko‘rmaganman. Men tanigan odamlarning barchasi oyoqda yurishadi.

– O‘zingni jinnilikka solma, shunchalik ulkan quloqli odamni hech ko‘rganmisan? – deb so‘radi.

– Aslo, bunday katta quloqli odamni topib bo‘lmaydi. Bo‘lganda ham juda kulgili bo‘lardi. Bizning mamlakatimizda shalpanquloqlar yo‘q, – dedi Peppi va biroz tin olib, yana davom etdi. – Lekin Xitoyda vaziyat o‘zgacha. Bir paytlar Shang Hayda bir xitoylikni ko‘rganman. Uning quloqlari shunangangi katta ediki, ulardan bemalol mo‘yna o‘rnida foydalanardi. Ayniqsa, yomg‘ir yog‘gan paytlari deng, shundoqqina quloqlari ostiga panalasa, xuddi issiqqina va shinam uyda o‘tirganday his qilardi o‘zini. Havoning avzoyi juda buzilgan paytlarda o‘zi bilan birga do‘st-u tanishlarini ham qulog‘i ostiga chaqirardi. To‘g‘ri, uning bu qilig‘i hatto quloqlariga ham yoqmasdi. Chunki ular yomg‘ir yog‘ayotganda ming‘irlab-ming‘irlab biram motamsaro qo‘shiqlar kuylashardiki, asti qo‘yavering. Darvoqe, shalpanquloqning ismi Hay Shang edi. Hay Shangni har ertalab ishga chopqillab ketayotganida ko‘rsangiz edi! Ko‘p uxlab, kech uyg‘onishni yoqtirganida har doim ishga oxirgi daqiqalarda yetib borardi. Endi tasavvur qiling-a, ko‘chada Hay Shang chopib ketaversa-yu, ortidan ikki quloqli quloqlari xuddi ikki yelkanday shuvullab boraversa, naqadar ajoyib manzara paydo bo‘ladi.

Haligi qiz Peppining gaplaridan og‘zi lang ochilib qotib qoldi. Tommi va Annika esa nok yeyishni ham esdan chiqarib qo‘yishdi.

– Uning bolalari son-sanoqsiz edi, – dedi Peppi.
– Eng kenja farzandining ismini Peter deyishardi menimcha.

– Qanaqasiga xitoylik bolaga Peter deb nom qo‘yish mumkin? – uning gapini bo‘ldi Tommi.

– Ha-a, ana! Hay Shangning xotini ham xuddi shunday e'tiroz qilgandi. Xitoylik bolaga Peter deb ism qo'yilmaydi, deb. Lekin uning eri o'lguday qaysar edi-da, o'g'limning ismi yo Peter bo'ladi, yoki umuman ot qo'yilmaydi, deb qattiq turib oldi. Shunday deb bir burchakda o'tirib, quloqlariga o'ranib oldi-yu, tinmay uvvos solaverdi. Bechora xotini taslim bo'lishdan boshqa chora topolmadi. Shunday qilib, baribir bolaning ismi Peter deb qo'yildi.

– Rostdan? – hayratlandi Annika.

– Bo'lmasam-chi, Shang Haydagi eng injiq bola shu edi, – davom etdi Peppi. – Har doim ovqat paytida injiqlik qilaverardi. Dunyoda uning onasidan boshqa baxtiqaro ona bo'lmasa kerak. Xitoyda odamlar qaldirg'och uyalarini yeyishlaridan xabaringiz bormi? Onasi bechora yoniga bir lagan liq to'la qaldirg'och uyasini olib, Peterga yedirish uchun kuyib-pishardi. «Peter, bolaginam, mana shu qaldirg'och uyalarini dadang uchun yeb qo'ymaymizmi?» deb zorlanardi bechora. Lekin qani foyda bersa, Peter og'zini mahkam yopib, boshini silkitardi. Axiyri, Hay Shangning bardoshi tugadi, to dadasi uchun qaldirg'och uyalarini yemas ekan, Peterga boshqa ovqat berilmasin, dedi jahl ustida. Oilada Hay Shangning aytgani aytgan, degani degan edi. Maydan to oktabrgacha har kuni xuddi o'sha qaldirg'och uyasi oshxona bilan Peterning xonasi o'rtasida sarson bo'ldi. Iyulning o'n to'rtinchi sanasida xotini Hay Shangdan o'g'liga ikki donagina kotlet kirgizib berishni o'tinib so'radi. Biroq o'jar Hay Shang bunga yo'l qo'ymadi.

– Bo‘lmagan gap, – dedi yo‘ldagi qizcha.

– Ha, to‘ppa-to‘g‘ri, Hay Shang ham xuddi shunday degandi xotiniga, – davom etdi Peppi.

– Bo‘lmagan gap, dedi u. Tag‘in shunday dediki qachonki bola injiqlik qilishni to‘xtatsagina, qaldirg‘och uyasini yeyishi mumkin ekan. Lekin Peter ham otasining o‘g‘li-da, maydan to oktabrgacha umuman tuz totmadi shovvoz.

– Lekin u chindan ham maydan oktabrgacha hech vaqo yemagan bo‘lsa, qanday qilib yashab qoldi? – so‘radi Tommi hayratlanib.

– Bechoraning umri qisqa ekan, yashab qolmadi. U o‘n sakkizinchi oktabr kuni «uchiga chiqqan qovoqkallalik sindromi» degan kasallikdan vafot etdi. Go‘dakkinani o‘n to‘qqizinchida qabrga qo‘yishdi. Yigirmanchi kuni esa qayerdandir bir qaldirg‘och ichkariga uchib kirib, hanuz stol ustida turgan uya ichiga tuxum qo‘ydi. O‘sha in saqlangani ham unga qo‘l keldi. Hech kim unga ozor yetkazmadi, – jilmaygancha gapini yakunladi Peppi va haliyam yo‘l chetida xuddi o‘zini yo‘qotganday turgan qizga o‘ychan nazar soldi.

– Nega buncha xursand ko‘rinasan? – so‘radi Peppi undan. – Nahotki meni o‘tirib olib qulog‘imga lag‘mon ilyapti, degan xayolga bormagan bo‘lsang? Agar shunday xayolga borgan bo‘lsang, ochiq aytaver.

– Yo‘q, aslo unday emas, – dedi qiz qo‘rqqanidan. – Chindan ham aldayapsan, degan xayolga borganim yo‘q, lekin...

– Yo‘q?! Aslida qip-qizil yolg‘on-ku gaplarim. Mana, qara, yolg‘on gapirayotganim sabab tilim

ko'mirday qorayib ketyapti. Nahotki sen birorta bola tuz totmasdan maydan oktabrgacha yashashi mumkinligiga ishonsang? To'g'ri, uch-to'rt oy hech narsa yemay yurish mumkin, lekin maydan oktabrgacha... aqling joyidami o'zi? Bu haqda o'ylashning o'zi g'irt ahmoqlik-ku! Sen buning yolg'onligini darhol sezishing kerak edi. Duch kelgan odam seni ahmoq qilishiga yo'l qo'yib bermaslik lozim.

Qiz bu gal ortiga qayrilmay ketdi.

– Odamlar ham to'g'ri kelgan gapga ishonaveradi-yey, – dedi Peppi. – Maydan oktabrgacha och yurgan emish. Axir bundan ham ahmoqona gap bo'ladimi? – so'ng qizning ortidan yana baqirib qoldi: – Yo'q, biz otangni ko'rmadik. Buguni bilan biron-tayam kalbosh odam o'tmadi bu yerdan. Lekin kecha naq o'n yettitasi qo'l ushlab o'tishgandi.

Peppining bog'chasi juda chiroyli edi. Bu bog'ni tartibli deyishga til bormaydi-yu, lekin umrida qaychi ko'rmagan ko'rkam maysazor; o'zi risoladagiday bo'lmasa-da, antiqa hid taratuvchi oq, sariq va pushti gullaydigan atirgul butalari bog'ga ko'rk bag'ishlardi. Bu yerda bir talay alomat daraxtlar ham o'sardi, ayniqsa, ularning ichida eng yaxshilari bir nechta qariya eman va qayrag'och daraxtlari, ularga tirmashib chiqish zavqi boshqacha-da bari-bir.

Tommi va Annikaning bog'idagi daraxtlar tirmashib chiqishga unchalik ham qulay emasdi, qolaversa, ularning onasi har doim yiqilib ketasizlar deb vahima qilaverganidan bolalar daraxtga kamdan kam tirmashishardi.

– Emanga tirmashib chiqmaymizmi? – deb qoldi Peppi birdan.

Tommiga bu taklif yoqib ketganidan o'tirgan yeridan zum deganda sakrab tushdi. Annika boshida ozroq ikkilanib turdi, biroq daraxt tanasidagi ayni tirmashib chiqishga qo'l keladigan qavariqlarini ko'rganidan so'ng, u ham tirmashishga urinib ko'rish maroqli bo'lishini fahmladi.

Bir necha metr balandda emanning tanasi ikkiga bo'linib, o'sha bo'lingan yerida kichkina xonaga o'xshash joy bor edi. Ko'p o'tmay uchovlon aynan o'sha yerda paydo bo'lishdi. Bolalarning boshi uzra yoyilgan eman shoxlari xuddi yam-yashil tomni eslatardi.

– Shu yerda o'tirib, qahva ichishning gashti bo'lakcha-da, – dedi Peppi. – Men hozir borib qahva tayyorlab kelaman.

– Yashavor! – deyishdi Tommi va Annika baravariga Peppini olqishlab.

Oradan hech qancha vaqt o'tmay Uzunpaypoq qahva tayyorlab keldi. Tunov kuni shirin bo'g'irsoqlar pishirgandi. Peppi eman daraxti ostiga kelib, qahva finjonlarini tepaga uloqtira boshladi. Otilgan finjonlarni goh Tommi va Annika ushlashga muvaffaq bo'lar, goh esa emanning o'zi tutib olardi. Shunday qilib, eman tutib olgan ikkita finjon chil-chil sindi. Peppi yangi finjonlarni keltirish uchun yana uyiga tomon chopdi. Keyingi navbat bo'g'irsoqlarniki edi. Bir zumda havoni uloqtirilgan bo'g'irsoqlar tutdi. Hech qursa shular sinib chil-chil bo'lmadi, xayriyat. Va nihoyat, Peppi

bir qo'lida qahvadonni ko'targancha tepaga chiqdi. Uning cho'ntagida kichkina idishda sut va bir quti-
chada shakar bor edi.

Tommi va Annika uchun dunyoda bundan-da mazali qahva yo'q edi go'yo. Chunki ularga har kuni ham qahva ichishga ruxsat berishmasdi, faqatgina bazm bo'ladigan kunlari qahva ichish baxtiga mu-
yas- sar bo'lishardi. Ha, hozir ham ular bazm qilishyapti. Annika ozroq qahvani kiyimiga to'kib yubordi. Qah-
va to'kilgan yeri boshida issiq va ho'l bo'lsa, keyin muzday, lekin baribir ho'l bo'lib qolaverdi. Qah-
vaxo'rlik yakuniga yetgach, Peppi finjonlarni pastga, maysazor ustiga uloqtirdi.

– Qani, ko'raylik-chi, hozir chinnini qanchalik mustahkam qilib ishlab chiqarishyapti ekan, – dedi u. Qandaydir mo'jiza yuz berib, bir finjon va uchta likopcha yerga ustma-ust va beziyon tushdi, faqatgi-
na qahvadonning bir uchi ozgina shikastlandi xolos.

Peppi yanada yuqoriroqqa tirmashishni xohlab qoldi.

– Bolalar, daraxtni chertib ko'ringlar, ichi bo'm-
bo'sh ekan, – dedi Peppi.

Chindan ham daraxtda katta kovak bo'lib, shox-shabbalar uni bolalarning ko'zidan yashirgan edi.

– O, unda men ham yuqoriga chiqib, bir ko'rsam maylimi? – so'radi Tommi. Lekin hech qanday javob qaytmadi. – Peppi qayerga yo'qolding? – va-
himali baqirdi Tommi.

Ular Peppining ovozi eshitishdi, lekin uning ovozi yuqoridan emas, xuddi yer ostidan kelayot-
ganday tuyuldi.

– Men daraxt ichidaman. Kovagi naq yergacha ketgan ekan. Agar mana bu kichkina tirqishdan tashqariga mo‘ralasam, bemalol maysa ustida yotgan qahvadonni ko‘rishim mumkin.

– Endi qaytib chiqmaysanmi? – yig‘lamsiradi Annika.

– Hech qachon qaytmayman! To qariyaga aylanib, nafaqaga chiqmagunimcha shu yerda yashamoqchiman. Sizlar esa tepadagi teshik orqali har kuni menga besh yo olti mahaldan ovqat uzatib turishingiz kerak.

Annika ho‘ngray ketdi.

– Nega buncha piqillaysan? Nega buncha diydiyo qilasan-a? – dedi Peppi. – Yaxshisi, sen ham kel, pastga tush. Shunda birgalashib zindonda halok bo‘lish o‘yinini o‘ynardik.

– Ikki dunyoda ham unday qilmayman, – dedi Annika xavfsiz joyga o‘tib olish uchun daraxtdan pastga tusharkan.

– Annika, seni tirqishdan ko‘rib turibman. Faqat almisoqdan qolgan qahvadondan ehtiyot bo‘l. Buning hech kimga zarari yetmagan, odob-axloqli qahvadon ekanini o‘zing bilasan-ku. Bechora bir tomonidan darz ketganiga chiday olmayapti, xolos.

Annika daraxt ustiga qaytib chiqdi va tirqishdan qarab Peppining barmoqlarini ko‘rdi. Bu uni ancha yupatgan bo‘lsa ham, baribir ichida xavotir kuchli edi.

– Peppi, chindan ham endi qaytib chiqa olmay-sanmi? – so‘radi xavotirlanib Annika.

Birdan Peppining barmog'i g'oyib bo'ldi-yu, kovak tepasidan uning boshi zumda ko'rinib, yana yo'qoldi.

– Menimcha, yaxshilab urinsam, chiqa olaman, – dedi Peppi.

– Agar chindan ham qaytib chiqish mumkin bo'lsa, men ham tushib, zindonda halok bo'lish o'yinini biroz o'ynay, – dedi hali ham daraxt ustida turgan Tommi.

– Kutib tur, – dedi Peppi unga. – Yaxshisi, narvon olib kelaman.

U kovak ichidan o'rmalab chiqib, pastga hovliqdi. Narvon keltirib, avval uni daraxt tanasiga rostladi, so'ng esa kovak ichiga yuborish yo'lini topdi.

Tommi pastga tushishga juda oshiqayotgan edi. Kovakka tirmashib tushish juda xatarli edi-yu, lekin bizning Tommi yuraksiz bolalardan emas. U shu qadar jasur ediki, hech balodan qo'rqmay huvullab yotgan kovakka kirdi. Annika uning g'oyib bo'lishini kuzatib o'tirdi-yu, akamni qayta ko'rarmikinman degan xayolga borib, tirqishdan ichkari-ga mo'raladi.

– Annika, – Tommining ovozi eshitildi ichkari-dan, – kovakning ichi naqadar ajoyib ekanini bilsang edi. Sen ham tushishing kerak. Narvon bor ekan, chiqib-tushish hech qanday xavf tug'dirmaydi. Bordi-yu, bir marta bu ishga qo'l ursang, ko'ngling boshqa hech narsani tusamay qoladi.

– Ishonching komilmi? – so'radi Annika.

– Bo'lmasam-chi, – dedi Tommi.

Annika oyoqlari qaltirab-qaqshab tag'in daraxt tepasiga chiqdi. Kovak ichi qorong'i ekanini ko'rgach, biroz orqaga tisarildi, biroq Peppi uning qo'lidan tutib, dalda berib turdi.

– Qo'rqishga hojat yo'q, Annika, – dedi Tommi kovak ichidan. – Mana, oyoqlaringni ko'rib turibman, yiqilguday bo'lsang, o'zim tutib olaman.

Xayriyatki, Annika yiqilib tushmadi. Tommining yonigacha bexatar tushib oldi, bir daqiqa o'tar-o'tmas Peppi turgan yergacha yetdi.

– Qara, bu yer judayam keng, shunday emasmi? – xitob qildi Tommi.

Annika akasining fikriga qo'shilishga majbur edi ayni damda. Bu yer u o'ylagan kabi zimiston emasdi, kichkina tirqishdan yetarlicha yorug'lik tushib turardi. Annika ham tirqishdan mo'ralab, maysazor ustidagi qahvadonni ko'rayotganini aytdi.

– Biz bu yerni o'zimizning maxfiy yashirinadigan joyimizga aylantiramiz, – dedi Peppi. – Daraxt kovagida ekanimizni it ham payqamaydi. Mabodo ular kelib, yaqin atrofni tekshira boshlashsa ham, biz ularni tirqishdan turib kuzata olamiz. Shundan so'ng miriqib ustlaridan kulamiz.

– Ha, bundan tashqari, – qo'shimcha qildi Peppi, – bu yerga xivchin olib kelamiz-da, tirqishdan ularni nishonga olib, ta'zirlarini beramiz. Shunda bechoralar o'zlarini tavqi la'natga uchragan yerga kelib qolgandek his qilishadi.

Bu g'oya bolalarga birday yoqqanidan uchalovi ham bir vaqt quchoqlashib ketishdi. Ayni shu payt Tommi va Annikaning tushlikka chaqiruvchi qo'ng'iroq eshitildi: «ding-dong».

– Eh, jin ursin! Shu paytda-ya! – dedi Tommi. – Endi biz uyga qaytishimiz kerak. Ertaga maktabdan qaytishimiz bilanoq yana senikiga kelamiz.

– Kelishdik, – dedi Peppi.

Shunday qilib, avval Peppi, keyin Annika va uning ortidan Tommi birin-ketin narvondan tepaga ko'tarilishdi. Undan so'ng esa avval Peppi, keyin Annika va uning ortida Tommi birin-ketin daraxtdan pastga tushishdi.

6. Peppining sayr uyushtirgani

– Bugun biz maktabga bormaymiz chunki bugun shanbalik – tozalash kuni, – dedi Tommi Peppiga.

– Tozalash kuni?! Zo'r-ku, menga yoqdi! – dedi Peppi. – Lekin yana adolatsizlik. Nima, menga shanbalik qilish uchun ta'til berishmaydimi? Sizlardan ko'ra ko'proq menga kerak-ku bu. Mana, birgina oshxonaning poliga qara, qanchalar iflos bo'lib ketgan. Bo'ldi, bir qarorga keldim. Menga hech qanaqa shanbalik kerak emas, shusiz ham o'zim tozalayveraman. Shanbalik bo'ladimi, bo'lmaydimi – farqi yo'q, hoziroq tozalashni boshlayman. Qani, biror kishi shashtimdan qaytarib ko'rsin-chi! Siz ikkingiz ham oyoq ostimda o'ralashmay oshxona stoli ustida jimgina o'tiringlar.

Tommi va Annika itoatkorona borib oshxona stoli ustiga o'tirishdi; ularning ortidan janob Nilson sakrab chiqdi-yu, Annikaning oyoqlarida pinakka ketdi.

Peppi katta idishda suv qaynatdi-yu, uzoq o'ylab o'tirmasdan qaynoq suvni oshxona poliga to'kib yubordi. Bahaybat tuflilarini yechdi-da, ularni asrab-avaylab non solinadigan laganga qo'ydi. Yalang oyoqlariga ikkita tozalash cho'tkasini bog'lab, suvni har tomonga sachratganча cho'tkalar yordamida konki ucha boshladi.

– Har gal pol yuvganimda aslida figurali uchish malikasi bo'lishim kerak edi, degan xayolga boraman, – dedi Peppi. Shunday deya turib, chap oyog'ini ko'targan edi, cho'tkasi boshi ustidagi chiroqning bir parchasini sindirdi. – Nazokat desa bor, latofat desa bor, malikadan qayerim kam?

U qaddini yanada balandroq tutdi.

– Ana, bo'ldi! Menimcha, endi yog' tushsa, yalaguday bo'lib qoldi, – dedi, nihoyat Peppi oyog'idagi cho'tkalarini yecharkan.

– Endi polni artib chiqmoqchimisani? – qiziqsindi Annika.

– O, yo'q, o'zi quyoshda qurib qolar. Sirtida harakat to'xtamasa, darrov sovuq qotib qolmaydi, menimcha.

Tommi va Annika stoldan sakrab tushishdi va oyoqlari namlanib qolmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan qadam bosishdi. Tashqarida tip-tiniq osmonda quyosh porlayotgan edi. Xuddi odam o'zini o'rmonda sayr etib yurganday his etadigan sentabrning quyoshli kunlaridan biri edi. Peppida to'satdan bir fikr tug'ildi.

– Bolalar, janob Nilsonni olib, sayrga chiqmaymizmi?

– Ha, sayrga chiqaylik, – deyishdi Tommi va Annika ham bir ovozdan.

– Unda uyingizga yugurib borib, onangizdan ruxsat olib qaying, – dedi Peppi. – To siz qaytguncha savatni yegulikka to‘ldirib turaman.

Tommi va Annikaga bu taklif juda yoqib tushdi. Ular uylari tomonga yugurib, bir zumda yana qaytib kelishdi. Bu paytda Peppi allaqachon yelkasiga janob Nilsonni mindirib, bir qo‘lida tayoq, bir qo‘lida noz-ne‘mat to‘la savatni ko‘targancha, ularni darvoza yonida kutayotgan edi.

Bolalar yo‘l bo‘ylab ozroq yurishgach, qayin va yong‘oq daraxtlari o‘rib yotgan quyuq o‘tloq yo‘liga burilishdi. Yura-yura boshqa tomondagi yanada go‘zalroq manzarali yo‘l ostonasiga yetishdi. Lekin yo‘l boshida hech narsa bilan aldab o‘rnidan jildirib bo‘lmaydiganga o‘xshagan bir sigir turardi. Annika unga qarab o‘shqirdi, Tommi esa jasorat ila borib uni itarishga tushdi – baribir foydasiz. Sigir bolalarga ko‘zlarini lo‘q qilib qarab turaverdi. Kutishga bardoshi yetmagan Peppi savatini yerga qo‘yib, shartta bordi-yu, sigirni dast ko‘tarib, yo‘lning narigi betiga olib qo‘ydi.

– Sigir degani ham shunaqa eshak miya bo‘ladimi? – dedi Peppi to‘siqdan sakrab o‘tayotib.

– O, naqadar sevimli o‘rmon! Bunchalar odamga xush yoqmasa bu yerlar, – dedi Annika ko‘ziga ko‘ringan xarsanglar ustiga birma-bir o‘tirib ko‘rarkan.

Tommi xanjarini o‘zi bilan olib kelgandi – bu xanjarni unga Peppi bergani yodingizdadir? – o‘sha

orqali o'zi va Annikaga xivchin tayyorladi. Orada barmog'ini ham biroz kesib oldi-yu, lekin bunga unchalik ham ahamiyat bergani yo'q.

– Bir yayrab qo'ziqorin termaymizmi? – deya taklif bildirdi Peppi va o'zi yerdan eng chiroyli, qip-qizil qo'ziqorin uzib oldi. – Qiziq, bularni yesa bo'larmikan? Shuni aniq bilamanki, qo'ziqorinlarni ichishning umuman iloji yo'q, faqatgina yesa bo'ladi. Boshqa yana nimadir qilish mumkinmi ulardan?

Uzunpaypoq qo'ziqorinning katta bir bo'lagini olib, og'ziga soldi.

– To'g'ri topibman, judayam shirin ekan. Xo'p, yaxshisi, qolgan qo'ziqorinlarni boshqa safar terib olarmiz, – dedi Peppi qo'ziqorinni daraxt ustiga uloqtirib.

– Savatingda nimalar bor? – so'radi Annika. – Ishqilib, yaxshi narsami nima bo'lsa ham?

– Tilla bersang ham aytmayman, – dedi Peppi. – Eng avvalo, chaqchaqlashib o'tirgani qulay joy topmoq lozim.

Bolalar Peppi aytganday joy izlay boshlashdi. Annika katta yapaloq xarsangtoshni uchratib qolib, shu ma'qul kelsa kerak, deb o'ylagandi-yu, xarsang yuzasini qizil chumolilar galasi egallagandi.

– Men ular bor yerda o'tirishni istamayman, chunki ular bilan do'stona munosabatda emasman, – dedi Peppi.

– Nimasini aytasan, chaqishsa, yomon og'ritadi, – qo'shib qo'ydi Tommi.

– Chumolilar chaqishadimi? – dedi Peppi hayratlanib. – Unda ularni ham chaqish kerak, birga bir bo'ladi shunda.

Tommi yong'oq daraxtlari orasidan bahavo bir joy topdi.

– O, yo'q, bu yer juda ham quyoshli ekan, – dedi Peppi. – Quyosh nuri mening maftunkor sepkillarim bilan murosa qilolmaydi.

Biroz yurishgach, osongina tirmashib chiqsa bo'ladigan bir tepalikka duch kelishdi. Tepalikning bir tomonida xuddi boloxonani eslatadigan oftob tushib turadigan cho'qqi bor edi, ular ayni o'sha joyda o'tirishdi.

– Men dasturxon to'shagunimcha bir lahzaga ko'zingizni ochmay turing, – buyurdi Peppi. Tommi va Annika ko'zlarini mahkam yopib olishdi. Peppining savatdan noz-ne'matlarni olayotgani, qog'ozlar shitirloyotgani eshitilardi.

– Bir, ikki, o'n to'qqiz – endi bermalol ko'rishingiz mumkin.

Aka-singil ko'zlarini ochib, Peppi to'kib-sochgan sarxil ne'matlarni ko'rib, xursandchilikdan qichqirib yuborishdi. Go'shtli sendvichlar deysizmi, bir uyum shakarli quymoq deysizmi, mallarang sosiskalar deysizmi, hatto uch dona ananasli pudding ham muhayyo edi. Ana endi bildingizmi, Peppi otasining kemasidagi oshpazdan qanchalar ko'p narsani o'rganib olganini?

– Tozalik kunlari maza! – dedi Tommi og'zini to'ldirib kavsharkan. – Har kuni shanbalik ta'tili berishsa, zo'r bo'lardi-da!

– Yo'q, bu haqda orzu ham qilma, Tommi. Har kuni uy tozalashga ko'zim uchi b turgani yo'q, – dedi Peppi keskinlik bilan. – Har kuni shanbalik qilinadigan bo'lsa, holdan toydiradi-ku.

Va nihoyat, bolalar shunchalik to'yib qolishdiki, hatto qimirlashga ham erinadigan darajaga yetishdi. Quyosh botguncha o'sha joydan qimirlamay, ufqni tomosha qilib o'tirishdi.

– Uchishni o'rganish shunchalik qiyinmikan-a? – dedi Peppi qoyaning uchiga kelib. Qoya juda sirpanchiq bo'lib, yergacha anchagina katta masofa edi. – Albatta, kimdir uchishni o'rganishga muvaffaq bo'lgan bo'lishi kerak. Birato'la parvoz etish mushkul, lekin osonroq mashqlardan boshlasa bo'ladi, menimcha. Hozir o'zim sinab ko'raman.

– Yo'q, Peppi, – yig'lab yubordi aka-singil baravariga. – Peppijon, iltimos, o'tinamiz, unday qila ko'rma...

Afsuski, Peppi allaqachon qoya yoqasida edi.

– «Laylak borardi tog'ga, Quloqlarida halqa. Halqasi tushib ketdi...» – Peppi qo'shig'ini yakunlamasdan qo'llarini qanotday yozdi va o'zini havoga otdi. Bir lahza o'tib, gursullagan ovoz eshitildi. Peppi yerga «qo'ngan» edi. Tommi va Annika yuztuban yotib, pastga xavotirli nazar solishdi.

Peppi o'rnidan turib, tizzalarini qoqdi.

– Qanotlarni silkitish kerakligini unutilibman-ku, – dedi u jilmayib. – Menimcha, qornimda bir dunyo quymoq borligi uchun ham yiqildim shekilli.

Ayni shu damda bolalar janob Nilson g'oyib bo'lganini payqashdi. U o'z-o'zicha atrofni sayr-u sayohat qilishga borgandi. Eslashlaricha, oxirgi marta janob Nilsonni sayohat savatini chaynab turganida ko'rishganida, shundan so'ng Peppining parvozi mojarosi bilan unga e'tibor bermay qo'yish-

gandi. Mana, oqibati – maymuncha yo‘qoldi. Peppining avzoyi buzilgandan buzilib, tufisini pastdagi hovuz tubiga uloqtirdi.

– Hech qayerga maymunvachchalarni ergashtirib yurmang, – dedi u. – Yaxshisi, ularni uyda qoldiring, otingizning burgalarini teri-iib yotadi. Mana shu unga loyiq xizmat o‘zi, – davom etdi u poyabzalini olish uchun hovuzga tusharkan. Suv uning beligacha kelayotgan edi.

– Qarang, shunday vaziyatdan foydalanib, sochimni yuvsam bo‘larkan, – dedi Peppi va boshi bilan suvga sho‘ng‘idi. Uzoq turgach, suvda ko‘pikchalar paydo bo‘la boshladi.

– Voh, mana shu bilan sartaroshga borish xarajati ham tejaldi, – dedi Peppi nihoyat suvdan boshini ko‘targach. U hovuzdan chiqdi va barchalari birgalikda janob Nilsonni qidirishga tushdilar.

– Quloq soling, men yurganimda qanaqa ovozlarni chiqyapti, – dedi Peppi. – Ko‘ylagimdan «klap-klap», oyoq kiyimimdan esa «shalop-shalop» degan ovoz chiqyapti. Kulgili emasmi? Menimcha, sizlar ham buni bir sinab ko‘rishingiz kerak, – dedi u yonginasida yurib borayotgan Annikaga. Annika doimgiday sochlari bir tekis taralgan, pushti ko‘ylak va oppoq oyoq kiyim kiyib olgandi.

– Boshqa safar, – rad etdi Annika.

Ular yo‘lda davom etishdi.

– Janob Nilson sabr kosamni to‘ldirdi, – dedi Peppi. – Nuqul shunaqa qiliq chiqazib yuradi bu maymunzoda. Arabistondaligimizda bir payt qaragam, mendan juftakni rostlab, qandaydir bir qarimsiq beva ayolga yugurdaklikka kirib olibdi. Ayt-

gancha, oxirgi aytgan gapimga ishonib o'tirmang, yolg'on gapirib qo'ydim, – dedi Peppi biroz sukut saqlagach.

– Uchalamiz uch tomonga tarqalib, janob Nilsonni qidirsak-chi? – taklif bildirdi Tommi. Boshida Annika bu fikrga bosh qo'shmay turdi, lekin akasining «nima sen quyonyurakmisan?» degan gapidan g'ururi uyg'ondi.

Shunday qilib, Tommi dala bo'ylab ketdi. Janob Nilsonni topmadi-yu, biroq yo'lida bahaybat buqaga duch keldi! Tommining turqi buqaga yoqmagani tabiiy. Chunki unga yo'liqqan buqa juda badjahl va bolalarni jini suymaydigan buqalardan edi. Jonivor yer shoxlab dahshatli ma'ragancha Tommiga hujumga o'tdi. Bechora bolakayning vahimali qichqirgani butun o'rmonga eshitildi. Tommining ovozi tanib qolgan Peppi va Annika qanday ko'rgilik yuz berganini bilish uchun oyoqlarini qo'llariga olib chopishdi. Ular yetib kelishganda buqa allaqachon to'nkaga qoqilib, oyog'i osmondan bo'lib yotgan Tommiga yaqinlashayozgandi.

– Qanaqangi tentak buqa ekan-a bu? – dedi Peppi o'zini tutolmay yig'layotgan Annikaga. – Bunaqa harakatlar qilishning oqibati yaxshi bo'lmasligini unga uqtirib qo'yish kerak. Yo'qsa, u Tommining oppoqqina matros kiyimini rasvo qilib qo'yadi. O'zim borib bu aqlsiz hayvonning popugini pasaytirib qo'ymasam bo'lmaydiganga o'xshaydi.

Peppi buqaning yoniga yugurib borib, uning dumidan ushlab oldi.

– Xursandchiligingga xalal berganim uchun kechirasan, buqavoy, – dedi u.

Boshida jonivor unga e'tibor qaratmadi. Uzunpaypoq buqaning dumidan o'xshatib bir buragan edi hamki, shoxdor hayvon ortiga qayrilib, u bilan kurashmoqchi bo'lgan yangi «o'lja»ni ko'rdi.

– Yana bir bor xalal berganim uchun uzr so'rayman, buqavoy. Bundan tashqari yana bir marta kechirishga majbursan, chunki yaqin lahzalarda senga yaxshigina ozor berishim turgan gap. Bilasanmi, yoqimtoy buqavoy, bu yil ikki shoxli bo'lish urfdan qolgan, – dedi Peppi va bir harakat bilan buqaning bitta shoxini sindirib oldi. – Barcha aqlli buqalar hozir bitta shoxda yurishadi, ba'zi bir juda aqllilari esa shoxlardan tamomila voz kechib yuborishgan, bilsang. Peppi shunday dedi va buqaning ikkinchi shoxini ham sindirdi.

Buqalarning shoxida hech qanday sezgi a'zolari bo'lmagani sabab, u bechora ham nimalar sodir bo'layotganini payqamadi. U tag'in Peppiga suzib kelaverdi, bordi-yu, Uzunpaypoqning o'rnida boshqa biror bola bo'lganidami, hozir u turgan yerda toptalgan o'tloqdan boshqa hech vaqo qolmagan bo'lardi.

– Hoy, qitiqlashni bas qilsang-chi, – qichqirdi Peppi. – Hoy, bas qil. Qitig'im juda kuchli. Hoziroq bas qilmasang, hiringlayverib o'lib qolaman.

Biroq buqaga gap kor qilmadi, nihoyat, Peppi biroz tin olish uchun uning ustiga sakrab minib oldi. Qani endi shundayam Peppining o'ylagani amalga ohsa. Buqaga qizchaning ustiga mingashib olgani yoqmadi, jonivorning battar jahli chiqdi. Jonivor ustidagi qizni yiqitish uchun hiyla ishlatib ko'rdi, Peppi esa mahkam o'rnashib olgan yeridan qani

osonlikcha jilsa! Buqa bor kuchi bilan ma'rab dalaning u chetidan bu chetiga qadar shunday shiddat bilan yugurdiki, burun kataklaridan tutun chiqa boshladi. Peppi tirjaygancha biroz narida terak bargiday dir-dir qaltirab turgan Tommi va Annikaga qo'l silkib qo'ydi: «Yeh-hu-u!» Buqa sho'rlik tentaksirab aylanaverdi, aylanaverdi, lekin Peppini yiqitib yuborishning iloji bo'lmadi.

– Hey, bolalar, mana bu yoqimtoy do'stim bilan raqs tushishimni tomosha qiling, – dedi Peppi buqaning ustiga mahkam o'rnashib olib.

Axiyri, bechora buqa holdan toyib yerga cho'zildi-yu, boshqa umuman bunaqa bolaga duch kelmasligini xudodan tiladi. Ha, bechora jonivor Peppining bola emas, balo ekanini yetti uxlab tushida ko'ribdimi?

– Buqavoy, biroz mizg'ib olmoqchimisan? – xushmuomalalik bilan so'radi Peppi. – Yaxshi-yaxshi, unda senga xalal bermay turaman.

Peppi buqaning ustidan tushib, Tommi va Annika tomonga yo'l oldi. Tommining yig'lagani ma'lum bo'ldi. Qo'lini kesib olgani uchun Annika dastro'moli bilan akasining qo'lini bog'lab qo'ygan, endilikda hech qanday og'riq sezilmayotgan edi.

– Oh, Peppi, – dedi Annika hayajonga to'lib.

– Tsss! – dedi Peppi. – Buqavoyni uyg'otib yuborma. Uxlayapti. Uyg'otib yuborsak, yana fe'li ayniydi. Biroq oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas buqaning uxlayotganiga ham qaramay, Peppining o'zi bor ovozida baqira ketdi: – Janob Nilson! Janob Nilson! Qayerda qoldingiz? Uyg'a ketadigan vaqtimiz bo'ldi.

Xoh ishoning, xoh ishonmang, janob Nilson shu yerda, qarag'ay ustida dumini chaynagancha ularni kuzatib turgan ekan. Bechora maymuncha juda g'amgin ko'rinardi. Chunki bechora ojiz maymuncha uchun hayhotday o'rmonda bir o'zi yo'qolib qolish oson emas-da. Janob Nilson qarag'ay ustidan sakrab tushib, Peppining yelkasiga o'tirib oldi va har doim kayfiyati chog' bo'lgandagidek poxol shlyapasini silkitib qo'ydi.

– Yaxshiyam bu safar bironta beva ayolnikiga yugurdaklikka ketib qolmabsiz, – dedi Peppi maymunning yelkasini silab. – To'g'ri, bu voqea yolg'on edi. Lekin to'g'ri ekan, nega endi yolg'on bo'lishi kerak? – o'z-o'ziga e'tiroz bildirdi u. – Lekin qarab turing hali, bir kun kelib yolg'on rost bo'lib chiqadi. Janob Nilson biror arabistonlik beva ayolning xizmatkori bo'lib ketsa, ajabmas.

Bolalar uylariga qaytmoqchi bo'lib, yo'lga otlandilar. Peppining ko'ylagi hali ham «klap-klap» qilar, oyoq kiyimidan esa «shalop-shalop» etgan ovoz keldi. Tommi va Annikaning fikricha, buqa voqejasini aytmasa, bugungi kun juda maroqli o'tgandi. Aka-singil quvonganidan maktabda o'rgangan qo'shiqlarini kuylashdi. Rostini aytganda, qo'shiq yoz haqida edi, lekin Tommi va Annikaning fikricha, bu qo'shiq bugungi quyoshli kunga ham mos tushardi.

*«Keling, ahil bo'lamiz
Kuch-g'ayratga to'lamiz,
Birga o'ynab kulamiz.
O-la-la, o-la-la!*

*Qani, do'stlar, shoshiling,
Davramizga qo'shiling!
Ko'p yotib bo'lmang kasal,
Yoz eng foydali fasl.
O'ynayverib to'ymaymiz,
Shodon qo'shiq kuylaymiz:
O-la-la, o-la-la!»*

Peppi esa biroz boshqacha kuyladi:

*Keling, do'stlar, o'ynaymiz
Maktabga hech bormaymiz.
Xoh dumala, xoh yugur
Barcha sho'xlikka ulgur!
Shalop-shalop-shalop
Shalop-shalop-shalop...*

*Buqavoy uxlab qoldi,
Yugurib obdan toldi.
Peppining kiyimlari
Boshdan oyoq ho'l bo'ldi.
Shalop-shalop-shalop
Shalop-shalop-shalop hey!*

*Shalop-shalop-shalop
Shalop-shalop-shalop!*

7. Peppining sirkka borgani

Shaharchaga sirk kelganini eshitgan barcha bolalar ota-onalaridan ruxsat soʻrash yoʻllarini izlay boshladilar. Albatta, Tommi va Annika borgilari kelayotganini aytishdi va ularning mehribon otalari hech ikkilanmay farzandlariga chipta olish uchun yetadigan pul berdi.

Aka-singil otalari bergan pulni mushtlarida qattiq tutganicha Peppinikiga chopishdi. Uzunpaypoq bu paytda ayvonda oti bilan oʻtirar, jonivorning dumini bir nechta kokilga ajratib, ularning har biriga qizil lentalar bogʻlab chiqayotgan edi.

– Agar adashmayotgan boʻlsam, bugun uning tugʻilgan kuni boʻlishi kerak, demak, bugun uni yaxshilab yasantirish lozim, – deya xitob qildi Peppi.

– Quloq sol, Peppi, – dedi Tommi tez yugurganidan nafasi ichiga tiqilib, – biz bilan sirkka borishni xohlaysanmi?

– Sizlar bilan dunyoning narigi chekkasiga ham ketaveraman, – dedi Peppi. – Lekin surk degan joyga boramanmi-yoʻqmi, nomaʼlum. Chunki surk oʻzi qanaqa joy ekanini, oʻlay agar, bilmayman. Ishqilib, u yerda tish sugʻurilmaydimi? Unaqa boʻlsa, ikki dunyoda ham bormayman.

– Eh, jinni, – dedi Tommi, – u yerda tishingni hech kim sugʻurmaydi, qaytanga u yer qiziqarli joy. Otlar, masxarabozlar, dorboz xonimchalar boʻladi...

– Faqat buning uchun pul kerak, – dedi Annika yarim ochiq mushtidagi pullariga qarab qoʻyarkan.

– Qoʻysang-chi, men trollar hukmdoridan ham badavlatman! – maqtanib qoʻydi Peppi. – Menim-

cha, butun boshli surkni sotib olsam ham boyligim kamayib qolmaydi. Muammo shundaki, bir dunyo otni qayerga sig'diraman? Masxarabozlar va ofatijon xonimchalarni oshxonada saqlasam ham bo'lar, lekin otlarni qayerga joylashtirish masalasi anchagina boshog'riq bo'ladigan ko'rinadi.

— O'zingni jinnilikka solmasang-chi, Peppi, — e'tiroz bildirdi Tommi. — Sirkni sotib olishing shart emas. Shunchaki u yerga kirish va tomoshalarni ko'rish uchun pul kerak, xolos.

— O'zi shu yetmay turgandi, — ko'zlarini chirt yumib qichqirdi Peppi. — Hatto ko'rishga ham pulmi? Men bo'lsam kuni bo'yi esankirab yuribman har yerga qarayverib. Xudo biladi necha pullik ko'ribman bugun.

Birozdan so'ng Peppi ko'zlarini asta-sekinlik bilan ocha boshladi. Avval bir ko'zini ehtiyotkorlik bilan yarim ochdi, atrofni birma-bir kuzatib chiqdi-da, tag'in baqirib yubordi:

— Jin ursin, qancha pul bo'lsa ham mayli. Men ko'rmasdan turolmayman.

Va nihoyat, bir necha takroriy urinishlardan so'ng Tommi va Annika Peppiga sirk aslida qanday joy ekanligini tushuntirishga muvaffaq bo'lishdi. Peppi ham jomadonidan bitta tilla tanga olib, ular bilan sirkka boradigan bo'ldi. Ketishdan oldin qahramonimiz tegirmonday keladigan shlyapasini boshiga kiyib oldi. Shundan so'ng uchovlon yo'lga tushishdi.

Sirk chodiri tashqarisida olamjahon odam yig'ilgan bo'lib, chiptaxona derazasi yonida odamlar

saf-saf bo'lib navbatda turishardi. Kuta-kuta axiyr-i Peppining ham navbati keldi. U shartta borib derazadan boshini suqdi-da, chipta sotib o'tirgan kampirga uzoq vaqt termilib, dedi:

– Xonim, sizga termilib turishim qancha bo'ladi?

Afsuski, kampir boshqa yurtdan kelgani sababli Peppining gapiga tushunmadi. U qizaloqqa qiynalib-qiynalib gapirdi:

– Kadirli kizalok, asosiy urindiklarga utirish yuz yigirma besh sent, umumiy utirish joyi yetmush besh sent, tik turib tamasha kilish uchun yigirma besh sent.

Peppi kampirga uchta yigirma besh sentlik chip-ta berishini amallab tushuntirdi va yoniga bitta til-la tangani tashladi. Kampir tillani ko'rib, Peppiga shubhali nazar soldi. Hatto sof oltinmi yoki qalbaki ekanligini tekshirib ko'rish uchun bir chetiga tishi-ni botirib ham ko'rdi. Oqibatda sof oltin ekaniga ishonchi komil bo'lgach, Peppiga bir dunyo kumush chaqalarda qaytim berdi.

– Buncha ko'p rangsiz tangalarni boshimga uramanmi? – dedi Peppi jirkanib. – Yaxshisi, ular-ni ham o'zingizga olib qo'ying, evaziga sizga ikki hissa ko'proq termilib o'tiraman.

Peppi qaytimni olishdan bosh tortganidan so'ng kampir uning chiptalarini uchta bir yuz yigirma besh sentlik chiptaga almashtirib berdi. Peppi-ning sharofati bilan Tommi va Annika bir chaqa ham sarflamasdan sirkni o'tirib tomosha qiladigan bo'lishdi. Peppi, Tommi va Annika – uchovlon ich-kariga kirib, sahna yaqinidagi alvon o'rindiqlar-

ni band qilishdi. Tommi va Annika ulardan ancha uzoqda turgan maktabdoshlariga maqtangandek qo'l silkib qo'yish uchun bir necha marotaba ortlariga qayrilishga majbur bo'lishdi.

– O, bunchalar g'aroyib chodir bo'lmasa bu!
– xitob qildi Peppi hayrat ichra atrofga boqib. – Qaranglar, qaysidir qovoqkalla shunday joyga qiqiq sepib, rasvo qilibdi! To'g'ri, o'zim ham juda sarishtali emasman, lekin bu yerni unaqa iflos qilish kerak emasdi-da.

Tommi unga barcha sirklarda otlar bemalol aylana solib chopishlari va sakrashlari uchun yerga qiqiq sepishlarini tushuntirdi. Yaqin oradagi minbarda sirk musiqachilari joylashgan edi, ular birvarakayiga quloqni qomatga keltiradigan marsh chalishdi. Peppi quvonganidan chapak chalib, yovvoyilarcha sakrar edi.

– Bu yerda musiqa uchun ham pul to'lanadimi?
– so'radi u. – Yoki tekinga eshitsa ham bo'ladimi?

Ayni shu lahzada artistlar yo'lakchasini to'sib turgan parda tantanali ko'tarilib, u yerdan uzun qora ko'ylak kiygan, bir qo'lida qamchi tutib olgan sirk boshlig'i ortidan peshonasiga qizil jig'a solingan o'nta oppoq otni ergashtirganicha chiqib keldi. Sirk boshlig'i qo'lidagi qamchini bir silkitgan edi hamki, otlar davrani gir aylanib pishqirganicha yugurishdi. U qamchisini yana bir karra silkitganida barcha otlar baravariga old oyoqlarini sahnaning aylana to'sig'iga qo'yib tek turishdi. Otlardan biri kelib aynan bolalarning to'g'risida to'xtadi. Annikaga otning bu qadar yaqin kelishi yoqmasdi, shuning uchun u ijirg'anganicha o'rindig'ini orqaga sur-

di. Peppi esa aksincha oldga tisarilib, tulporning o'ng oyog'ini kaftlari orasiga oldi.

– Salom, og'ayni, – dedi u. – Mening otim sen-ga salom aytib yubordi. Bugun uning ham tug'ilgan kuni, lekin uning po'paklari dumida, seniki kabi boshida emas.

Yaxshiyamki Peppi otning tuyog'ini sirk boshlig'i qamchisini takroran silkitishidan oldin qo'yib yubordi. Chunki boshliq buyruq berishi bilan barcha otlar to'siq yonidan ortga sakrab, yana davrani gir aylanib chopa boshlashdi.

Ko'rinish tugaganidan so'ng sirk boshlig'i ehtirom bilan ta'zim qildi va otlar sahnani tark etishdi. Zum o'tmasdan parda yana bir bor ochilib, uning ortidan qop-qora baytal chiqib keldi. Baytalning ustida yam-yashil ipak lozim kiygan maftunkor xonim turardi.

– Kutib oling – latofatli Karmensita xonim, – deb e'lon qilishdi uni.

Qora baytal qipiq to'shalgan aylanada u yoqdan bu yoqqa yo'rg'aladi, Karmensita xonim esa otning ustida qat'iyat bilan turar va barcha tomoshabinlarga qarab tabassum qilardi. Biroq to'satdan baytal Peppining o'rindig'i yonidan o'tarkan, kutilmagan hodisa yuz berdi. Havoda nimadir uchib o'tganday tuyuldi. O'sha nimadir o'zimizning Peppi bo'lib chiqdi. U bir sakrab baytalning orqasiga mingashib olgan edi. Avvalboshda Karmensita xonim orqasiga mingashib olgan sharpadan o'takasi yorilganidan otdan yiqilib ketishiga oz qoldi. Keyin esa xonimning tepa sochi tikka bo'lib, ketidagi qizchani otdan yiqitish uchun qo'li bilan turta boshladi. Hali Kar-

mensita xonim Peppiga bular aslo kor qilmasligini bilmasdi-da.

– Hoy-hoy, o‘zingni bossang-chi, – derdi Peppi. – Men ham ozroq minsam, biror yeri kamayib qolarmidi? Nima, yoki ot choptirish faqat menga mumkin, deb o‘ylaysanmi? Kechirib qo‘yibsan, xonimcha, biz ham pulini to‘lab kirganmiz.

Jig‘ibiyroni chiqqan Karmensita xonim ortidagi qizchadan qutulolmasligini bilib, o‘zi otdan sakrab tushmoqchi bo‘ldi; baxtiga bu ham ish bermadi chunki Peppi uning belidan mahkam ushlab olgandi. Uning bu qilig‘idan odamlar o‘zlarini xaxolashdan tiya olishmadi. Tomoshabinlar nazdidan Karmensita xonim va uning ortidan yopishib olgan, umrida sirkdan boshqa yerga chiqmaganga o‘xshaydigan, bahaybat boshmoq kiyib olgan qizilsoch bezori qizchanning tomoshasini ko‘rishdan ham maroqli sahna yo‘q edi go‘yo.

Birgina sirk boshlig‘i kulmadi. U qizil korjomadagi qo‘riqchiga o‘girildi-da, tezda borib maynavozchilikka chek qo‘yish ishorasini berdi.

– Nima, tomosha darrov tugadimi? – norozi ohangda dedi Peppi. – Esizgina, endi avji kelayotgandi-da...

– Jirkanch churvaqa! – tishlari orasidan gapirdi boshliq. – Yo‘qoting uni bu yerdan!

Peppi unga shumshayib qaradi.

– Nega menga bunaqa jahl qilasiz? – so‘radi u. – Nima qipti? Men bu yerga vaqtichog‘lik qilish uchun kiriladi, deb o‘ylagandim.

Uzunpaypoq ot ustidan sakrab tushib, o‘z o‘rniga qaytib o‘tirdi. U o‘tirishi bilan ikki barzangi

qizchani tashqariga uloqtirmoqchi bo'lib kelishdi. Ikkalovi Peppining ikki yonidan tutib, uni o'rnidan qo'zg'atishga chiranishdi. Qani endi foydasi bo'lsa. Qanchalik kuch ishlatishmasin, qanchalik urinishmasin, Peppini o'rnidan qimirlatishning ham iloji bo'lmadi. Axiyri, ular yelkalarini qisgancha izlariga qaytib ketishdi.

Ayni shu paytda keyingi tomosha boshlandi. Davra markaziga Elvira xonimni chorlashdi. Elvira xonim dor ustida yurib, tomosha ko'rsatar emish. Bu xonim pushti yubka kiyib olgan, qo'lida pushti soyabon tutgan edi. U nazokatli qadamlar bilan dor ustida yura boshladi. Elvira nafis harakatlar qilib, oyoqlarini silkitar, barcha turdagi fokuslarni birma-bir bajarib chiqardi. Uning harakatlari bir-biridan jozibador edi. Hattoki ingichka dor ustida qanday qilib ortga yura olishini ham ko'rsatdi. Biroq Elvira dor boshiga borsa, u yerda Peppi turardi!

– Xo'sh, endi yana qanaqa qiliq ko'rsatmoqchisan? – dedi Peppi Elvira xonimning hayratga tushganini ko'rib.

Dorboz xonim lom-mim demasdan o'zini pastga otdi-yu, borib sirk boshlig'ining gardaniga qo'llarini tashladi, chunki sirk boshlig'i uning otasi edi-da. Boshliq esa xunobi oshgandan oshib, Peppini tashqariga uloqtirish vazifasi bilan barzangilarni yana bir marta jo'natdi. Bu gal ikkita emas, naq beshta qo'riqchini yubordi.

– Unga tegmang! – deb baqirardi olomon. – Biz qizilsoch qizchani tomoshalarini ko'rishni xohlaymiz!

Odamlar dam yerni tepkilashar, dam qo'llari og'rigancha gumburlatib qarsak chalishardi.

Peppi dorda yugurib o'yin ko'rsata boshladi. Peppinikiga taqqoslaganda, Elvira xonim ko'rsatgan tomoshalar hech vaqoga arzimmasdi. Arqonning qoq o'rtasiga yetib borganda Uzunpaypoq bir oyog'ini yuqoriga ko'tardi. Uning bir poy boshmog'i boshi ustida xuddi tomga o'xshab turardi. U oyog'ini toqulog'ining ortini qashlaydigan darajaga yetguncha qayirdi.

Peppining sirkdagi tomoshaning beliga tepayotgani boshliqning g'ashiga tegayotgan edi. U nima qilib bo'lsa ham Uzunpaypoqdan qutulishni o'ylar, shuning uchun ham Peppining yiqilib tushishini ko'zlab, dor arqonini mahkam tutib turadigan murvatni bo'shatib qo'ydi.

Biroq bu ham Peppiga kor qilmadi: dor arqoni osilib qolganida ham u xuddi halinchak uchgan-day bir u yonga, bir bu yonga uchaverdi. Peppi tobora tezlashib uchaverdi, uchaverdi va oxiri havoga ko'tarildi-yu, to'g'ri borib sirk boshlig'ining yelkasi-ga tushdi. Bechora boshliq o'takasi yorilganidan to'rt tomonga alang-jalang yugura boshladi.

– O, sendan bunaqangi g'aroyib ot chiqishini bilmagandim! – dedi Peppi. – Qiziq, nega unda sening boshingda qizil po'paklaring yo'q?

Endilikda Peppi Tommi va Annikaning yoniga qaytadigan vaqt bo'lganini tushunib yetdi. Boshliqning yoniga bir sakrab tushdi-yu, joyiga qaytib o'tirdi. Keyingi ko'rinish boshlanishiga ozgina qolgandi, lekin undan oldin boshliq tashqariga chiqib,

suv ichib olishi va sochlarini tartibga keltirishi uchun biroz to'xtalish yuz berdi. Va mana, u qaytib sahnaga chiqdi. Olomonga ta'zim qilib, dedi:

– Xonimlar va janoblar, yaqin lahzalarda siz insoniyat tarixidagi eng buyuk mo'jizani, hali hech kim kuragi yerga tekkiza olmagan dunyodagi eng kuchli odam Quдрatli Adolfni ko'rish baxtiga musharraf bo'lasiz. Demak, xonimlar va janoblar, ijozatingiz bilan sahnada – Quдрatli Ado-o-olf!

Bir zamon davraga devday bahaybat odam kirib keldi. U yorqin rangli ishton kiyib olgan, egniga esa qoplon terisini yopingan edi. Adolf olomonga ehtiromlar ko'rsatib, ta'zim qildi va xuddi o'ziga ortiqcha bino qo'yganday bepisand jilmayib qo'ydi.

– Uning mushaklariga bir qaranga, – dedi sirk boshlig'i xuddi teri ostiga koptok tiqqanday mushaklari bo'rtib chiqqan qo'llarini ko'z-ko'z etarkan. – Endi esa, xonimlar va janoblar, diqqatingizni qarating. Kaminadan sizlarga maxsus taklif bor! Kim Quдрatli Adolf bilan kurashda kuch sinashib ko'rishni istaydi? Qay biringiz dunyodagi eng kuchli odamga qarshi o'z kuchingizni sinovdan o'tkazib ko'rasiz? Kimda-kim, Quдрatli Adolfni yengolsa, yuz dollar mukofot puli oladi. Yuz dollar, xonimlar va janoblar, roppa-rosa yuz dollar! Yaxshilab o'ylang. Xo'sh, kim birinchi?

Hech kim oldinga chiqmadi.

– U nima deb vaysayapti? – so'radi Peppi.

– Aytishicha, kimda-kim, manovi buqani yer tishlatsa, yuz dollar mukofot olarmish, – tushuntirdi unga Tommi.

– Men-da o‘sha! – dedi Peppi o‘ylab ham o‘tir-
masdan. – Lekin yaxshi ish qilmagan bo‘laman-da,
bechora o‘zi ko‘rinishidan yomon bolaga o‘xsha-
mayapti.

– Yo‘q-yo‘q, Peppi, bu sening qo‘lingdan kelmay-
di, – e‘tiroz bildirdi Annika. – U dunyodagi eng
kuchli odam ekan.

– Ha, u eng kuchli odam, – tasdiqladi Peppi. –
Lekin shuni yodingda saqlaki, men dunyodagi eng
kuchli qizman!

Bu paytda Qudratli Adolf naqadar kuchli ekanini
hammaga ko‘rsatib qo‘yish uchun zilday og‘ir temir
buyumlarni ko‘tarar, yupqaroq temir qarmoqlarni
qoq o‘rtasidan qayirar edi.

– Xonimlar va janoblar! Qani, bo‘la qoling, –
so‘zamollik qilardi boshliq. – Nahotki, yuz dollar-
ning egasi bo‘lishni istaydigan birortayam tirik jon
topilmasa? Yoki shuncha pulni o‘zimda olib qo-
lishga tadorik ko‘raveraymi? – shunday degancha
yuz dollarlik chekni havoda namoyishkorona silkit-
di u.

– Shoshmay tur, pulni o‘z cho‘ntagingga urishga
hali vaqt bor, – dedi Peppi panjaradan o‘tib, aylana
ichiga kirarkan.

– Yo‘qol bu yerdan, tasqara! – boshliq uni ko‘rib,
tutaqib ketdi. – Ortiq sening qorangni ham ko‘rmay,
tuyog‘ingni shiqillat tez!

– Nega doim menga xuddi dushmaning-
day muomala qilyapsan? – so‘radi Peppi norozi
ohangda. – Qudratli Adolf bilan kuch sinashmoq-
chiman, axir...

– Hozir hazillashib o‘tiradigan vaqt emas! – baqirib berdi boshliq. – Surbetligingni Qudratli Adolfning o‘zi payqamasidan tezda daf bo‘l!

Peppi uning gaplariga quloq ham solib o‘tirmadi, uning yonidan o‘tib ketdi-yu, Qudratli Adolfning oldiga bordi. Adolfning qo‘lidan tutib, do‘stona siqib qo‘ydi.

– Hoy, Adolf, bir kuch sinashib ko‘rmaymizmi-a, nima deysan? – deb so‘radi u.

Qudratli Adolf unga uzoq tikildi, ammo qizning birona so‘ziga ham tushunmadi.

– Bir daqiqada men jangni boshlayman, – dedi Peppi.

Peppi o‘zi ogohlantirganiday bir daqiqadan so‘ng jangni boshladi: Adolfning belidan mahkam tutdi-da, hali olomon nima bo‘layotganini anglab yetmasidan turib bahaybat pahlavonni dast ko‘tarib, yerga urdi. Adolf esankirab, yuzlari uyatdan qip-qizarib, qaddini rosladi.

– Yashavor, Uzunpaypoq! – baravariga qichqirishdi Tommi va Annika. Aka-singillarning baqirganini eshitgan olomon ham ularga qo‘shilib Pepini olqishlay ketishdi.

– Yashavor, Uzunpaypoq! Yashavor, Uzunpaypoq!

Sirk boshlig‘i alamidani labini tishlagan ham tomoshagoh atrofidagi to‘siq ustida o‘tirardi. Jang yakuni undan ham ko‘ra Qudratli Adolfga juda alam qilayotgan edi. Umri bino bo‘lib bunday qaqshatqich sharmandalikka duch kelmagan edi. G‘azabi qaynab-toshganidan haligi qizilsoch qizchaga

Qudratli Adolf deganlari o'zining aslida qanday kuchga ega ekanini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi. U yugurib borib Peppining belidan mahkam ushladi, lekin Peppi tosh qotganday miq etmasdan turaverdi.

– Yanada yaxshi tirish, qani, bo'lsang-chi, kuching yetadi! – uni ruhlantirgan bo'ldi Peppi.

O'zi esa chaqqonlik bilan uning iskanjasidan chiqdi-yu, ko'z yumib ochguncha Qudratli Adolf yana bir karra yer tishladi. Peppi bu gal uning yonginasidan jilmasdan kutib turdi. Xayriyatki, ko'p kutishga majbur bo'lmadi. Qudratli Adolf tag'in o'kirib o'rnidan turdi va Uzunpaypoq tomonga hamla qildi.

– Umpalaqiton-dumpalaqiton! – dedi Peppi quvonib.

Chodir ichidagi barcha tomoshabinlar bir qarasang, yerni gursullatib uni olqishlashar, bir qarasang, shlyapalarini yuqoriga otib qichqirishardi: «Yashavor, Peppi!»

Qudratli Adolf u tomonga uchinchi bor hamla qilganida Peppi uni dast ko'tarib oldi va Adolfni boshi uzra ko'targancha davrani bir aylantirgach, tag'in yerga uloqtirdi.

– Quloq sol endi, bolakay, – dedi unga Peppi, – menimcha, boshqa sen bilan o'ynashib o'tirishning hojati yo'q. O'zi sen bilan o'ynayverib, zerikib ham ketdim.

– Peppi g'olib! Peppi g'olib bo'ldi! – qiy-chuv soldi yana tomoshabinlar.

Qudratli Adolf yashin tezligida davrani tark etdi. Sirk boshlig'i davraga tushib, Peppining qo'li-

ga va'da qilingan yuz dollarni tutqazishga majbur bo'ldi.

– Marhamat, kichkina xonim! Marhamat, bu sizning haqqingiz – yuz dollar!

– Men bu qog'ozingizni boshimga uramanmi? Iltasangiz, bu pulni o'zingizda qoldirishingiz mumkin, – dedi u borib joyiga o'tirarkan.

Peppi chuqur nafas oldi-da:

– Bu surk judayam zerikarli ekan, – dedi Tommi va Annikaga. – Biroz mizg'ib olmasam bo'lmaydi. Ha, aytib qo'yay, agar mendan ularga biror bir yordam zarur bo'lib qolsa, bemalol uyg'otaveringlar.

Shunday qilib, Peppi o'rindi q suyanchig'iga boshini qo'ydi-da, zumda ko'zi ilindi. Barcha masxarabozlar, qilich yutuvchilar, ilon o'ynatuvchilar sahnaga chiqib, Tommi, Annika va barcha yig'ilganlarga tomoshalar ko'rsatayotgan paytda u xurak otib uxlar edi.

– Baribir, eng yaxshi tomosha Peppining chiqishi bo'ldi, – dedi Tommi singlisiga mamnun jilmayib.

8. Peppining qanday qilib o'g'rilarning adabini bergani

Sirkdagi tomoshasidan so'ng butun shaharchada Peppining naqadar kuchli ekani haqidagi ovoza tarqaldi. Hatto u haqda gazetada ham kichikroq maqola yozishdi. Ammo shubhasizki, boshqa yerlarda yashaydiganlar Peppining kimligi, aniqrog'i, uning qandayligini bilmasdilar.

Qorong'i kuz oqshomlarining birida ikki daydi «Tovuq» villasi joylashgan ko'chadan o'tadigan bo'lishdi. Bu ikkovi uchiga chiqqan o'g'rilar bo'lib, shaharchada sang'ib nima o'g'irlashni ko'zlab yurishgandi. «Tovuq» villasining chiroqlari yoniq ekanini ko'rgach, o'sha yerga borib, bir burda non so'rashni reja qilishdi.

Ayni o'sha kecha Peppi barcha oltinlarini osh-xona poliga sochib, ularni sanash bilan ovora edi. Rostini aytganda, u to'g'ri sanashni eplay olmasdi, ammo bilsa-bilmasa, boyligini sarishtalab qo'yish uchun har doim sanab yotardi.

– ... oltmish besh, oltmish olti, oltmish yetti, oltmish sakkiz, oltmish to'qqiz, oltmish o'n, oltmish o'n bir, oltmish o'n ikki, oltmish o'n uch, oltmish o'n olti... uh, tomoqlarim oltmish deyaverib qaqshab ketdi. Yaxshiyamki, arifmetikada bundan boshqa sonlar ham bor. E, ha, bo'ldi, esladim: bir yuz to'rt, bir ming. Mana buni katta pul desa bo'ladi, – dedi o'ziga o'zi Peppi.

Shu payt eshik taqillagani eshitildi.

– Xohlasangiz, kiring, xohlasangiz, tashqarida qoling, o'zingiz bilasiz, – baqirdi Peppi. – Haligacha hech kimni o'z ixtiyoriga qarshi majburlamaganman.

Eshik ochilib, haligi ikki daydi kirdi. Jajjigina qizilsoch qizchaning polda yolg'iz o'zi pul sanab o'tirganini ko'rib, hayratdan ko'zlari qanchalik katta ochilganini tasavvur qilavering.

– Uyda yolg'iz o'zingmisan, qizaloq? – so'rashdi ular mug'ambirlik qilib.

– Yo‘q, bir o‘zim emasman, – dedi Peppi. – Janob Nilson ham uyda.

Bu o‘g‘rilar janob Nilson degani qo‘g‘irchoqlar choyshabini yopingancha burchakdagi yashil savatchada yotgan maymun ekanini qayerdan ham bilishsin?! Ular ushbu xonadon egasining ismi janob Nilson bo‘lsa kerak deb ‘ylab, bir-birlariga yutinib qarab qo‘yishdi. «Keyinroq kelsak ham bo‘laveradi», degan xayol kechdi ikkovlarida ham. Ammo Peppiga yuzlanib:

– Biz shunchaki soatni bilish uchun kelgandik, – deyishdi yolg‘ondan. Ular tillalarni ko‘rib, haya-jonlanganlaridan hatto bir burda non so‘rashni ham unutib qo‘yishdi.

– Eh, kap-katta, kuchli amakilar-ey, nahotki soatni bilmasangiz? – dedi Peppi. – Qaysi dunyoda tug‘ilib o‘sgansizlar-a? Soat degani bu kichkina va dumaloq bir mo‘jizaviy narsa. Qachon qarama «chiq-chiq», «chiq-chiq», deb yuradi, lekin hech o‘zi tashqariga chiqib ketmaydi. Mana shu topishmoqning javobi soat bo‘ladi. Xo‘sh, yana biror topishmoq bilasizlarmi? Bilsangiz, aytishingiz mumkin.

Daydilar Peppi hali vaqtni ayta oladigan darajada katta emasligini tushunib, lom-mim demasdan tashqariga chiqishdi.

– Hoy, sizlar meni noto‘g‘ri tushundingiz shekilli. «Chiq-chiq» deb sizlarga aytganim yo‘q-ku! – ularning ortidan baqirdi Peppi.

O‘g‘rilar ko‘chaga yugurib chiqib, quvonganlaridan qo‘llarini ishqalay boshlashdi.

– Umringda shuncha ko‘p pulni ko‘rganmiding?
– dedi biri ikkinchisiga.

– Asti qo‘yaver, o‘ziyam bir asrda bir marta ke-
ladigan omadga yo‘liqdik shekilli. Eng birinchi qi-
ladigan ishimiz bor-yo‘g‘i haligi go‘dak va u aytgan
janob Nilson uxlashini kutish, xolos. Keyin biz ich-
kariga pisib kirib, barcha mol-dunyoni o‘maramiz-
da, juftakni rostlaymiz, og‘aynichalish.

O‘g‘rilar bog‘dagi eman daraxti ostida kutib o‘ti-
rish uchun to‘xtashdi. Yomg‘ir mayda-mayda shiva-
lab yog‘ayotgan edi, boz ustiga daydilarning qorni
och bo‘lib, biroz noqulay vaziyatda qolishgandi.
Biroq bir dunyo boylikka ega chiqish orzusi ularni
ruhlantirib turardi.

Vaqt o‘tgan sayin barcha uylardagi chiroqlar bir-
ma-bir so‘na boshladi, «Tovuq» villasida esa chiroq-
lar hamon yoniq turardi. Buning sababi shundaki,
Peppi shotlandcha raqs tushishni o‘rganmoqchi
bo‘lib, to raqs harakatlari o‘xshamaguncha uxla-
maslikka qaror qilgandi. Axiyri, «Tovuq» villasi-
ning chiroqlari ham o‘chirildi.

Ikki daydi janob Nilson va boyagi go‘dak chindan
ham qattiq pinakka ketganiga ishonch hosil qilgun-
laricha oradan yana biroz vaqt o‘tdi. Va nihoyat,
ular oshxona eshigigacha ohista emaklab borish-
di va qulfbuzar asboblari bilan eshikni buzishga
tayyorgarlik ko‘rishdi. Shu paytda ulardan biri –
uning ismi Blum edi – eshik tutqichini paypaslab
topdi. Eshik qulflanmagan edi.

– Ana, ko‘rdingmi, – pichirladi u sherigiga, –
ba‘zi odamlar juda aqlli bo‘lishadi, qara, eshikni
ochiq qoldirishibdi.

– Og‘irimiz yengil bo‘libdi-da, – dedi sherigi. Bu qora soch odamni taniganlar Chaqmoq Karlson deb atardilar. Chaqmoq Karlson cho‘ntak fonarini yoqdi va ular oshxonaga emaklab kirishdi. Oshxona kimsasiz huvullab yotardi. Keyingi xonada Peppining karavoti, uning yonida esa janob Nilsonning jajjigina o‘yinchoq karavoti turardi.

Chaqmoq Karlson eshikni ochib, xona ichini diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Cho‘ntak fonarini u burchakdan bu burchakka yugurtirib ko‘rar ekan, hammayoq suv quyganday jimjit edi. Fonar nuri Peppining yotog‘iga yetganida o‘g‘rilar hayratdan yoqa ushlashdi, chunki yostiq ustida bir juft oyoqcha barmoqlarini likillatayotgandi. Uzunpaypoq doimgiday boshini poygakka qo‘yib, oyoqlarini yostiq ustiga chiqazib uxlardi.

– Bu haligi qizcha bo‘lsa kerak, – shivirladi Chaqmoq Karlson Blumga. – Shubhasiz, u hozir ayni shavq uyquda. Lekin qurib ketkur Nilson degani qay go‘rda qoldi ekan-a?

– Ma‘zur tutasiz, Nilson emas, janob Nilson, – ko‘rpa ostidan Peppining ovozi eshitildi. – Men uni har doim «janob» deb ataganman. Ana o‘zi, kichkina yashil o‘yinchoq karavotda yotibdi.

O‘g‘rilar cho‘chib ketganidan birvarakayiga o‘zlarini tashqariga urishdi, biroq ayni pallada Peppining gaplari ularga ta‘sir qilmay qolmadi. Nima dedi o‘zi bu qizcha, janob Nilson o‘yinchoq karavotda yotibdi, deydimi? Fonar nurini yo‘naltirib qarashsa, chindan ham xonada kichkina o‘yinchoq karavot bo‘lib, unda jajji maymun uxlab yotardi.

– Blum! – Chaqmoq Karlson o'zini kulgidan to'xtata olmadi. – Janob Nilson bor-yo'g'i bir maymun ekan-ku! Uni gumdon qilishga kuching yetadimi o'zi?

– Siz nima deb o'ylagandingiz? – tag'in Peppining ko'rpa ostidan ovozi eshitildi. – Go'sht qiy-malagichni janob deb chaqirmasam kerak men ham.

– Otang yoki onang uyda emasmi? – so'radi Blum.

– Yo'q. Ular ketishgan. Qaytib kelmaydigan bo'lib ketishgan, – javob berdi Peppi bosiqlik bilan.

Blum va Chaqmoq Karlsonning xursandchilik-dan yuzlariga nim tabassum yugurdi.

– Quloq sol, qizaloq, – dedi Chaqmoq Karlson, – ko'rpa ostidan chiqa qol, sen bilan ozroq gaplashib olardik.

– Aslo yo'q! Ko'rmayapsizmi, uxlayapman-ku! Agar yana topishmoq aytishimni xohlasangiz, avval mana shunga javob bering: «Chiq-chiq deydi, lekin o'zi hech qayerga chiqmaydi?»

Shunda Blum borib Peppining ustidan ko'rpasini tortib oldi.

– Sen shotlandcha raqs tusha olasanmi? – so'radi u Blumga jiddiy ko'z qirini tashlab. – Men tusha olaman.

– Sen juda sersavol qizcha ekansan, – dedi Chaqmoq Karlson. – Endi biz ham u-bu narsani so'rasak. Masalan, biroz oldin polda yotgan pullar-ni qayerga qo'ygansan?

– Javon tepasidagi jomadonda turibdi, – bamay-lixotir javob berdi Peppi.

Chaqmoq Karlson va Blum bir-biriga qarab tir-jayishdi.

– Umid qilamanki, biz ularni oladigan bo‘lsak, aqlli qiz bo‘lib bizga qarshilik ko‘rsatmasang kerak, – dedi Chaqmoq Karlson.

– Ha, bemalol, xohlaganingizni qilavering.

Blum javon ustidan jomadonni pastga tushirgan ham ediki, Peppi o‘rnidan turib, Blumning yonida paydo bo‘ldi.

– Umid qilamanki, endi uni o‘rniga qaytarib qo‘ymoqchi bo‘lsam, aqlli bolakay bo‘lib menga qarshilik ko‘rsatmasang kerak, – dedi qizcha unga.

Blum nima bo‘lganini anglashga ham ulgurmedi, to‘satdan jomadon Peppining qo‘lida paydo bo‘ldi.

– Hozir o‘ynashib o‘tiradigan vaqt emas! – o‘shqirdi Chaqmoq Karlson. – Jomadonni cho‘z bu yoqqa!

Chaqmoq Karlson qizning qo‘liga bor kuchi bilan yopishib, o‘ljani qaytarib olmoqchi bo‘ldi.

– Menga esa sen bilan o‘ynash yoqyapti, – dedi Peppi va Chaqmoq Karlsonni bir ko‘tarib, javon ustiga o‘tirg‘izib qo‘ydi.

Bir daqiqa o‘tib ulgurmasdan Blumni ham sherigining yoniga o‘tqizib qo‘ydi. Daydilar qo‘rquvdan dag‘-dag‘ qaltirab, qarshilarida turgan go‘dakning oddiy qiz emasligini tushunib yetishdi. Shunda ham jomadon ularni o‘ziga jalb etaverib, qo‘rquv ham yoddan ko‘tarildi.

– Qani ketdik, birgalikda hujum qilamiz, – baqirdi Chaqmoq Karlson va ikki daydi baravariga javon ustidan sakrab tushib, jomadonni qo‘lida ushlab turgan Peppiga hamla qilishdi.

Peppi ularni barmoqlari bilan bir chertib yubor-gandi hamki, ikki barzangi to'g'ri burchakka borib cho'zilishdi. Daydilar tag'in turishga imkon top-masdan avval Uzunpaypoq yashin tezligida ular-ning qo'l-oyoqlarini bog'lab tashladi. Ana endi o'g'rilarning gapirish ohangi ham o'zgarib qoldi.

– Iltimos, xonim, iltimos, – yalinqardi Chaqmoq Karlson, – kechiring bizni, o'tinaman. Biz shun-chaki hazillashmoqchi edik. Biz bor-yo'g'i bir burda non tilanib kelgan daydilarmiz.

Blum esa hatto ozroq yig'lab ham yubordi. Peppi jomadonni sarishtalik bilan yana o'z joyiga, javon tepasiga qo'ydi va «mehmon»lariga yuzlandi:

– Birortangiz shotlandcha raqs tusha olasizmi?

– Iye, bo'lmasam-chi, – dedi Chaqmoq Karlson, – ikkalamiz ham bilamiz.

– Ur-ra, naqadar yaxshi! – qarsak chalib yubor-di Peppi. – Unda biroz raqsga tushmaymizmi? Men ham endigina o'rgandim.

– Bajonidil, – dedi Chaqmoq Karlson hatto ik-kilanmasdan.

Peppi katta qaychi olib, mehmonlar bog'lab tash-langani arqonni qirqdi.

– Lekin bizga musiqa yetishmayapti, – dedi Pep-pi xavotirlanib. Darhol uning miyasiga ajoyib fikr keldi: – Taroqni puflab chala olasanmi? – so'radi u Blumdan. – Karlson esa men bilan raqs tushadi.

Blum taroqda musiqa chalishni qoyillatardi. U musiqa chalganida butun uyni ajoyib musiqa oha-ngi tutdi. Janob Nilson ham Peppi va Chaqmoq Karlsonning aylanib-aylanib raqs tushishlarini

ko'rish uchun ayni vaqtda uyg'ondi. Peppi shunaqa ishtiyoq bilan raqs tushardiki, xuddi hayoti shotlandcha raqsga aylanib qolganday edi, go'yo.

Va nihoyat, taroqni puflayverib-puflayverib lablari ko'karib ketgan Blum ham holdan toydi. Kun bo'yi yo'lda sang'ib yurgan Chaqmoq Karlsonning boshqa o'ynashga majoli qolmadi.

– Iltimos, yana ozroq o'ynaylik, – yalindi ularga Peppi.

Chaqmoq Karlson ham, Blum ham qo'lidan hech narsa kelmay, itoatkorona davom etishdi. Soat sahari uchga bong urganida Peppi ularga so'z qotdi:

– Menga qolsa, payshanba kunigacha ham to'xtamay raqs tushaveraman, lekin charchagan va qorningiz och qolgan bo'lishi mumkin.

Daydilar allaqachon charchab bo'lishgan, qorinlari ham piyozning po'sti bo'lib ketgandi. Lekin hech birlari ichidagini Peppiga aytgani yuragi betlamay turishgandi. Peppi omborxonaga tushib, u yerdan non, pishloq, saryog', yaxna go'sht va sut olib chiqdi. Uchovlon – Chaqmoq Karlson, Blum va Uzunpaypoq Peppi stol atrofida yig'ilib, to bo'kkunlaricha ovqatlanishdi. Peppi ozroq sutni qulog'iga quydi.

– Quloq og'rig'iga foydasi bor, – deb qo'ydi u.

– Voy bechora, qulog'ing og'riydimi? – so'radi undan Blum.

– Yo'g'-e, – dedi Peppi. – Kim biladi deysan, quloq og'rig'iga chalinmay deyman-da.

Nihoyat, ikki daydi o'rnidan turib, Peppiga uzundan uzoq tashakkurlar aytishdi va ketishga ruxsat so'rashdi.

– Kelganingiz juda ajoyib bo‘ldi! Chindan ham shunchalik tez ketishingiz shartmi, o‘zi endigina kelgandingiz-a, – dedi Peppi afsuslanib. – Umrimda shotlandcha raqsga xuddi senday tushadigan bironta odamni uchratmagandim, cho‘chqacham, – dedi u Chaqmoq Karlson va Blumga yuzlanib. – Agar har kuni taroqda kuy chalishni mashq qilsang, sendan zo‘r musiqachi chiqadi.

Ular endigina eshikdan chiqib ketishayotganida Uzunpaypoq ularning ortidan yugurib keldi.

– Mana, – dedi har birlariga bittadan oltin tanga tutqazib, – bu sizlarning peshona teringiz bilan topganingiz, olinglar.

9. Peppining qahva bazmiga borgani

Kunlarning birida Tommi va Annikaning onasi bir necha xonimlarni qahvaxo‘rlikka chaqirgan edi. Kun bo‘yi bir dunyo shirinlik pishirib bo‘lgach, Tommi va Annika Peppini ham ayni o‘sha vaqtda bazmga taklif qilsak, yaxshi bo‘lardi, degan fikr keldi. Shunda bolalar o‘zlari bilan andarmon bo‘lishib, kattalarga hech qanday xalaqit berishmasdi.

Bu taklifni eshitib, quvonchini ichiga sig‘dirolmagan bolalar oyog‘ini qo‘liga olib, Uzunpaypoqnikiga chopishdi. Ular Peppini bog‘dan topishdi. U eski zanglab ketgan quvur yordamida so‘nggi bor chechak ochib turgan gullarni sug‘orish bilan ovora edi. Shusiz ham kuchli jala yog‘ib turganini

push qilib Tommi unga bunday ob-havoda gullarni sug'orish shart emasligini uqtirishga harakat qildi.

– Senga gapirish oson-da, – dag'allik bilan javob berdi Peppi, – qayerdan bilasan, balki men kechasi bilan mijja qoqmasdan ertasi kuni barvaqt turib, gullarimni sug'orish haqida o'ylab chiqqandirman. Nega endi arzimagan yomg'ir yo'limga to'g'anoq bo'lishi kerak?

Shunda Annika unga quvonarli xushxabarni yetkazdi:

– Peppi, oyim seni qahva bazmiga taklif qildi.

– Meni-ya? Qahvaga taklif qildi? – qichqirib yubordi Peppi va hayajonlanganidan sug'ormoqchi bo'lgan atirgul butasi qolib, Tommining ustiga suv sepa boshladi. – U yerda o'zi nimalar bo'ladi? Meni bilasiz-ku, juda asabiyman. O'zimni yaxshi tuta bilmasam-chi?

– Albatta, qo'lingdan keladi, – dalda berdi unga Annika. – O'zimiz senga yordam beramiz.

– Yo'q-yo'q, oldindan katta gapirib bo'lmaydi, – davom etdi Peppi. – Ishonavering, o'zimni yaxshi tutishga harakat qilaman, lekin qanchalik jon-jahdim bilan tirishsam ham menga hech qachon o'zimni risoladagidek tuta olmasligimni aytishgan. Dengizda esa biz umuman bunaqa mayda-chuydalar uchun asabimizni buzmasdik. Nima bo'lganda ham sizlarga va'da beramanki, bugun jonimni jabborga berib bo'lsa-da, sizlarni uyaltirmaslikka harakat qilaman.

– Mana bu boshqa gap! – deyishdi aka-singil va yomg'ir ostida uylariga shoshilishdi.

– Esingdan chiqmasin, bugun soat roppa-rosa uchda! – soyabon ostidan baqirishdi Tommi va Annika.

Va'da qilinganidek, roppa-rosa soat uchda Settergrenlar uyining kirish eshigi yonida yasan-tusanni ham o'rniga qo'ygan xonimcha paydo bo'ldi. Ha, bu o'sha – Uzunpaypoq Peppi. U bugungi bazm uchun sochlarini yoygan bo'lib, qip-qizil sochlari xuddi sherning yoliday hurpayib turardi. Peppi qizil qalam olib, lablarini ol rangga bo'yagan, qoshlarini ham qoraytirib tap-tayyor qo'rqinchli maxluqcha tusini olgandi. Rangli qalam yordamida tirnoqlarini ham bo'yab, boshmoqlariga yashil bog'ichdan yasalgan gul yopishtirib olgan edi.

– Ana endi ishonchim komilki, bazmdagi xonimlar ichida eng maftunkori men bo'laman.

Eshik qo'ng'irog'ini bosarkan, o'z-o'ziga ishonch bilan gapirdi Peppi.

Bu paytda Settergrenlar mehmonxonasida uchta notanish ayol, Tommi, Annika va ularning onasi jam bo'lishgandi. O'rtadagi qahva stoli mehr bilan bezatilgan, kamindagi olov gurullab yonib turardi. Xonimlar nazokat ila o'zaro suhbatlashishar, Tommi va Annika esa divanga cho'kkancha albom tomosha qilib o'tirishardi. Hammayoq suv quygandek jimjit, hammasi bir maromda, barcha ohistagina nafas olardi...

To'satdan o'rtadagi hukmron jimlik barbod bo'ldi!

– Qurollarni to'g'irla-a-ang! Tekisla-an! R-rostla-an! – dahlizdan baqirgan ovoz eshitildi. Ora-

dan bir daqiqa o'tgach, Peppi ostonada tek turardi. Uning baqirishi shunaqangi vahimali ediki, mehmonxonada to'plangan ayollar kutilmaganda o'rinlaridan sakrab turishdi.

– O-o-old-ga qada-a-a-am bos-s-s! – ikkinchi buyruqdan so'ng Peppi shaxdam qadam bosib, Settergren xonimning yoniga bordi. – To'-o'xta! Bi-ir, ik-ki, qo'llar-r oldinga-a! – Peppi qo'shqo'llab Settergren xonimning bir kaftini siqib qo'ydi.

– Tizzalarni bukami-iz! – nazokat bilan ta'zim qildi u. So'ng Settergren xonimga yuzlanib, o'zining doimgi ovozi davom etdi: – Ko'ryapsizmi, xonim, naqadar uyatchan qizman. Agar o'z-o'zimga mana shunday buyruq bermaganimda, ichkariga kirishga botinolmay haligacha dahlizda so'ppayib turgan bo'lardim.

Peppi gapirib bo'lgach, boshqa xonimlar qarshisiga borib, barchalarining yuzidan birma-bir o'pdi.

– G'oyat latofatlisiz, oliynasab xonim, – dedi u, chunki ancha ilgari bir oqsuyak janobning notanish xonimga shunday xushomad qilganini eshitgandi. Ayni dam xuddi o'sha janobga taqlid qildi.

Peppi ko'ziga eng yaxshi ko'ringan o'rindiqlardan biriga shartta borib o'tirib oldi. Settergren xonim bolalar tepa qavatdagi Tommi va Annikaning xonasida bayram qilishlarini rejalashtirgandi. Biroq Peppi yumshoqqina oromkursida pinagini buzmay o'tiraverdi. Tizzalariga yengilgina shapatiladi. So'ng qahva stoliga qarab, gap qotdi:

– Stolingiz juda ishtaha ochar qilib bezatilibdi. Xo'sh, unda bazmni qachon boshlaymiz?

Ayni shu paytda uy oqsochi Ella qahva idishni ko'tarib kirib keldi.

– Dasturxonga qaranglar, – mehmonlariga iltifot ko'rsatdi Settergren xonim.

– Birinchi o'zim, – Peppi barcha xonimlardan ilgari o'rnidan sakrab turib, stol atrofida hozir bo'ldi.

U o'ylab ham o'tirmasdan likopchasini pishiriqqa to'ldirdi, finjoniga naq beshta oqqand soldi, ko'zachadagi sutning yarmidan ko'pini finjoniga bo'shatdi va xonimlar hali stolga yetib ulgurmaslaridan bir dunyo narsa bilan joyiga qaytdi.

Peppi oyoqlarini to'g'riga uzatib, shirinlik to'la likopchani oyoqlari ustiga qo'ydi. Shirinlikni qahvaga birma-bir botirib, og'ziga tinmay solaverganidan lunjlari to'lib, qanchalik urinmasin, bir og'iz gapirishning ilojini topolmay qoldi. Ko'z ochib yummasdan likopchadagi barcha shirinlikni paqqos tushirdi. O'rnidan turdi-da, likopchani xuddi childirma chertganday tiringlatgancha shirinlikdan yana biroz qoldimi yo yo'qmi degan umidda stol yoniga bordi. Ayollar unga yovqarash qilishdi, lekin Peppi ularga e'tibor ham qilgani yo'q. Aksincha, u xonimlarga qo'shilib gap sotar va stol atrofida aylanib, goh u yerdan, goh bu yerdan shirinliklarni terib, og'ziga solardi.

– Naqadar mehribonsiz, Settergren xonim, meni qahva bazmiga taklif qilganingizdan minnatdorman, – dedi u. – Umrimda hali hech kim meni aqalli yuzaki bo'lsa ham qahvaxo'rlikka taklif qilmagandi.

Stol ustida o'rtasiga bir bo'lak qizil shirinlik qo'yib bezatilgan ulkan tort turardi. Peppi qo'lla-

rini orqasiga qo'yib, tortga suqlanib tikildi. Birdaniga oldinga egilib, tort ustidagi shirinlikni tishlari bilan olmoqchi bo'ldi. Afsuski, egilayotganda ozgina shoshqaloqlik qilib, yuzi bilan tortga sho'ng'idi. Qulog'igacha qaymoqqa belandi.

– Voy, – baqirib yubordi Uzunpaypoq. – Ana endi berkinmashoq o'ynasak bo'ladi. Men hech narsani ko'rmayapman, sizlar paytdan foydalanib, berkinib oling, – u tilini chiqarib, yuzidagi qaymoqni yaladi. – O'ziyam g'alati hodisa yuz berdi-da, – dedi u. – Menimcha, tortning sog' joyi qolmagan bo'lsa kerak. Shunday ekan, endi uni o'zim bir o'tirishda yeb qo'ysam ham bo'laveradi, nima dedingiz?

Peppi doimgidek aytganini qilmay qo'ymadi. Qoshiqchani qo'lga olib, tortga hujum qildi-yu, bir lahzada shirinlikdan asar ham qoldirmay yeb bitirdi. So'nggi luqmani ham yutib bo'lgach, mamnuniyat bilan qornini silab qo'ydi. Bu paytda Settergren xonim oshxonadagi mayda-chuyda ishlarga qarashish uchun chiqib, tort voqeasidan bexabar qolgandi. Boshqa ayollar esa Peppiga ijirg'anib qarashar, chunki ularning ham ko'ngillari hech qursa bir bo'lakdan tort yeyishni tusagandi. Uzunpaypoq mehmonlarning ranjiganini ko'rib, kayfiyatlarini ko'tarishga urindi.

– Bilasizmi, o'tgan ishga salavot deyishadi, haligi voqeani o'ylab, ko'p ham siqilmanglar, – dedi yupatgan bo'lib. – Eng muhimi – har birimizning salomatligimiz! Mehmonga borganda shumshayib o'tirish yaramaydi, chehrangizni ochsangiz-chi?

Shundan so'ng Peppi shakar solingan idishni oldi-da, ichidagi barcha oq qandni polga sepib yubordi.

– O, Xudoyim! Qarang-a, nima qilib qo'ydim! – dedi u. – Qanday qilib bunchalik katta xato qilish mumkin? Men buni maydalangan shakar deb o'ylagandim, oqqand ekan-ku! Omadsizlik bir kelsa, qo'sh keladi, deganlari shu bo'lsa kerak-da. Bordi-yu, siz ham maydalangan shakar deb o'ylab oqqandni yerga sepib yuborsangiz, yodda tuting, vaziyatdan chiqishning bir yo'li bor – u yerga maydalangan shakar ham sepish kerak.

Peppi boshqa bir idishni qo'liga olib, bu gal maydalangan shakarni polga sepib chiqa boshladi. Bir zumda butun oyoq osti shakarga to'lib ketdiki, ko'rgan odam buncha shakarni kuchli shamol uchirib kelganmikin yoki shakar favvorasi otilganmikin deb o'ylashi tayin.

– Agar bu ham yordam bermasa, unda biling, boshqa hech narsa foyda bermaydi, – xitob qildi Peppi va yana gapida davom etdi: – Hech o'ylab ko'rganmisiz, shakar sepilgan polda yurish naqadar mazaligini! Ayniqsa, oyoqlang bo'lsangiz, nur ustiga nur, – deb boshmoq va uzun paypoqlarini yecha boshladi qahramonimiz. – Siz ham bir sinab ko'rmaysizmi, ishonavering, shakarli polda yurmabsiz – bu dunyoga kelmabsiz!

Shu payt Settergren xonim kirib keldi va yerga sochilgan shakarni ko'rib, tepa sochi tikka bo'ldi. Peppining qo'lidan mahkam tutib, Tommi va Annika o'tirgan divan yoniga o'tirishini tayinladi. Dugo-

nalarining yoniga qaytib, yana bir finjondan qahva ichishni taklif qildi. Tortdan nishon ham qolmagani uni quvontirdi, chunki Settergren xonim shirinlik mehmonlarga juda yoqqan va ular tortni yeb tugatishgan bo'lishsa kerak, degan xayolga bordi.

Peppi, Tommi va Annika divanda tinchgina suhbatlashib o'tirishar, kamin olovi bir maromda gurullardi. Ayollar qahvalarini ho'plab tugatishdi va mehmonxonaga yana sukunat cho'kdi. Uch-to'rtta ayol yig'ilsa, har doim bo'ladiganday, xonimlar ham kundalik muammolari haqidagi g'iybatni boshlashdi. Aftidan, ularning hech biri oqsochdan yolchimagani ko'rinadi, ular xizmatkorlaridan qoniqishmas, bunaqa oqsochlarning boridan yo'g'i yaxshiligini bot-bot ta'kidlashardi. Ularning nazdida, bekor-ga asabni to'kib-sochgandan ko'ra, o'sha arzimagani yumushlarni o'zlari bajarganlari ma'qul edi. Har qalay, shunda bajarilayotgan ishlardan ko'ngli to'lardi kishining.

– Bir zamonlar buvimning Malin ismli oqsochi bo'lardi, – gapga aralashdi Peppi. – Malinning oyoqlari sovuqdan gezarganini aytmasa, boshqa kamchiligi yo'q edi. Birdan bir yoqimsiz xislati shunda ediki, bordi-yu, buvimnikiga mehmonlar keladigan bo'lsa, yugurib borib ularning oyog'idan tishlardi. Ha-ha, itday akillardi ham. Uning uvullagan ovozi yetti mahallaga eshitilardi, lekin bechora bor-yo'g'i o'yinqaroq bo'lgani uchun shunday qiliqlar qilardi, xolos. Faqatgina shu begonalar uni har doim ham tushunavermasdi-da. Kunlarning birida gersogning xotini, qari bir ayol buvimni ko'rgani keldi.

O'sha paytlar Malin hali endigina buvimga oqsochlik qilshni boshlagandi. Gersoginya oromkursiga o'tirishga ulgurmasidan qayoqdandir Malin paydo bo'lib, kampirning to'pig'idan tishladi. Gersoginya shunaqangi vahima bilan qichqirdiki, bechora Malin o'takasi yorilganidan tishini uning oyog'iga qattiq botirib, qayta sug'urib ololmay qoldi. Bu yog'ini so'rasangiz, Malin kampirning oyog'idan tishlarini sug'urib ololmay naq juma kunigacha ovora bo'ldi. Shuning uchun ham o'sha kunlari buvim kartoshkalarni o'zi archishga majbur bo'ldi. Lekin buvim kartoshkalarni ham shunaqangi qoyillatib archidiki, ishni yakunlagach, atrofda faqat kartoshka po'choqlarini ko'rishingiz mumkin edi. Kartoshkaning o'zidan esa asar ham qolmagandi. O'sha juma kundan keyin gersoginya qaytib buvimnikiga oyoq bosmaydigan bo'ldi. Chunki qari kampir hazilni ko'tarolmasdi-da. Eh, har doim quvnoq yuradigan sho'rlik Malin! O'sha voqeadan so'ng Malin salga xafa bo'ladigan odat chiqardi. Kunlarning birida buvim uning qulog'iga sanchqi tiqib olganida uzzukun uvullab yig'lagani esimda.

Peppi atrofga nazar solib, jilmaydi.

– Ha, Malin deganlari shunaqa edi, – dedi u bosh barmoqlarini o'ynatib.

Xonimlar o'zlarini eshitmaganga olib, yana o'z suhbatlarida davom etishdi.

– Mening Rozam aqalli orasta bo'lsa ham mayli edi, – dedi Berggren xonim, – shunda uni olib qo'lishim mumkin bo'lardi. Biroq u naq cho'chqaning o'zi...

– E, nimasini aytasiz, siz Malinni ko‘rmagan-siz-da, – tag‘in suhbatga burun suqdi Peppi, – Malin shunaqangi iflos yurardiki, buvim hatto uni ko‘rish ham kulgili deb qo‘yardi. Boshida sodda buvim Malinni o‘zi tabiatan qora tanli bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan. Keyinchalik bilsa, Malinning qoraligi faqatgina yuvinmay yurishidan ekan. Bir zamonlar «Shahar» mehmonxonasi-dagi tadbirda u tirnoq ostidagi kirlari ko‘pligi bo‘yicha oliy o‘rinni egalagandi. Kechirasiz-u, lekin ko‘ryapsizmi u naqadar isqirt qiz bo‘lgan, – dedi Peppi tirjayib.

Settergren xonim unga o‘qrayib qarab qo‘ydi.

– Aytsam ishonmaysiz, – deb gap boshladi Granberg xonim, – bir kuni kechqurun Britta uchra-shuvga chiqadigan bo‘ldi. Buni qarangki, u mening ko‘m-ko‘k shoyi ko‘ylagimni bir og‘iz ham so‘ramasdan kiyib ketibdi. Qanday bedodlik bo‘ldi bu axir?

– Asti qo‘yaving, – tag‘in oraga suqildi Peppi, – menimcha, sizning Brittangiz bilan Malinning tuprog‘i bir yerdan olingan bo‘lsa, ajabmas, sizning aytganlaringizdan shunday xulosa qilyapman-da. Buvimning o‘zi juda yoqtiradigan pushti ichko‘ylagi bo‘lardi. Aksiga olib, Malinning ham o‘sha ichko‘ylakka ishqiq tushgan edi, deng. Har kuni ertalab buvim va Malin pushti ichko‘ylakni talashib jallashishardi. Axiyri navbatma-navbat kiyishga kelishib olishdi. Bir kun buvim o‘zi kiya, bir kun bu baxt Malinga nasib etardi. O, lekin siz Malin qanchalik ayyor tulki bo‘lganini bilmaysiz-da. Buvimning navbati yetgan kunlari yugurib kelardi-da,

«Agar bugun pushti ichko'ylakni kiymasam, hech qanaqa sholg'omli bo'tqa yo'q!» deb turib olardi. Sho'rlik buvim nimayam qilsin? Ustiga-ustak, sholg'omli bo'tqa uning eng sevimli taomi bo'lsa. Qariyaning ichko'ylakni Malinga berishdan boshqa chorasi qolmasdi. Malin esa maqsadiga erishgani zahoti oshxonaga borib, bor mahoratini ishlatib, sholg'omli bo'tqa tayyorlashga kirishardi.

O'rtaga bir muddat jimlik cho'kdi. Bu sukunatni Aleksanderson xonimning ovozi buzdi.

– Biror bir aniq dalilim yo'qku-ya, lekin taxminimcha, bizning Huldaning qo'li egri. Kundan kunga uydan narsalar yo'qolib qolyapti.

– Malin ham... – Peppi endigina gap boshlamog'chi edi hamki, Settergren xonim uning gapini bo'ldi.

– Bolalar, – dedi qat'iy ohangda, – zudlik bilan o'z xonangizga boring!

– Xo'p, mayli, lekin shoshmay turing, – dedi Uzunpaypoq. – Men Malin ham o'g'rilik qilib turishi haqida aytib bermoqchiman. Xuddi quzg'unday ko'zi och edi uning. Qo'li yetgan har qanday narsani o'margisi kelaverardi. Yarim kechasi uyg'onib, biror nima o'g'irlamasa, ko'ngli joyiga tushmas va o'sha kuni sahargacha uxlolmasdan chiqardi. Bir gal u buvimning pianinosini o'g'irlab, o'zining tortmasiga yashirib qo'ygandi. Buvim har doim uning ephilligidan hayratga tushardi.

Tommi va Annika Peppining qo'ltig'idan mahkam tutib, uni tepa qavatga boshlashdi. Xonimlar endilikda uchinchi finjonni ho'play turib suhbatda davom etishdi.

– Elladan shikoyat qilmoqchi emasman, – dedi Settergren xonim, – faqatgina chinnilarni sindirishi bor-da.

Shu payt to‘satdan zinapoya panjarasidan qizil bosh ko‘rindi.

– Malin ham chinnilarni sindirganmikin deb qiziqayotgan bo‘lsangiz kerag-a? – xonimlarga yuzlandi Peppi. – Albatta-da. Malin qanchadan qancha idishlarning boshiga yetmagan deysiz, eh-he, ularni sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydi. U haftaning bir kunini aynan chinni sindirish uchun ajratgan edi. Seshanba kuni idishlarga qiron keladigan kun edi, deb eslaydi buvim. Har seshanba tonggi soat beshdan boshlab oshxonada idishlarning chil-chil singan tovushini eshitish mumkin edi. U o‘z ishini qahva finjonlari, stakanlar va shunga o‘xshash mayda narsalardan boshlar, undan keyin sho‘rva kosalar, yapaloq likoplarni sindirishda davom etar, axiyri, chinni ko‘zalarni sindirish bilan ko‘ngli joyiga tushardi. Buvimning aytishicha, ertalabdan oshxonada shunaqangi shovqin-suron ko‘tarilar ekanki, unga quloq tutishning ham o‘zgacha gashti bor emish. Bundan tashqari, tushlikdan keyin bo‘sh vaqt qoldi, deguncha u qo‘liga bolg‘acha olib, mehmonxonaga yo‘nalar va devorga osilgan ko‘rgazma laganlarni birma-bir sindirib chiqar edi. Sho‘rlik buvim har haftaning chorshanbasida yangi chinnivorlar sotib olardi, – dedi Peppi va quti ichidagi o‘yinchoq masxarabozday zumda ko‘zdan yo‘qoldi.

Endi bunisi oshib tushdi. Settergren xonimning toqati toq bo‘ldi. Xonim tepa qavatga ko‘tarilib,

to'g'ri bolalar xonasiga bordi. Tommiga boshda qanday turishni o'rgata boshlagan Peppiga jahl qildi:

– Modomiki, o'zingni yaxshi tutishni eplay olmas ekansan, qaytib bu yerga qadamingni bosmaysan!

Peppi unga cheksiz hayrat ichra tikildi, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

– Mana, men nimadan qo'rqqandim, – dedi u, – hech o'zimni yaxshi tuta olmayman. Qancha urinmayin, befoyda. Baribir o'rganolmayman. Undan ko'ra dengizda yurganim ma'qul edi.

U Settergren xonimga ta'zim qildi, Tommi va Annika bilan xayrlashib, pastga yo'l oldi. Xonimlar ham allaqachon uyga qaytish uchun hozirlik ko'rishni boshlab yuborishgan ekan. Peppi dahlizda kalishlar terilgan sandal yoniga cho'kdi va xonimlarning kiyinishlarini kuzatib o'tirdi.

– Oqsochlaringizni yoqtirmasligingiz yaxshi emas, – dedi ularga. – Malinga o'xshagani hali uchramagan-da sizlarga. Buvim ham Malinday xizmatkor hech qachon bo'lmaganini ta'kidlardi. Bir tasavvur qiling-a! Qaysidir yili milod bayramida dasturxonga qovurilgan cho'chqa tortayotib nima qilganini bilasizmi? Malin taom qanday tayyorlanishi yozilgan kitobchani o'qigan ekan. Unda cho'chqani qulog'iga gajak qalampir solib, og'ziga olma qo'yib, keyin dasturxonga tortish kerak, deb yozilgan ekan. Bechora chalasavod Malin buni yanglish tushungan. Ana endi uning Rojdestvo oqshomida qulog'iga qalampir tiqib, og'zida olma tishlab olib, taom keltirganini bir ko'z oldingizga keltiring-a.

O'shanda buvim «Malin, sen g'irt ahmoqsan!» degan edi. Oqsoch esa o'zini himoya qilish uchun biron nima deyolmagan. To'g'ri, u bir nimalar deyishga uringan, lekin «blubb-blubb» qilishdan boshqasiga yaramagan. Shuningdek, u odatiga ko'ra, shuncha odam to'plangan ziyofatda aqalli birgina kishini ham oyog'idan tishlay olmagan. Sho'rlik Malin! Uning uchun eng yomon bayram oqshomi bo'lgan o'shanda, – g'amgin qifoyada gapini yakunladi u.

Bu paytda xonimlar allaqachon kiyinib, Settergren xonim bilan ham obdan xayrlashib ulgurishgan edi. Peppi ham mezbon yoniga yugurib, qulog'iga shivirladi:

– Kechiring, xonim, o'zimni tutishni eplolmadim. Omon bo'ling!

U bahaybat shlyapasini boshiga qo'ndirib, oqbilak xonimlarning izidan ergashdi. Darvozadan chiqishgach, yo'llar ajraldi: Peppi to'g'ri «Tovuq» villasiga, xonimlar esa boshqa tomonga ketishdi. Ozgina yo'l yurishganidan so'ng xonimlar orqada kimdir halloslab kelayotganini sezishdi. Bu jonsarak Uzunpaypoq Peppi edi.

– Malinni yo'qotganidan so'ng buvim qanchalik qayg'uga botganini tasavvur ham qila olmaysiz. Bir o'ylab ko'ring, seshanba tonglaridan birida Malin o'ntacha chinni idishni sindirgach, barcha kiyimlarini yig'ishtirdi-yu, paraxodga minib, qayergadir ravona bo'ldi. O'sha kuni chinnilarni sindirish buvimning o'ziga qoldi. Bechora buvim idishlarni sindirishga odatlanmagan edi, o'sha kuni qo'llariga chechak toshdi. U Malinni qaytib ko'rmadi. Buvim har doim Malinni yaxshi xotiralar bilan eslab yurdi.

Peppi ketgach, xonimlar qadamlarini tezlatishdi, ammo ikki yuz qadamcha yurib ulgurmaslaridan, uzoqdan Peppening bor ovozdagi baqirgani eshitildi:

– Aytganicha-a, u he-ech qachon yotoq ostini sumpu-urmasdi-i-i!

10. Peppi – qutqaruvchi!

Yakshanba kunlarining birida oqshom vaqti Peppi nima qilishni bilmay garangsib o'tirgandi. Tommi va Annika esa ota-onalariga qo'shilib mehmondorchilik uchun jo'nashgandi. Shuning uchun ham ularning kelishidan umidini uzmay iloj yo'q edi.

Kuni bo'yi bir-biridan ajoyib yumushlar bilan band bo'ldi. Ertalab vaqtli turib, janob Nilsonga mevali sharbat va bo'g'irsoq tayyorlab berdi. Maymuncha o'yinchoq karavotida yotganida shunaqa shirin ko'rinardiki, ko'kimtir pijamasi va stakanini qo'shqo'llab tutishlari o'ziga biram yarashardiki, asti qo'yaverasiz. Shundan so'ng Peppi otini parvarishladi, yemish va suvini berib, yana unga dengizdagi sarguzashtlari haqida uzundan uzoq hikoya aytib ham berdi. Mehmonxonaga kirib, devorga katta qilib rasm chizdi. Unda qizil ko'ylak va qora shlyapa kiygan xo'ppa semiz ayol tasvirini ko'rish mumkin edi. Ayol bir qo'lida sariq chechak, boshqa birida o'lgan kalamush ushlab turardi. Peppening fikricha, surat juda ham chiroyli chiqqan va boz ustiga butun mehmonxona devorini qoplab olgandi. U javoni yoniga o'tirib, qushlarning tuxumlari-yu, turli chig'anoqlardan iborat xazinasini

birma-bir ko'zdan kechirdi. Ayni shu xazinalarni to'plash uchun otasi bilan birga kezgan mamlakatlarini, hozirda javonining tortmalarida yotgan narsalarini xarid qilgan dunyoning eng yaxshi do'konlari haqida uzoq o'ylab o'tirdi. Janob Nilsonga shotlandcha raqsni o'rgatmoqchi bo'ldi-yu, maymuncha gapiga umuman kirmadi. Otga raqs tushishni o'rgatish haqida biroz o'ylab qoldi-yu, bu fikridan ham qaytdi.

Endi esa qosh qoraya boshlagan edi. Puchuq burnini derazaga tirab, tashqarini, atrofga cho'kayotgan kuz shafag'ini tomosha qildi. Uchto'rt kundan buyon ot minmagani esiga tushib, darhol ot bilan sayrga chiqishga qaror qildi. Ha, mana bu boshqa gap! Kunning qolgan qismi ham ajoyib o'tadi endi.

Peppi zudlik bilan bahaybat shlyapasini boshiga qo'ndirdi, burchakda boshqotirma titkilayotgan janob Nilsonni olib keldi, otni egarlab, ayvondan olib chiqdi. Shunday qilib, janob Nilson Peppiga, Uzunpaypoqning o'zi esa otga minib, yo'lga tushishdi.

Havo anchagina sovuq, yo'llar muzlagan bo'lib, ot har qadam bosganida xuddi chinnining jara-nqlashiday ovoz chiqarardi. Ot yelib borarkan, Peppining yelkasida turgan janob Nilson daraxtlarning shoxlaridan tutishga harakat qilar, lekin Peppi otni shunchalik shiddat bilan yeldirganidan har qancha harakat qilmasin, barchasi chippakka chiqardi. Qaytanga shox-shabbalar uning boshi-yu qulog'iga urilaverganidan, poxol shlyapasini bazo'r boshida saqlab qoldi.

Peppi yo'lini mo'jazgina bir shaharcha tomon burdi. U yashin kabi shiddatkor ot yeldirib kelar ekan, shaharcha aholisi unga yo'l bo'shatish uchun jon-jahdi bilan o'zini devor panasiga urardi.

Albatta, xuddi boshqa shaharlarda bo'lganidek, bu shaharchada ham markaziy guzar bor edi. Uning atrofida bir nechta ancha ilgari qurilgan bir qavatli uylar va ixchamgina sariq rangga bo'yalgan nozirxona (ratusha) joylashgan edi. Bundan tashqari, yangi qurilgan beo'xshovgina uch qavatli binoni ham ko'rishingiz mumkin edi. Odamlar bu inshootni «Osmono'par» deb atashardi, chunki u yondosh binolardan ko'ra balandroq edi.

Yakshanba oqshomlari shaharcha har doim suv quyganday jimjit va osoyishta bo'lgan, biroq o'sha kuni to'satdan sukunatni qichqiriq va yig'i ovozi barbod qildi.

– Xaloyiq, Osmono'parga o't ketdi. Yong'in! Yong'in! – dedi kimdir.

Odamlar bir lahzada har tarafdin halloslab yetib kelishdi. Ko'cha adog'idan o't o'chirish mashinasining jaranglagan signali eshitildi. Har doim o't o'chiruvchilarga ham hayratlanib, ham quvonib qaraydigan bolalar o'zlarining uylariga ham o't ketishidan xavotirlanib, yum-yum yig'lashardi. Politsiya nozirlari har yonda sochilib yotgan olomni maydon markaziga haydab, o't o'chirish mashinasiga yo'l ochishiga to'g'ri keldi. Osmono'par derazalardan alanga bilanglab tilini chiqazar, yurak yutib o't o'chirishga kirishgan xodimlarni tutun va uchqunlar zumda yutib yuborardi. Yong'in dastlab

birinchi qavatda boshlangan bo'lsa-da, shiddat bilan yuqori qavatlarga o'rlab borayotgan edi.

Qo'qqisdan olomonning ko'ziga bir sharpa ko'rinib, barcha dahshat ichida qoldi. Eng tepa qavatdagi derazaning ko'zini jajjigina qo'l itarib ochdi. U yerda ikki norasida go'dak yig'lab-qaqshab yordam so'rashayotgandi.

– Bu yerdan chiqib keta olmayapmiz, – qichqirdi yoshi kattaroq bolakay. – Kimdir zinaga o't qo'yan ko'rinadi.

Yoshi kattaroq bolakay beshda, ukasi esa undan, chamasi, bir yosh kichkina edi. Ularning onasi ish bilan ko'chaga chiqib ketgan, bolalar esa uyda yolg'iz va qarovsiz qolishgan ekan. Yoshgina jonlarga termilib, hamma ko'zyoshi qildi. O't o'chiruvchilar boshlig'i esa og'ir vaziyatda qoldi. To'g'ri, ularda maxsus narvon bor edi, lekin uchinchi qavatga chiqish uchun u kaltalik qilayotgandi. Hattoki bolalarga yaqinroq yetishi ham amrimahol edi. Uy ichiga kirib, bolalarni qutqarishning hech imkoni topilmadi. Bechora go'daklarning hayotini saqlab qolishning iloji yo'qligini bilgach, barcha umidsizlikka tushdi. Sho'rlik bolalar hanuz yuqorida turar, yig'lab-yolvorishardi; olov esa ularga yaqinlashishiga bir baxya qolgan edi.

Olomon orasida ot minib olgan Peppi ham turardi. U o't o'chirish mashinasiga suqlanib boqar, qaniydi bitta shunaqasidan sotib ololsam, deb xayol surardi. Mashinaning rangi qizilligi, vahimaga soluvchi signal chalishi unga judayam yoqib tushdi. Yong'inga qarab, bir nechta uchqun o'zining ustiga tushsa, naqadar maza bo'lishini tasavvur qildi.

Ayni damda eng yuqori qavat boloxonasida turgan bolajonlarga ko'zi tushdi Peppining. Nega bolalar xursand emasligidan juda hayratga tushdi. Qanday qilib yong'in bo'lganda quvonmaslik mumkinligiga aqli yetmay, atrofidagi odamlarga savol bilan yuzlandi:

– Ana u bolalar nega buncha diydiyo qilishyapti?

Avvaliga odamlar javob o'rniga faqat xo'rsinibgina qo'yishdi, nihoyat, bir kelishgan jentlmen javob qaytardi:

– Xo'sh, o'zing nega yig'lashyapti, deb o'yaysan? Ularning o'rnida tepada qolib ketib, pastga tusholmaganingda sen ham yig'lagan bo'larmiding?

– Men hech qachon yig'lamayman, – dedi Peppi. – Bolalar pastga tushishni xohlashsa, unda nega hech kim yordam bermayapti?

– Chunki buning iloji yo'q, – dedi barvasta jentlmen.

Peppi bir muddat o'yga toldi.

– Biror kishi menga uzun arqon topib bera oladimi? – deb so'radi u keyin.

– Arqonning nima keragi bor? – so'radi jentlmen. – Bolalar arqonga tirmashishga yoshlik qilishadi. Bundan tashqari, endi kech – u yergacha arqonda osilib chiqish imkonsiz. Nima, shularni o'zing tushunmaysanmi?

– Qanday tushuntirsam ekan... – xotirjamlik bilan dedi Peppi. – Menga arqon topib bersangiz bas.

Hech kim arqon bilan biron ish chiqishiga ishonqiramadi, lekin Peppi nima qilib bo'lsa ham arqon topib keltirdi. Osmono'parning boloxonasi-

dan uzoq bo'lmagan yerda daraxtlar o'sardi. Uning shoxlari qariyb boloxona derazasi bilan bab-baravar bo'lib, faqatgina orasida uch metrcha masofa bor edi. Daraxtning tanasi sip-silliq, tirmashib chiqish uchun birorta pastroqda chiqqan shoxchasi ko'rinmasdi. Shunda ham Peppi yuqoriga chiqishning yo'lini qildi. Yong'in tobora yaqinlashib vahima so-lar, bolachalar dod solishar, pastdagi olomon esa yig'lashdan to'xtamasdi.

Peppi otdan sakrab tushib, daraxt tomonga yu-gurdi. Arqonni olib, janob Nilsonning dumiga mah-kam bog'ladi.

– Ana endi Peppining ishonchini oqlashingiz shart, – dedi u maymunchaga.

U janob Nilsonni daraxt tanasiga mindirib, oz-gina itarib qo'ydi. Janob Nilson nima qilishi ke-rakligini tushundi. Daraxtga itoatkorona tirmashib chiqa boshladi. Kichkina maymun uchun daraxtga chiqish ham ish bo'libdimi?! Maydonda to'plangan olomon nafasini ichiga yutib, janob Nilsonni ku-zatardi. U chaqqonlik bilan daraxt uchiga chiqib, pastga – Peppi tomonga qaradi. Peppi unga yana pastga tushish ishorasini qildi. Maymuncha uning aytganiga kirib, daraxtning boshqa tomonidan aylanib yerga tushdi. U yerga qaytib tushganida ar-qon daraxtning shoxlarini pastga engashtirdi.

– Barakalla, janob Nilson! – dedi Peppi. – Sen shunchalar oqilsanki, xohlagan vaqting professor bo'lishing mumkin.

Peppi janob Nilsonning dumiga bog'langan tu-gunni yechdi. Uy yaqinida ta'mirlash ishlari keta-

yotgan edi, Uzunpaypoq o'sha yerga yugurib borib, uzun va enli taxta topib keldi. Taxtani bir qo'lida mahkam tutib, bo'sh qo'li bilan arqonni ushlab, daraxtga oyog'ini tiragancha chaqqonlik bilan daraxt ustiga chiqdi. Shunda olomon yig'lashdan biroz to'xtaganday bo'ldi. Daraxt uchiga yetganida qo'lidagini baquvvat shoxga qo'ndirib, bir uchini deraza raxi tomon itardi. Boloxona va daraxt o'rtasida taxta ko'prik hosil bo'ldi.

Maydonda to'plangan olomon uni jim kuzatishardi. Peppi taxta yuzasida xuddi dorbozday yurib bordi. Boloxona derazasi yonida turgan ikki bolakayga qarab jilmaydi:

– Nega kayfiyatingiz yo'q, jujuqlar? Balki, qorningiz og'riyotgandir-a?

Peppi taxta ustidan bir sakrashda boloxonaga o'tdi.

– Bu yer juda issiq ko'rinadi, – dedi u. – Mana meni aytdi, dersiz, bugun kaminga olov yoqmasangiz ham issiqlik yetadi. Ertasi kuni ham ko'p o'tin isrof qilishga hojat yo'q, to'rttagina g'olacha qalab qo'ysangiz bas.

U ikki bolani ikki qo'lida ko'tarib, taxta ko'prik orqali ortga qayta boshladi.

– Mana buni vaqtichog'lik desa bo'ladi. Xuddi dor ustida yurganday – maza! – dedi Peppi.

Taxtaning o'rtalariga kelganda xuddi sirkda qilgani kabi bir oyog'ini yuqoriga ko'targan edi hamki olomon o'rtasida vahima ko'tarildi. Biroz o'tib, Peppi bir poy boshmog'ini tushirib yuborganida markazda to'planganlar ichidagi uch-to'rtta ayol

hushidan ketib qoldi. Xayriyatki, u bolalarni daraxtgacha eson-omon olib o‘tdi. Olomon shu darajada qiy-chuv va qarsakbozlik qilganidan butun tunni shovqin tutib, alanga charsillashi ham hushtakbozliklar jarangi oldida yo‘q bo‘lib ketdi.

Peppi arqonni tortib, bir uchini daraxt shoxiga mahkam bog‘ladi, narigi uchini bolalardan birining belidan aylantirib bo‘g‘ladi. So‘ng bolakayni ohistagina pastga, quchog‘ini ochib turgan onasining bag‘riga tushirdi. Bechora ona bolasini sog‘-salomat ko‘rganidan o‘zida yo‘q xursand edi. U ko‘zi jiqqa yoshga to‘lib, bolasini mahkam bag‘riga bosib, yig‘lab yubordi.

– Hoy siz! – baqirdi Peppi. – Xudo xayringizni bergur, arqonni yechib bermaysizmi? Bu yerda yana bir bola bor. Bechora uchishni bilganida ham boshqa gap edi.

Odamlar arqonni bo‘shatib, bolani pastga tushirib olish uchun yordamga shoshilishdi. Peppi arqonni tugun qilib bog‘lashda ustasi farang edi, dengizchilar bilan yuraverib, tugun bog‘lashning hadisini olgandi. Shuning uchun ham odamlar to uning tugunini yechguncha jiqqa terga botishdi. Ana endi navbat ikkinchi bolakayga!

Peppi daraxt ustida yolg‘iz o‘zi qoldi. Taxta ustiga qaytib chiqdi. Barcha unga nima qilmoqchi ekan degan qiziqish bilan tikildi. Uzunpaypoq esa taxta ustida u yoqdan bu yoqqa chopib, raqs tushar edi. Qo‘llarini nazokat bilan dam tepaga, dam pastga harakatlantirar, pastdagilarga zo‘r-bazo‘r eshitiladigan xirildoq ovozda qo‘shiq kuylardi:

*«Uylarga ketdi olov,
Alanga oldi lov-lov.
Odamlar, hoy odamlar,
Ko'ring alanga kuchin!
Yong'in asli men uchun,
Yong'in asli sen uchun,
Yong'in asli sho'xlikni,
Sevgan bolalar uchun!»*

Peppi tinmay o'ynar, tinmay kuylashda davom etar, o'zini yovvoyilarday tutar, uning yuqoridan bexosdan yiqilib o'zini nobud qilishini o'ylab dahshatga tushgan olomon Peppidan ko'zini uzolmasdi. Endilikda yong'in boloxona derazasidan ham chiqa boshlagan bo'lib, pastdagilar alanga yorug'ida uni aniq-tiniq ko'rishayotgandi. U qo'lini yulduzlar ko'rina boshlagan osmonga qaratdi, zum o'tib ustiga uchqunlar tusha boshladi.

– Bunchalar ajoyib yong'in bo'lmasa!.. – dedi u.

Peppi yengilgina sakrab, arqon uchini tutib oldi. «Ehtiyot bo'linglar!» deganicha yashin tezligida arqonga osilib, pastga tushdi.


– Xaloyiq, jasur qiz Uzunpaypoq Peppi sharafiga uch bor olqishlaringiz bo'lsin! – baland ovozda xitob qildi o't o'chiruvchilar boshlig'i. – Barakalla, Peppi. Yashavor!

– Yashavor, Peppi! Yashavor, Peppi! Yashavor, Peppi! – bir ovozdan baqirdi maydonda to'plangan olomon.

Ular orasida faqatgina bir ovoz uch emas, besh marta «Yashavor, Peppi!» deb baqirdi. Bu ovoz Peppining o'ziga tegishli edi.

11. Peppi tug'ilgan kunini nishonladi

Kunlarning birida Tommi va Annika eshiklari oldidagi pochta qutisidan xat topib olishdi. Xat jildida «TMMI va ANIKAGA» deb yozilgandi. Ular xatni ochib o'qishdi:



«TMMI VA ANIKA ERTA
TALKIF QLNADI PEPINI
TUG'LGUN KUN BAYRMGA.
KIYM ISTAGANGIZNI KIYNG»

Tommi va Annika xursandliklaridan sakrab o'ynashni boshlashdi. Xatning imlosi achinarli ahvolda bo'lsa-da, unda nima yozilganini aniq-tiniq tushunib olishgandi. Shugina ikki qator gapni yozish uchun ham Peppi qancha ter to'kkanini tasavvur qilavering. Ilk bor maktabga borgan kunida harflarni o'rganishga hafsala qilmagandi, lekin qarangki, har holda, yozishni amallabdi. Dengizda yurgan payti otasining kemasidagi bir matros qachon qarama Peppini palubaga o'tirg'izib qo'yib, yozishni o'rgatmoqchi bo'lib kuyib-pishardi. Afsuski, Peppidan sabr-toqatli o'quvchi chiqishi amrimahol edi.

– Yo'q, Fridolf (o'sha matrosni shunday atashardi), yo'q. Yaxshisi, machtaga chiqib, ertaga bizni qanday ob-havo kutayotganini bilishga urinaman,

– derdi Peppi to‘satdan darsni bo‘lib. – O‘rgana-verib, zerikib ketdim!

Shuning uchun yuqoridagi yozuvlarning xatoga to‘la ekanidan ajablanmasa ham bo‘laveradi. Sho‘rlik Peppi kechasi bilan o‘sha taklifnomani yozaman deb jonini jabborga berib, axiyri sahar vaqti «Tovuq» villasi osmonidagi yulduzlar birma-bir ko‘zdan g‘oyib bo‘la boshlagan paytda Tommi va Annikalarning eshigiga oyoq uchida borib, xatni pochta qutisiga tashlab keldi.

Shu kuni Tommi va Annika maktabdan kelishlari bilanoq bazmga borish uchun kiyina boshlashdi. Annika onasidan sochini jingalak qilib turmaklashini iltimos qildi. Onasi jingalak qilgan sochlarini pushti bog‘ich bilan bog‘lab qo‘ydi. Tommi esa sochlarini ho‘llab, yaxshilab taragan edi, silliq sochli, chip-chiroyli bolaga aylandi-qoldi. Chunki u hech qanaqa jingalak-pingalakni yoqtirmasdi. Annika o‘zining eng yaxshi kiyimini kiyishni xohgelayotgandi, lekin onasi Peppinikidan har doim ust-boshini rasvo qilib kelishini aytib, boshqa ko‘ylagini kiyishi kerakligini tayinladi. Annika esa eng zo‘ridan keyingi eng yaxshi ko‘ylagini kiyish bilan kifoyalandi. Tommi esa ortiqcha boshini qotirib o‘tirmadi, unga qanaqa bo‘lsa ham bittagina toza kiyim bo‘lsa bas edi.

Anglab turganingizday, ular Peppi uchun maxsus sovg‘a sotib olishdi. Pulni qayerdan olishdi, deysizmi? Albatta, o‘zlarining pul yig‘ib boradigan cho‘chqachalari ichidan olishdi va maktabdan qaytayotib, markaziy ko‘chadagi o‘yinchoqlar do‘koni-

ga oyoqlarini qo'llariga olib yugurishdi. Nima sotib olganlari hozircha sirligicha qolaversin, birozdan so'ng bilib olasiz. Kiyinib tayyor bo'lishgach, g'aroyib sovg'alarini qo'ltiqlagancha aka-singil yo'lga otlanishdi. Onalari esa ularning ortidan kiyimlariga ehtiyot bo'lishlarini tayinlab, biroz vaysadi. Yo'lning yarmigacha sovg'ali o'ramni Annika ko'tarib bordi, sovg'ani egasiga topshirish paytida esa aka-singil bab-barobar uni Peppiga tutqazishdi.

Allaqachon noyabr boshlangan, shuning uchun quyosh tez qorayadigan bo'lib qolgandi. «Tovuq» villasi darvozasidan ichkari kirayotib Tommi va Annika bir-birining qo'lidan mahkam ushlab olishdi. Chunki Peppining bog'i qorong'ilashib qolgan, ustiga-ustak, shamol qariya daraxtlarning shox-shab-balarini beayov shitirlatib, vahimali uv tortayotgandi.

– Ehtiyot bo'l, – dedi Tommi singlisiga.

«Tovuq» villasi chiroq yorug'i taralib turgan deraza borligini va ichkarida yaqin soatlar ichida quvonchlarga to'la bazm bo'lishini bilishdan ko'ra lazzatliroq narsa bo'lmasa kerak dunyoda. Tommi va Annika doimgidek oshxona eshigiga borishdi, faqatgina bugun orqa eshikni borib taqillatishdi. Negadir ayvonda ot ko'rinmasdi. Tommi eshikni jonliroq qoqdi. Ichkaridan pastgina ovoz eshitildi.

– *Allamahal bo'lganda*

Kim keldi uyim tomon?

Arvoh-parvohmikan yo

Biror bechora sichqon?

– Yo‘q-yo‘q, Peppi, bu – biz, – dedi Annika. – Eshikni ochsang-chi!

Peppi ko‘p kuttirmasdan eshikni ochdi.

– O, Peppi, nega arvohtar haqida gap ochding? O‘takam yorilishiga sal qoldi, – e‘tiroz qildi unga Annika hatto tug‘ilgan kuni bilan tabriklash ham yodidan ko‘tarilib.

Peppi jilmayganicha oshxonada eshigini ochib, mehmonlarini ichkariga taklif qildi. Issiq va yorug‘ oshxonada o‘tirishga nima yetsin?! Tug‘ilgan kun bazmi aynan oshxonada o‘tkaziladigan bo‘ldi, chunki Peppining uyidagi eng shinam va ozoda xona ayni shu edi-da. Birinchi qavatda oshxonadan tashqari atigi ikkita xona bor edi: biri mehmonxona bo‘lib, butun boshli xonada birgina jihoz o‘rnatilgan. Ikkinchisi esa – Peppining yotoqxonasi. Oshxonada an-chagina shinam va keng, tag‘in Peppi hamma yerini yaltiratib tozalagandi. Polga gilamlar to‘shalgan, stol ustini yangi gazlama bezab turardi. Yangi gazlama to‘shalgan stol ustini Peppining o‘zi gullar bilan yasatgan bo‘lib, uning aytishicha, bunday xushbo‘y gullar har qayerda emas, faqatgina Indoneziyada o‘sar emish. Deraza pardalari tushirilgan, kaminda olov lovullab yonardi. Janob Nilson esa tortma ustida ikkita kastryul qopqog‘ini bir-biriga urishtirib o‘tiribdi. Bir burchakda ot turganini ko‘rishimiz mumkin, chunki u ham bazmga taklif etilgandi.

Peppini tabriklashlari kerakligi Tommi va Annikaning endigina esiga tushdi. Tommi ta‘zim qildi, Annika esa tizzalarini egib, ehtirom bildirdi, yashil o‘ramdagi sovg‘ani birgalikda topshirishdi.

– Peppi, seni tug‘ilgan kuning bilan tabriklaymiz! Uzoq umr tilaymiz!

Peppi ularga tashakkur izhor etib, sovg‘ani oldi-da, ichida nima borligini bilish uchun besabrlilik bilan o‘ramni yirtdi. Musiqali quticha! O‘ram ichidan musiqali quticha chiqdi! Peppi o‘zida yo‘q xursand edi. U bir Tommini, bir Annikani, undan so‘ng esa musiqali qutichani mehr bilan bag‘riga bosdi, yashil sovg‘a o‘ramini ham silab qo‘ydi. Peppi musiqali qutichaning murvatini buragan edi, jarang-jurung etib undan qo‘shiq eshitildi:

«Yoqimtoyim, Avgustin!

Erkatoyim, Avgustin!

Avgustin, Avgustin,

Bolajonim, Avgustin!»

Peppi murvatni burayverdi, buravyerdi va u, aftidan, boshqa hamma narsani unutib yuborgandi. Ammo to‘satdan bir narsa yodiga tushib, kalovlanib qoldi.

– Oh, kalam qursin, axir sizlarga ham tug‘ilgan kun sovg‘alaringizni topshirishim kerak edi-ku, – dedi u.

– Lekin bugun bizning tug‘ilgan kunimiz emas-ku! – deyishdi Tommi va Annika.

Peppi ularga hayratlanib tikildi.

– Albatta, yo‘q! Bugun mening tug‘ilgan kunim, shundaymi? Demak, men ham tug‘ilgan kun sovg‘alarini berishim mumkin, to‘g‘rimi? Nima, yoki sizning maktab darsliklaringizda bunday qilin-

masligi haqida biron nima bitilganmi? Balki, haligi ahmoqona ko'kartirish jadvalingizda yozilgandir sovg'a berish taqiqlanadi deb?

– Nega mumkinmas ekan? Judayam mumkin-da! – dedi Tommi. – Faqat rasm-rusum bo'lib ulgurmagan xolos. Menga keladigan bo'lsak, sovg'a olishga jon derdim.

– Men ham, – dedi Annika.

Peppi zudlik bilan mehmonxonaga yugurib, shkafi ichidan ikkita o'rog'liq narsa keltirdi. Tommi o'z sovg'asini ochganida sadafdan yasalgan, bejirim nay chiqdi. Annikaga atalgan o'ramda esa kapalak-simon to'g'nog'ich bor edi. Kapalakning qanotlariga ko'k, qizil va yashil rangli toshlar qadalgandi.

Hamma o'ziga atalgan sovg'alarini olgach, bir olam shirinliklar, tortlar va bo'g'irsoqlar bilan bezatilgan dasturxonga o'tirish navbati yetdi. Tortlarning shakli biroz g'alatiroq edi, ammo Peppi Xitoyda shunaqa shaklda tort tayyorlashlari odatiy hol ekanligini uqtirdi.

Peppi qaynoqqina shokolad va quyultirilgan sut keltirdi. Hamma stol atrofida o'tirishga shaylangan bir vaqtda Tommi gap boshladi:

– Har gal biznikida bazm uyushtirilganida erkaklar xonimlarni o'tirishga taklif qilishadi. Biz ham shunday qilsak bo'lardi.

– Juda yaxshi, – ma'qulladi Peppi.

– Menimcha, bizning qo'limizdan kelmasa kerak, chunki orangizda yagona erkak o'zimman.

– Hoy tentak, nima, janob Nilson senga ayolmidi? – jahl qildi Peppi.

– Yo‘q-yo‘q, shunchaki janob Nilson borligi xayolimga kelmabdi, – dedi Tommi va qog‘ozga quyidagi so‘zlarni yozdi:

«Janob Settergren Uzunpaypoq xonimni mamnuniyat bilan kechki ovqatga taklif etadi!»

– Janob Settergren menman, – deb jilmaygan-cha Peppiga taklifnomani tutqazdi va boshqa bir qog‘oz olib yozdi:

«Janob Nilson Settergren xonimni mamnuniyat ila kechki ovqat dasturxoniga taklif etadi!»

– Yaxshi, lekin otga ham, garchi u biz bilan o‘tirolmasa-da, taklifnoma berilishi kerak, – dedi Peppi qat’iy ohangda.

Shunday qilib, Tommi yana bir taklifnoma yozdi, Peppi esa unga nima yozish kerakligini o‘rgatib turdi:

«Muhtaram ot xonimni mamnuniyat bilan tort va shakar tutib turishga yaqin bo‘lishi uchun oshxona markazida turaverishga taklif etamiz!»

– Buni o‘qib ko‘r-chi, nima deysan? – dedi Peppi taklifnomani otning tumshug‘i ostiga olib borib.

Ot hech qanday e‘tiroz bildirgani yo‘q. Tommi Peppiga qo‘lini uzatib, uni stolga taklif qildi. Janob Nilson Annikaga qo‘lini uzatishni xohlamay turgani

uchun Annikaning o'zi uni ko'tarib, stulga o'tirg'izdi. Afsuski, janob Nilson stulga o'tirmasdan, to'g'ri stol ustida o'tirmoqchiligini bildirib, xarxasha qildi. U na shokoladga va na quyultirilgan sutga ham qiyo boq-madi. Peppi uning finjoniga to'ldirib suv quyib bergach esa, quvonganidan suvni qo'shqo'llab ko'tardi.

Uchovlon – Tommi, Annika va Peppi tinmay ovqat yeyaverishdi, yeyaverishdi, yeyaverishdi... Annika agar Xitoyda chindan ham shunaqa tort pishirishsa, bir kunmas bir kun, katta bo'lganidan so'ng Xitoyga ko'chib o'tishini aytdi.

Janob Nilson sutni ichib bo'lgach, idishini teskari to'nkarib, boshiga kiyib oldi. Uning bu qilig'ini ko'rgan Peppi ham xuddi shunday qildi, lekin hali shokoladini to'liq ichib bo'lmagani uchun puyola tubida qolgan shokolad peshonasiga oqib, undan keyin burniga o'tdi. Uzunpaypoq tilini chiqarib, shokolad qoldig'ini tutib oldi.

– Ko'rib turganingizday, hamma narsani to'g'rila-sa bo'ladi, – dedi u.

Peppining ahvolidan xulosa chiqazgan Tommi va Annika piyolani boshlariga kiyishdan avval top-to-za qilib yalashdi. Barcha mehmonlar bo'kkunlari-cha yeb-ichishgach, ot ham o'z nasibasini olgach, Peppi zudlik bilan dasturxonning to'rttala chetidan ushlab, dast ko'tardi. Dasturxondagi noz-ne'matlar, idish-tovoqlar xuddi bir qop ichidagidek aralashib ketdi. Shundan so'ng Peppi yig'ilgan dasturxonni tortma ustiga uloqtirdi.

– Men har doim ovqatlanib bo'lishim bilan dasturxonni yig'ishtirib qo'yishni yoqtiraman, – mag'rurlanib dedi Peppi.

Ana endi o'yin-kulgi navbati yetdi! Peppi «Polga qadam bosma» degan o'yin o'ynasak-chi, degan taklif berdi. Uning aytishicha, bu juda oson o'yin emish. Shart shuki, o'ynayotgan odam bir marta ham polga oyog'ini tekkizmasdan butun oshxonani aylanib chiqishi kerak edi. Kim birinchi bo'lib oshxonani aylanib chiqsa, o'sha g'olib bo'lardi. Peppi ko'z yumib ochguncha bu vazifani uddaladi, Tommi va Annikaga ham qiyinchilik tug'dirgani yo'q. Oyoqlarni keng ochsangiz, ovqatlanish stoli ustidan gaz pechiga sakrab o'tish mumkin. Gaz pechidan osongina tortmaga o'tib olasiz, u yerdan esa javon ustiga tirmashib chiqiladi, javondan keyingi manzil – idish-tovoq qo'yiladigan stolchaga sakrab o'tish kerak. Undan sal narida ikkita yonma-yon kursi bor. To'g'ri, kursilar va ovqatlanish stoli o'rtasida kattagina masofa bor, lekin otni ham unutib qo'ymaslik kerak. Kursilardan o'tib, otga mingashasiz. Ana endi bemalol ovqatlanish stoli ustiga qadam qo'ysa bo'ladi va tamom! Shu bilan polga oyoq bosmasdan butun oshxona aylanib chiqiladi.

O'yin tugagach, Annikaning ko'ylagi eng sevimlisi emas, eng sevimlidan keyingisidan keyingisining keyingi sevimli ko'ylagiga aylandi. Tommining ustboshi esa xuddi mo'ri tozalovchinkiday qop-qorayib ketdi. Endi boshqa biron o'yin o'ylab topishga to'g'ri keldi.

– Chordoqqa ko'tarilib, arvohlarni ziyorat qilmaymizmi? – taklif bildirdi Peppi.

– R-r-rostdan ham ch-ch-chordoqda arvoch bormi? – qaltirab gapirdi Annika.

– Arvoh bormi deganing nimasi? Millionlab topiladi, – dedi Peppi. – Chordoqda xilma-xil arvohlar-u sharpalar to‘lib yotibdi. Qayerga qadam qo‘ysang ham arvohlarga qoqilib ketaverasan, kishi. Xo‘sh, tepaga chiqamizmi?

– Oh, Peppi! – norozi boqdi unga Annika.

– Onam hech qanaqa arvohlar ham, jinlar ham bo‘lmagan gap degandi, – xotirjam gapirdi Tommi.

– Bo‘lishi mumkin, – dedi Peppi. – Boshqa hech qayerda uchramasligi mumkin, chunki jamiki arvohlar-u sharpalar bizning chordog‘imizda yashaydi. Ularni haydab solish ham befoyda. Lekin ular qo‘rqinchli emas. Bor-yo‘g‘i chimchilab hamma yeringizni ko‘kartirishadi, itga o‘xshab uvullashadi, xolos. Ha, yana bir gap, zerikkanda o‘zlarining bosh suyaklari bilan oshiq o‘ynab turishadi.

– Nima-a-a? O‘zlarining bo-bo-boshlari bilan o-oshiq o‘ynashadi? – hayajonlanib so‘radi Annika.

– Albatta-da! Bo‘laqolinglar, tezroq tepaga chiqib, o‘zlari bilan gaplashamiz. Men oshiq o‘ynashni boplayman.

Tommi o‘zining qo‘rqayotganini bildirishni xohlamadi, lekin qanchalik qo‘rqmasin hech qursa bitta arvohni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishni istardi. Mana buni maktabdosh bolalarga aytib, maqtansa arziydi. Bundan tashqari, arvohlar Peppiga ziyon yetkazishga jur‘at qila olishmasa kerak, degan xayol bilan o‘zini yupatdi va chordoqqa birga chiqishga qaror qildi. Sho‘rlikkina Annika boshida ularga qo‘shilgisi kelmay turdi, lekin to‘satdan oshxonada yolg‘iz o‘tirganida bironta arvohvachcha pastga tushib

kelsa-chi, degan xayol kechdi. Oshxonada bir o'zi qaltirab o'tirgandan ko'ra minglab sharpalar-u arvohlar ichida bo'lsa ham, Peppi va Tommi bilan birga bo'lgani ma'qul.

Peppi boshqalarga yo'l boshchilik qildi. U chordoqqa olib chiqadigan zina eshigini ochdi. Ichkari qop-qorong'i edi. Tommi Peppini mahkam ushlab oldi, Annika esa Tommini undan ham mahkam ushlab oldi. Shunday qilib, uchovlon tepaga ko'tarilishdi. Har qadam qo'yilganida zinlardan g'irchillagan, qarsillagan tovush chiqardi. Tommi oshxonada qolganimiz yaxshimasmidi deb shubhalana boshladi, Annika ham hech qanday shak-shubhasiz shu fikrda edi. Nihoyat ular zina-ning oxiriga yetib, chordoqqa ko'tarilishdi. Polga tushayotgan bir qatim oy nurini aytmasa, chordoq ham qorong'ilikda zinadan qolishmasdi. Tiriqshdan shamol kirgan payti har bir burchakdan xo'rsingan, uvullagan tovushlar kelardi.

– Barchangizga salom, arvohzodalar! – baqirdi Peppi.

Bironta ham sharpa bo'lmasa kerakki, hech kim javob qaytarmadi.

– Ha, mayli, uyda bo'lishmasa kerak, – dedi u. – Menimcha, barchalari Arvohlar va Jinlar jamiyatining yalpi majlisiga ketishgan.

Bu gapni eshitgan Annika yengil nafas oldi va ich-ichidan ularning majlislari uzoq davom etishiga umid qildi. Oradan hech qancha o'tmasdan chordoq burchagidan qo'rqinchli qichqiriq eshitildi.

– U-u-u-u-u-v-v-v-v! – deb qichqirdi ovoz.

Birozdan so'ng esa Tommi qorong'ilik ichida nimadir o'zi tomonga yugurib kelayotganini payqadi. Sharpa bir zumda yana o'zini derazaga urib chiqib ketdi.

– Arvo-oh! Arvo-oh! – jon-jahdi bilan baqirdi Tommi. Annika ham unga qo'shib dodladi.

– Bechoragina, majlisga kechikkan ko'rinadi, – dedi Peppi. – Agar chindan arvoh bo'lsa. Kim biladi, ukki bo'lib chiqishi ham hech gapmas. Shunday ekan, katta ehtimol bilan bu yerda hech qanaqa arvoh-parvoh yo'q. Kimda-kim, bu yerda arvoh bor, deb xarxasha qiladigan bo'lsa, burnidan boplab chimchilayman o'zim.

– Mayli, lekin o'zing shunday deding-ku! – e'tiroz qildi unga Annika.

– Rostdanmi? Hali o'zim ham shunday dedimni? – ajablandi Peppi. – Yaxshi, unday bo'lsa, o'zining burnimdan chimchilayman, – dedi u va burnini mahkam qisib qo'ydi.

Shundan so'ng Tommi va Annika biroz yengil nafas olganday bo'lishdi. Endilikda ular derazadan tashqariga qarash uchun o'zlarida jasorat topishgandi. Bog' tun qo'ynida, osmonda suzib yurgan to'p-to'p bulutlar zo'r berib oyni ko'zdan pana qilishga urinishardi. Shamol daraxt shoxlarini qaqshatib o'tardi. Aka-singil ortga o'girilishdi va... dahshat!!! Qandaydir oq sharpa ular tomonga chopqillab kelayotganini ko'rishdi.

– Arvo-o-oh! – aqldan ozganday baqirdi Tommi. Annika esa yuragi yorilayozganidan hatto baqirishga ham ulgurmay qoldi. Arvoh borgan sari

yaqinlashgandan yaqinlashib kelaverdi. Aka-singil bir-birini quchoqlab, ko'zlarini yumib olishdi. To'satdan sharpaning gapirgani eshitildi:

– Buni qarang, bolalar, eski sandiq ichidan nima topib oldim – otamning tungi ko'ylagi! U yoq bu yog'idan ozroq kaltalatsam, bemalol kiyib yursam bo'laveradi.

Peppi tungi ko'ylakni osiltirib kiygancha ular to-monga yurdi.

– O, Peppi, o'takam yorilib, o'lishimga oz qoldi axir! – to'ng'illadi Annika.

– Tungi ko'ylaklar qo'rqinchl bo'lmaydi-ku, – javob qildi Peppi. – O'zlarini himoya qilishga to'g'ri kelishini aytmasa, boshqa payt hech kimni tishlab olishmaydi.

Peppi kema sandiqchasini obdan tekshirishga ahd qildi. U sandiqchani ko'tarib, deraza tokchasiga olib bordi. Sandiqchani ochdi va oy yorug'ida ichida nimalar borligini qarab chiqdi. Ichidan topilgan bir dunyo eski kiyimlarni polga uloqtirdi. Bundan tashqari, sandiqcha ichidan usturlob (teleskop), bir nechta kitoblar, uch dona to'pponcha, qilich va bir xurjun to'la oltin topildi.

– Umpalaqiton-tumpalaqiton, – dedi Peppi quvonib.

– Ajoyib! – hayratlandi Tommi.

Peppi barcha topilmalarni otasining tungi ko'ylagiga tugdi va uchovlon oshxonaga tushadigan bo'lishdi. Annika vahimali chordoqni tark etishayotganidan o'zida yo'q xursand edi.

– Hech qachon bolalarga xavfli qurollarni berib qo'ymang, – dedi Peppi va ikkala qo'lga bittadan

to'pponcha olib, – yo'qsa, noxush holatlar yuzaga kelish ehtimoli yuqori, – dedi u yana ikkala to'pponchadan baravar o't ocharkan. – Zo'r bangilladi-a? – xitob qildi Peppi ikkita o'q izi qolgan shiftga qarab.

– Kim biladi, balki, o'qlar to'g'ri chordoqqa o'tib, biron-bir arvochning oyog'ini yaralagandir, – dedi umid bilan. – Bu ularga saboq bo'lsin, bundan keyin birorta begunoh bolani qo'rqitishdan avval yaxshilab o'ylab, fikridan qaytadigan bo'lishadi. O'zi yuraklari shu ekan, odamlarni qo'rqitaman deb balo bormi, shu jinzodalarga! Istasangiz, to'pponchalarni sizga sovg'a qilaman.

Bu taklifdan Tommining boshi osmonga yetdi. Annika ham o'qlari bo'lmagan taqdirda to'pponchali bo'lishga jon derdi.

– Endi talonchilar to'dasini tuzsak ham bo'lar ekan, – dedi Peppi durbinni ko'ziga bostirgancha. – Oh-ho! Buning yordamida salkam Janubiy Amerika burgalarini ham ko'rsa bo'ladi. Agar talonchilar to'dasini tashkil etadigan bo'lsak, bu bizga juda-juda asqotadi.

To'satdan eshik taqillagani eshitildi. Tommi va Annikaning otasi bolalarini uyga olib ketgani kelgan ekan.

– Yotadigan vaqtingiz allaqachon o'tib ketdi, – dedi u bolalarga.

Tommi va Annika Peppiga rahmat aytib, xayrlashishga shoshilishdi va barcha sovg'alarini – nay, to'g'nog'ich va to'pponchalarni o'zlari bilan olishdi.

Peppi mehmonlarini darvozaxona ayvonigacha kuzatib, to'ko'zdan g'oyib bo'lgunlaricha ortlaridan

qarab qoldi. Bolalar yana bir bor qo'l siltab xayrlashish uchun o'g'irilishdi. Ichkaridan taralayotgan yorug'likda Peppini aniq-tiniq ko'rsa bo'lardi. Mana u – kokillari ikki yonga qaratib o'ralgan qizil sochli, oyog'i ostida o'ralashib yotgan otasining ro'dapotungi ko'ylagini egniga ilib olgan, bir qo'lida qilich, ikkinchisida to'pponcha tutgan qizaloq! U bolalarga javoban qilichini silkitib xayrlashdi.

Tommi, Annika va ularning otasi darvozaga yetishganida Peppining qichqirgan tovushi eshitildi. Ota-bolalar uning gapini eshitish uchun bir zunga oyoq ilishdi. Daraxtlar oralab esgan shamol uning ovozi ham birga keltirdi:

– Men katta bo'lsam, qaroqchi bo'lmoqchiman!
– baqirdi Peppi. – Siz-chi, kim bo'lmoqchisiz?!

TAMOM

Mundarija

1. Peppining «Tovuq» villasiga ko'chgani.....	3
2. Peppining mushtlashuvga aralashgani	13
3. Peppining mirshablar bilan quvlashmashoq o'ynagani.....	25
4. Peppining maktabga borgani	33
5. Peppining daraxt kovagiga kirgani.....	44
6. Peppining sayr uyushtirgani	55
7. Peppining sirkka borgani.....	67
8. Peppining qanday qilib o'g'rilarning adabini bergani	79
9. Peppining qahva bazmiga borgani	88
10. Peppi – qutqaruvchi!	102
11. Peppi tug'ilgan kunini nishonladi	111

Adabiy-badiiy nashr

ASTRID LINDGREN

UZUNPAYPOQ PEPPI

Qissa

Direktor

Ma'mura QUTLIYEVA

Muharrir

Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir

Firdavs DO'STMATOV

Musahhih

Sayyora MELIYO'ZIYEVA

Dizayner va sahifalovchi

Nigora UMARQULOVA

Texnik muharrir

Hamidulla IBOTOV

Litsenziya raqami: AA № 0009. 2019-yil 6-mayda berilgan.

Bosishga 22.11.2021-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 ^{1/32}.

Bosma tabog'i 4,0. Shartli bosma tabog'i 6,72.

Garnitura «Georgia». Ofset qog'oz.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 307

Bahosi kelishilgan narxda.

«Zabarjad Media» xususiy korxonasi tayyorlandi.
Murojaat uchun tel.: (97) 409-04-84; (94) 935-00-25



“Print Line Group“ XK bosmaxonasida chop etildi. 100097, Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44-uy.

25 000 cijun

ASTRID LINDGREN

uzunpaypoq
Peppi



ZABARJAD
MEDIA

ISBN 978-9943-7390-2-4



9 789943 739024

